

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT
SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

ISOKOVA MATLUBA KOMILOVNA

KINO VA TELEVIDENIYE TARIXI

O‘quv qo‘llanma

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutining bakalavriat 5150200 - San‘atshunoslik (sahna va ekran san‘ati dramaturgiyasi, kino san‘ati tanqidi va tahlili), 5150400 -Rejissyorlik san‘ati (turlari bo‘yicha), 5151500 - Kino teleoperatorlik ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan.

Toshkent – 2020

UDK: 610.125.20

KBK: 81.2(Ў36)

Mazkur qoʻllanmada Jahon va oʻzbek kino sanʼatining shakllanishi, rivojlanishi hamda taraqqiyot jarayonlari aks etgan. Boblar uchun tanlangan filmlarning oʻziga xos xususiyatlari rejissyorlik talqini, aktyor ijrochiligi hamda operator mahoratini tahlil qilish orqali ochib berilgan. Qoʻllanma jahon va milliy kino sanʼatining tarixi va zamonaviy jaryonlari haqida tasavvurga ega boʻlish imkonyatini yaratadi

Taqrizchilar:

Qodirova Sarvinoz Muhsinovna

Oʻzbekiston davlat sanʼat va madaniyat instituti professori, sanʼatshunoslik fanlari doktori

Abduraxmonov Ibrohim Rahimovich

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti dotsenti, sanʼatshunoslik fanlari nomzodi

**Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligining
2020 yil 30 iyundagi 359-sonli buyrugʻiga asosan nashrga tavsiya etilgan**

ISBN: 978-9943-602-86-1

© «Navroʻz» `SeZdkafl 2020

KIRISH

“Dunyo miqyosida turli g‘oya va mafkuralar kurashi, odamlar, ayniqsa, yoshlarning qalbi va ongini egallash uchun turli kuchlar o‘rtasida raqobat keskin tus olgan bugungi kunda eng ommaviy san’at bo‘lgan kinoning beqiyos imkoniyatlaridan samarali foydalanishimiz kerak.

SH.M.Mirziyoyev

Kino san’ati tarixining rivojlanish bosqichida har davrning o‘ziga xos ijodkorlari bo‘lgani e’tiborlidir. Masalan, XX asr boshlarida Yo‘ldosh A‘zamov, Komil Yormatov, Nabi G‘aniyev, Elyor Eshmuhammedov, Ali Hamroyev, Malik Qayumov, Ravil Botirov, Shuhrat Abbasov, Mels Abzalov va boshqa ko‘plab betakror iste’dod sohiblari o‘zbek kino san’ati rivojiga munosib hissa qo‘shgan bo‘lsalar, ular suratga olgan filmlarning barchasi muvaffaqiyat qozongan va bugungi kungacha tomoshabinlar e’tiborini tortib kelmoqda.

Darhaqiqat, o‘zbek kinosining tarixiga aylangan ko‘plab filmlar shu kunga qadar tomoshabinlar e’tiborini qozonib kelmoqda. Ayniqsa, “Tohir va Zuhra” (rej. N.G‘aniyev, 1946y.), “Alisher Navoiy” (rej. K.Yormatov, 1947y.), “Sen yetim emassan” (rej. SH.Abbosov, 1962y.), “Toshkent–non shahri” (rej. SH.Abbosov, 1967y.), “Abu Rayhon Beruniy” (rej. SH.Abbosov, 1974y.), “Nafosat” (rej.E.Eshmuhammedov, 1966y.), “O‘tkan kunlar” (rej. Y.A‘zamov, 1969y.), “Qo‘rquvsiz” (rej. A.Hamroyev, 1971y.), “Qushlar ortidan ketayotgan kishi” (rej. A.Hamroyev, 1975 y.), “Achchiq danak” (rej. Q.Kamalova, 1975 y.), “Shum bola”(rej. D.Salimov, 1977y.), “Abdullajon” (rej.

Z.Musoqov, 1992y.) kabi qator kinofilmlari yuksak mahorat bilan suratga olingani uchun YUNESKO fondiga kiritilgan.

Keyinchalik kino olamida o‘z o‘rniga ega, turli janrlardagi filmlari bilan o‘zbek kinosida taniqli va iste’dodli rejissyorlardan Zulfiqor Musoqov, Yusuf Roziqov, Sobir Nazarmuhammedov, Rustam Sa’diyev, Jahongir Qosimov, Hilol Nasimov, Ayub Shahobiddinov, Jahongir Ahmedov va boshqalar ustoz-shogirdan’analari davom ettirib ijod qilishmoqda.

Shuni alohida aytish kerakki, 2017 yil 29 dekabr kuni milliy kino san’ati va kino industriyamizni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar tahlili va bu borada mavjud muammolarni hal etish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev jumladan shunday dedi: ***“Biz buyuk xalqimizni ulug‘lamoqchi, O‘zbekiston nomini butun dunyoga tarannum etmoqchi ekanmiz, bu ishni birinchi navbatda kino san’ati yordamida amalga oshirishimiz kerak. Aynan kino san’ati orqali jahon ekranlarini zabt etishimiz, shu yo‘l bilan dunyo ahlining diqqat-e’tiborini qozonishimiz mumkin. Buning uchun yana bir bor kuch va imkoniyatlar, ijodiy salohiyatni ishga solishimiz kerak”***.

Darxaqiqat Prezidentimizning ana shu fikrlari bugun kino san’ati rivojida yetakchilik qilmoqda.

Ma’lumki, “kino” - ekran san’ati sifatida insonning dunyoqarashini tarbiyalashda, fikrlash doirasini kengaytirishda eng muhim vositalardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda kino sohasiga bo‘lgan e’tibor yanada kuchayib, davlatimiz tomonidan har tomonlama qo‘llab-quvvatlanmoqda. Milliy kino san’ati rivoji uchun mustahkam huquqiy asos yaratilib, ishlab-chiqarish bazasini rivojlantirishga kirishildi. Har yili milliy kino ehtiyojlari uchun davlat byudjetidan

kafolatlangan maqsadli mablag'lar ajratilib, qo'shimcha sarmoyalar jalb etishga qaratilgan zarur huquqiy hujjatlar ishlab chiqilmoqda. Bu esa kino san'atining rivojlanishiga samarali xizmat ko'rsatadi. Binobarin, kino san'ati tom ma'nodagi ma'rifiy qimmatini bilan ham biz uchun eng muhimdir.

I BOB: KINEMATOGRAFIYANING VUJUDGA KELISHI VA SHAKLLANISHI

1.1§. FRANSIYA KINOSI

1. Ovozli kinoning rivojlanishi
2. Fransiya kinosining xususiyatlari
3. Fransiya kinematografiya ixtirochisi

XIX asrning ikkinchi yarmida yer yuzining juda kup joylarida, jumladan, Amerika, Angliya, Belgiya, Italiya, va Fransiya rasmni xarakatga keltirish uchun urinish avj oldi.

San'atning yangi turi – ekran san'atini, ya'ni kinoning vujudga kelishi va rivojlanishi fan, texnika tarakkiyoti xamda ungacha bulgan san'at turlarini erishgan yutuklari bilan boglikdir. Kinoning paydo bulishiga bir qator kashfiyotlar ham sabab bo'ldi. XIX asrning oxirlarida aholi turmushiga elektor quvvati kirib keldi, kimyo fani rivojlandi, u fotografiya (surat olish)ning paydo bulishiga, keyinroq esa plynkani (tasmani) ixtiro qilishda (1887 y.) katta ro'l o'ynaydi. Belgiyalik J.Plato «fenakistiskop» deb ataladigan asbob yaratdi. U tasvir chizilgan disk, shu diskni aylantiruvchi tasmali uzatma va ko'zgudan iborat edi. Disk aylantirilganda tomoshabin ro'paradagi ko'zguga go'yo harakatlanayotgandek tuyilgan tasvirni ko'rgan.

Tasvirlarni suratga olish va keyin ularni ekranga tushirish uchun yorug'lik sezgir material talab qilinar edi. Ko'p izlanishlardan keyin shunday modda topildi. 19-asrning birinchi yarmida fransuzlar L.J.Doger va J.Nyens yoruglik ta'sirida rangini uzgarturuvchi modda kashf kildilar. Shu modda plynka yoki shisha sirtiga surkalardi. Hozir bu moddanining tarkibi takomillashtirilgan.

19-asrning oxirlarida «Lyumyer» (Fransiya) va «Istmen Kodak» firmalari kinolentalar ishlab chikara boshladi. Fransuz astronomi P.Jansen 1874-yil, fransuz fiziologi Marey 1888-yil, ingliz ixtirochilari F.Grin va J.Evans 1889-yil, kinoga olish apparatini, fransuz ixtirochisi Lui Lyumyer esa 1894-yil kinoga olish va namoyish qilish apparatini yaratdilar. Lui Lyumyer 1895-yil 22 mart kuni Parijda «Ishchilarning fabrikadan chiqishi» deb atalgan filmni patent tasdiklovchi komissiya a'zolariga ko'rsatadi va 28 dekabrda ommaviy kinonamoyishlar uyushtiradi. Ana shu kun kinematografiya tugilgan kun va Fransiya –kino vatani hisoblanadi, chunki fransiyalik aka-uka Lui va Ogyust Lyumyerlar rasmni harakatda ko'rsatuvchi apparat kashf etib, 1895-yilning 28 dekabrda Parijdagi «Grand kafe» binosining yerto'la qismida o'z kashfiyotlarini namoyish etdilar. Ana shu kashfiyot keyinchalik «sinematograf» yoki «kinematografiya» deb nomoldi. Aka - uka Lyumyerlarning oq choyshabga nur taratish orqali namoyish qilgan lavhalari «Ishchilarning Lyumyer fabrikasidan chiqishi», «Poyezdning La Sioto stansiyasiga kelishi», «Shalabbo bo'lgan mirob», «Bolaning ovqatlanishi» singari syujetlardan iborat edi. Bu syujetlar asosan Lyumyerlar xonadonida ro'y bergan voqealardan tashkil topgan edi.

Lyumyer Lui Jan (1864.5.10–1948.6.6)– fransuz kinematografiya ixtirochisi. Fransuz FA a'zosi. Anoaat maktabini tugatgan, otasiga karashli fotomateriallar fabrikasida ishlagan. Akasi Ogyust Lyumyer (1862-1954) bilan birga «harakatlanuvchi fotografiyalar»ni suratga olish va ekranga proyeksiyalash apparatni -«kinematograf» tuzilmasini ishlab chiqqan. Fransiyada har yili eng yaxshi hujjatli film uchun Lyumyer nomli mukofot ta'sis etilgan.

Kashfiyot Lyumyerlar uchun daromad manbai bo'lib xizmat qilgan. Avvaliga ular «Grand kafe» binosining o'zida ertadan kechgacha harakatdagi rasmni ommaga namoyish qilib, kuniga 2000 - 2500 frankka qadar pul ishlagan bo'lsalar, oradan ko'p vaqt o'tmay, kashfiyotlarini dunyoga taratish payiga tushdilar. Shunday qilib, sinematograf nafakat Yevropa mamlakatlari, jumladan; Rossiya, Urta Osiyo qit'alari, hatto Amerika madaniyatiga ham yoyildi.

Fransiyada SH.Pate va L.Gomon 1897-yilda bir nechta takomillashtirilgan kinoga olish va namoyish qilish apparatlarni sanoat miqyosida ishlab chiqara boshlaganlar. Ular dastlabki kinodan nusha ko'chirish apparatlarni ham ishlab chiqarganlar. Bularning hammasi ovozsiz kino uchun mo'ljallangan edi.

Daslabki qisqa metrajli filmlar «primitivizm» uslubida yaratilgan. Keyinchalik «D-Ar» va «Avangard» uslublari ishlatilgan. Fransiyalik mashhur kinosan'atkor Jan Melyes birinchi fantastik filmlarni rejisseri, Jan Epshteyn tomonidan detektiv shakllida filmlar olinadi, Rene Kler kinokomediya ustasi edi, Jan Renuar realistik filmlarni olishga harakat qilgan bo'lsa, Jak Freyder «poetik kino» maktabini birinchi rejisserlaridan. Kinorejisser Jyulyen Dyuvivye psixologik melodrama ustasi bo'lgan. Bu taniqli kinorejissyorlarning ijodiga, ssenarist Sharl Spaak va Jak Prever, kinoshunos-rejisser Marsel Karnening izlanishlari katta ahamiyat ko'rsatadi.

Yillar o'tib Fransiya kinosi rivojlana boshlaydi. Urushdan keyingi birinchi o'n yilliklar uchun rejissyorlar, R. Klemanning «Relslardagi olishuv» («Bitva na relsax», 1946), «Ta'qiqlangan o'yinlar» («Zapreshenniye igri», 1952), L.Dakenning «Tong» («Rassvet», 1949), J.Bekksrning «Antuan va Antuanetta» («Antuan i Antuanetta», 1947) singari filmlari fashizmga qarshilik

ko'rsatish harakatining kurashi va oddiy odamlarning kundalik g'am-tashvishlariga bag'ishlanganligi bilan e'tiborga loyiq. Fransiya kinosining yana bir e'tiborli jihati, quvnoq komediya yo'nalishidagi filmlarning ko'pligidir. Dunyoning turli mamlakatlaridagi kinotomoshabinlari Jan Mare, Jan Pol Bilmando, Lui de Fyunes, Alen Delon, Jerar Depardye, Pyer Rishar, Jan Goben singari ajoyib aktyorlarning ijrosini bir umr xotirasida saqlab qolganlar. Zamonaviy fransuz kinosi vakillaridan Jan Reno va Lyuk Bessonlar jahon kinosining eng mashhur kinorejissyorlari qatoridan munosib o'rin olganlar.

Fransuz kinosining ezgulik, yaxshilikni ko'rsatish an'analarini ko'proq hujjatli kino rejissyorlari K.Marker va F. Rossif ijodlarida ko'rish mumkin.

Bir so'z bilan aytganda, Fransiya kinosi Gollivuddan eng ilg'or tajriba, an'analarni o'ziga singdirgan holda, milliy o'zligini yo'qotmay rivojlanishni davom ettirmoqda. Bugungi kunda faqat Fransiya filmlarigina Gollivud filmlari bilan tengma-teng raqobtlasha olmoqda. Fransiya kinosi Yevropaning buyuk an'analarga ega bo'lgan, eng kuchli kinomaktabi hisoblanadi. Shuning uchun ham suratga olgan filmlarida ko'ngilochar, filmlarning o'ziga xos jihatlari betakror bo'yoqlar orqali ifoda etilgan.

Nazorat savollar:

1. Nima uchun Fransiya kino vatani sifatida tan olinadi?
2. Aka-uka Lyumerlar suratga olgan filmlar?
3. Kino ijodkorlar haqida gapiring?

1.2§. AMERIKA QO'SHMA SHTATLARI KINOSI

1. Amerika qo'shma shtatlari kinematografiyasi

2. Kino ijodkorlar va ular tasvirga olgan filmlar

3. Charli Chaplin ijodi

Amerika Qo'shma Shtatlaridagi dastlabki muqim kinoteatrlar 1905-yilda Pensilvaniya shtatining Pittsburg shahrida paydo bo'lgan. Sohiblari ularni "sinematografia" deb atashgan. Tez fursatda ular butun mamlakat bo'ylab ochildi va hamma kinoga boradigan bo'ldi. Ilk filmlarning aksariyati Nyu-York va Nyu-Jersida chiqarilar edi. Faqat 1913-yilga kelibgina Gollivudda filmlar tasvirga tushira boshlandi¹.

Kino san'atining qaror topishida Amerika kinorejisseri D.Griffitni xizmatlari katta. Birinchi bo'lib, u yirik plan, parallel montaj, kengaytirilgan panorama kabi ifodali vositalarni qo'llagan. Shuningdek, Ch.Chaplin, E.Shtrogeym, S.Eyzenshteyn, K.Dreyer, K.Vidor, R.Kler kabilar ham jahon kinosi rivojiga munosib hissa qo'shdilar.

Kino ibtidosi "harakatlanuvchi tasvirchalar"dan boshlanadi. Tasvirlarni harakatlanishga majbur qilish uchun ancha yillar o'tishi kerak bo'ldi va bu narsa bir talay odamlarning sa'y-harakati bilan ro'yobga chiqarildi. Harakat tassurotini yuzaga keltiradigan tasvirlarni olish yuzasidan dastlabki tajribalar o'tkazilgan 1800-yillarga murojaat qilsak. Binobarin, yugurayotgan ot suvratlari turkumini yaratish uchun bir necha kameralar o'rnatilar edi. 1880-yillarning oxirlariga kelib katushkali plyonka ixtiro etiladi. Shundan so'ng harakatning alohida, galma-gal lavhalari turkumini tasvirga oladigan kameralarni o'ylab topishadi. Bular, filmning qanday tasvirga

¹Беленький И. Лекции по всеобщей истории кино. – Москва, 2008. – 27 ст.

tushirilgan bo`lsa, o`shunday tezlikda aylanadigan lavhalari edi. Bunda ekranda harakatlanuvchi tasvir hosil qilinardi. Bular, «harakatga tushuvchi rasmlar» bo`lgan. Ular juda ommaviylashdi. Dastlab ular tevarakdagi voqelikdan tushirilgan oddiygina sahnalar edi: dengiz tulqinlari, chopayotgan ot, arg`imchoq uchayotgan bolalar, stansiyaga yetib kelayotgan poyezd. Ilk syujetli film 1903-yilda Tomas Edisonning laboratoriyasida yaratilgan bo`lib, uning nomi «Buyuk poyezdning o`marilishi» bo`lgan. Film katta shov-shuvga aylandi. Uni atayin qorong`ilashtirilgan chodirlarda namoyish etishardi.

Kino san`ati – hayotdagi voqealarni o`z xolicha yoki mahsus inssenirovka qilib, yo bo`lmasa, multiplikatsiya vositasida qayta tasvirlab suratga tushirish yo`li bilan asar yaratish hisoblanadi. Kino sa`atida adabiyot, teatr va tasviriy san`at, musiqaning etnik jihatlari o`ziga xos, xususiy ifoda vositalari zaminida uyg`unlashib ketadi. Kino san`ati tomoshabinlarning voqelik haqidagi tasavvurini, qarashini, estetik didini shakllanishida muhim vositadir.

Amerika qo`shma shtatlarida 1896-yildan kino ishlab chiqarish boshlandi. 1893-yilda T.A. Edison “Kinetoskop”ni ixtiro qildi bu ham kino san`ati rivojiga muhim hissa qo`shdi. 1908-yildan Los Anjeles yaqinidagi Gollivud AQSh kinematografiyasi markazi bo`lib qoldi. Gollivud (Hollywood) Kaliforniya shtatining Los Anjeles shahrida joylashgan bo`lib filmlarni suratga olish 1908-yildan boshlagan². 1913-15-yillardan esa Gollivud AQSh kino sanoati markaziga aylangan.

Amerika qo`shma shtatlarida “ovozli kino”ga o`tish jarayoni bir-biriga o`xshash juda ko`p tijorat filmlarini yaratishga, gangsterlar haqida hikoya qiluvchi asarlar ishlab chiqishga,

² Troost L. and Greenfield S. Jane Austen in Hollywood. – The University Press of Kentucky, 2001.

brodveyga xos operetta, estrada tomoshalarini ekranlashtirishga turtki bo'ldi.

Multiplikatsiya sohasi ham keng ommalashdi. Bu sohaning rivojida Uolt Disneyning ijodi juda katta va muhim o'rin kasb etadi.

Shu bilan birga butunjahon iqtisodiy tanazzulining ta'siri ostida amerikaning eng yaxshi filmlarida oddiy mehnatkashlarning og'ir taqdiri o'z haqqoniy aksini topa boshladi. Ijtimoiy-tanqidiy yo'nalishlar quyidagi filmlarda o'z aksini topgan:

“Bizning bir burda nonimiz”(«Xleb nash nasushniy», rej. U.Vidor, 1934), “Yangi zamonlar” («Noviye vremena», rej. CH.Chaplin, 1935), “Boshi berk ko'cha”(«Tupik», rej. U.Uayler, 1937), “Fuqaro Keyn”(«Grajdanin Keyn», rej. O.Uells, 1941) va boshqalar.

1939-1945-yillardagi 2-Jahon urushi paytida Amerika qo'shma shtatlari Gitlarga qarshi kurashgan davlatlar qatorida bo'lgan. Fashizmga qarshi mavzu, asosan, detektiv va melodrama janridagi filmlardagina o'z aksini topgan.

1920-yillardan «Metro-Goldvinmayer», «XX asr Foks», «Paramount», «Uorner brazers», «Kolombiya», «RKO-radio» kino kompaniyalari faoliyat ko'rsata boshladi. Gollivudda amerika kinematografiyasining asosiy o'ziga xos tomonlari shakllandi: «kinoyulduz» tizimini yaratish, kinodramaturgiyani standartlashtirish, filmlarni konveyer usulida ishlab chiqarish va boshqalar. Gollivudda turli davrlarda Ch.Chaplin, E.Shtrogeym, K.Vidor, J.Ford, U.Uayler, F.Kapra kabi kino darg'alari ishlagan. Iste'dodli rejisser D.U.Griffit yaratgan “Millatning tug'ilishi” (1915), “Chidab bo'lmaslik” (1916), “Sindirilgan novdalar” (1919) kabi tarixiy filmlar mustaqil san'at sifatida kinoga asos

soldi. L.Gish, R.Bartelmes, M.Pikford, K.Marsh, T.Ins, S. de Mill va boshqalar kino san`ati namoyandalari kinematografiya tarixida o`chmas iz qoldirdilar³.

1920-yillarda “Shimoldan kelgan Nanuk” rejisser R.Flaerti (1922), “Janubiy dengizlarning Moanasi” rejisser R.Flaerti (1926), “Ochko`zlik” rejisser E.Shtrogeym (1924), “Ulug` namoyish” rejisser K.Vidor (1925) kabi filmlar yaratildi. Ovozsiz kino san`atida Ch.Chaplin, G.Lloyd, B.Kiton, R.Arbekl, Ch.Konklin kabi kino qiziqchilari yetishib chiqdi. 1920-yillarda kino ishlab chiqarish “Metro-Goldvin-Mayer”, “Kolumbiya”, “Paramount”, “Uorner Brazers“” degan asosiy kinokompaniyalar ixtiyorida bo`ldi. “Rizqi-ro`zimiz” rejisser K.Vidor (1934), “Men surgundan qochganman” rejisser Le Roy (1932), “G`azab” rejisser F.Lang (1935), “Jin ko`cha” (1937) 1930-yillarning eng yaxshi filmlaridandir. II jahon urushi yillarida “Yettinchi xoch” rejisser F.Sinneman (1943), “Shimol yulduzi” rejisser L.Maylstoun (1943), “Moskvaga safar” rejisser J.Uorner (1943) kabi filmlar paydo bo`ldi. 1950-yillarda Gollivud ko`p seriyali filmlar chiqara boshlaydi: “Ben-Gur”, “Spartak`, “Kleopatra” va boshqalar “Nyu-York maktabi” deb atalgan ilg`or maktab kinematografchilari “Bauerida” (1956), “Qayt”, “Afrika” (1959), “O`qraygan ko`z”, “Soyalar”, “Aloqdchi” kabi filmlarni yaratdilar. 1960-yillardagi AQSh kinofilmlarining eng yaxshilari qatoriga “Bonni va Klayd” A.Peni (1966), “Favqulodda hodisa” S.Lyumet (1967), “Janubning diqqinafas tunida” M.Nikole (1967), “Bitiruvchi” (1968) kabilar kiradi. 1970-1980-yillarda ko`ngilochar va sarguzasht fil`mlar, “dahshat” va “falokat” filmlari chiqarishga kirishib ketildi. Shu davrda AQSh kinoaktyorlaridan B.Lankaster,

³Sterling, Christopher H., and John Kittross. Stay Tuned: A Concise History of American Broadcasting. 3rd ed. – New York: Routledge, 2001.

S.Tresi, M.Brandó, G. va D.Fondalar, D.Xofman, Mel Gibson va boshqalar AQShda kino san`ati rivojida oziga xos o`rin tutdilar.

- Eng yaxshi animatsion qisqa metrajli film - 1931-yildan
- Eng yaxshi badiiy qisqa metrajli film
- Eng yaxshi ovoz - 1930-yildan (3-dan to 41-gacha bo`lgan taqdimot marosimlarida 1930-1968 mukofot studiyalarga taqdim etilgan, 1969-yildan ovoz yozuvchi aniq kishilarga berila boshlagan.)
- Eng yaxshi ovoz montaji - 1963-yildan
- Eng yaxshi vizual effektlar - 1939-yildan
- Eng yaxshi ssenariy-adaptatsiya - 1928-yildan
- Eng yaxshi original ssenariy - 1940-yildan

Chaplin Charlz Spenser (16.04.1889 London - 25.12.1977 Shveytsariya) – amerikalik aktyor, rejisser, ssenariynavis, prodyuser. Faoliyatini 1897-yil myuzik xoll sahnalarida chiqishdan boshlagan. 1907-1912-yillar F.Karno pantomima teatrida ishladi. 1913-yil AQShga qilgan gastroli paytida «Kistoun» kinokompaniyasi bilan shartnoma tuzadi va M.Sennet rahbarligida filmlarda suratga tusha boshlaydi. O`sha paytdagi mashhur amerikalik aktyor M.Linderning unga ta`siri kuchli bo`lgan. «Baxtiyor Charli» filmidagi firibgar olifta roli uning



ekranda yaratgan ilk obrazidir⁴. Keyinchalik boshqa studiyalar filmlarida ham suratga tushib, mashhur bo`la boshlaydi. 1914-yil davomida «Kistoun»da 34 filmda o`ynab amerika kinosining eng iste`dodli va yorqin komik aktyoriga aylandi. 1915-1917-yillar «Esseney», «Myuchuel» firmalarida ssenarist, rejisser, aktyor sifatida faoliyat ko`rsatib, pantomima

san`atini komik kuch bilan uygunlashtira olishda eng yuqori cho`qqilarga ko`tarilgan jahonning eng mashhur san`atkori sifatida tanildi. 1923-yil «Ch.S. Chaplin film korporeyshen» nomli shaxsiy kinofirmasini tashkil etdi. Shu yildan boshlab Chaplin rejisser muallif sifatida qisqa yoki o`rta metrajli filmlardan to`la metrajli filmlar ishlashga o`tadi. Birinchi yirik katta filmlaridan «Parijlik ayol» psixologik dramasi bo`ldi. «Daydi», «Bank», «Yollangan», «Tinch ko`cha», «Xorijlik» va boshqalar uning dastlabki filmlaridan namunalar. «It yotish, mirza turish», «Elkaga», «Quyoshli tomon», «Kichkintoy» singari filmlarida Chaplin mahoratining yangi qirralari ochildi. «Oltin jazavasi», «Sirk», «Kata shahar chiroklari», «Buyuk diktator», «Mese

Verdu», «Rampa yorug`i» (1952, «Oskar» mukofoti, san`at cho`qqisiga ko`tarilgan filmlardan) filmlari Chaplin ijodining durdonalaridir. 1953-yildan Shveytsariyada yashagan. 1957-yil Buyuk Britaniyada o`zi bosh rol ijrochisi bo`lgan «Qirol Nyu Yorkda» filmini ekranlashtirdi, 1967-yili «Gonkonglik grafinya» filmi Chaplinning so`nggi filmi bo`ldi. Chaplin ijodkor sifatida san`atga «insonni hayot bilan bog`lab turuvchi eng buyuk kuch» deb qaragan. O`zining klounlik niqobini oddiy insonlar takdiri, xavotirini ifodalovchi, katta kuchlarni birlashtirib turuvchi inson obraziga aylantira oldi.

Haqiqiy, tom ma`nodagi fashizmga qarshi film deb Charli Chaplinning “Buyuk diktator” («Velikiy diktator», 1941) filmini qayd etish mumkin.

Bu yillardagi Gollivuddan tashqarida suratga olingan ko`plab harbiy xronikal va hujjatli filmlarni ham Amerika kinosining muvaffaqiyatli namunalari qatoriga kiritish mumkin.

1928, 1972-yillarda maxsus «Oskar» mukofotiga sazovor bo`lgan. 1954 yilda Xalqaro tinchlik mukofoti laureati bo`lgan⁵.

Uolt Disney (1901-1966) - asarlari multiplikatsiya tarixida butun boshli davrni tashkil etuvchi amerikalik rejisser⁶. Bu zotning ismi-sharifini yer kurrasining barcha go`shalarida bilishadi. U ishlab chiqqan chizilgan filmlarni uzluksiz ishlab chiqarish metodi chorak asrdan ko`proq texnikaviy jihatdan takomilning yagona standarti hisoblab kelindi. Bu metod butun film yaratish jarayonini rassomlar katta guruhini ishga jalb etishga va hatto katta asarlar yaratishni shiddatli darajada jadallashtirishga imkon tug`diruvchi bir necha bosqichlarga ajratishga asoslanadi. Qizig`i shundaki, dastlabki kartinalar – “Alisa mo`jizalar mamlakatida” va “Osvald - quvnoq quyoncha” muallifga omad

⁵Naremore James. Film Adaptation. – Rutgers University Press, 2000.

⁶Troost L. and Greenfield S. Jane Austen in Hollywood. – The University Press of Kentucky, 2001.

keltirmaydi, ammo uning yangi personaji Mikki Maus degan sichqonvoy birdaniga mashhur bo`lib ketadi. Disney chizilgan filmda asosiysi xatti-harakatlar emas, balki qahramon ruhining timsoli deb hisoblagan. Shu boisdan uning filmlaridagi qahramonlar insonga xos jihatlar - mimika, ovoz, o`ziga xos imo-ishora bilan quvvatlantirilgandir. O`z personajlarini yaratishda filmlar muallifi odatda nafaqat hayvonlarning hatti-harakatlarini ipidan-ignasigacha o`rganishadi, qolaversa «aktyorlar»dan odamzotning turli holatlari - u qanday ko`z-yosh to`kishi, kulishi, g`am chekishini «namoyish etish»ni ham iltimos qilishadi. Disney kartinalarini ishlab chiqarish maqsadida, 1939-yili maxsus kinostudiya tuzadi va hozirda ham bu kinostudiya o`z faoliyatini olib bormoqda. Disneylend - Disney tomonidan Kaliforniyada yaratilgan ulkan bolalar ko`ngilochar parkining mashhurligi ham yaratuvchisidan aslo qolishmaydi. Uning o`xshashlari tez orada bir talay mamlakatlarda qad rostladi. Rossiya ham o`zining mo`jizalar bog`iga ega bo`ldi. Undan tashqari, O`zbekiston poytaxti Toshkentda ham bunday Disneybolalar ko`ngilochar parkining ishga tushganiga bir necha yil bo`ldi.

Tayanch iboralar

Angliyada kino san`atining paydo bo`lishi, Angliya kinosanoati tarixi, ssenariy, ssenarist, prodyusser, Aleksandr Korda ijodi, "Londonfilms" studiyasi, AQSH kinosanoatitarixi, Gollivud AQSH kinematografiyasi markazi, Oskar mukofoti, AQSH kinosan`atining buyuk va taniqli namoyondalari, Charlz Speser Chaplin, Uolt Disney.

Nazorat savollari

1. AQSH kinosanoati qachon paydo bo`ldi?
2. Angliyada kino san`ati qachon paydo bo`ldi?
3. Mashhur kinorejissorlar suratga olgan filmlar?

1.3§. GOLLIVUD KINOKOMPAANIYASINING SHAKLLANISHI

1. Gollivud kino sanoatining paydo bo'lishi
2. Gollivud kinosi
3. Amerika kinosi

Gollivud kinokompaniyasining 1950-1960-yillarda jaholatparastlikka berilishi, kinoprokat harajatlarini ko'payib ketishi, filmlarning badiiy jihatdan sayozlashuviga olib keldi. Buning oqibatida Nyu-Yorkda mustaqil ishlayotgan kino arboblarning raqobati natijasida Gollivud inqirozga keldi. 1970-yillardan Gollivud yana o'z qaddini tiklay boshladi⁷. 1980-yillardan esa yana jahondagi eng yirik kino markaziga aylandi. O'z faoliyatini faollashtirib, qiziqarli badiiy filmlar ishladi. Jumladan, «Gladiator» (rejisser R.Skott, 2000), «Kema halokatidan jabr ko'rgan» (R.Zemekis, 2000), «Ayollar nima xohlaydi» (N.Meyers, 2000), «Tig'iz payt» (R.Ratner, 2001), «Boshqalar» (A.Amenabar, 2001), «Titanik» kabilar Gollivudning so'nggi yillar yaratgan eng yaxshi filmlaridir. Rassel Krou, Xoakin Feniks, Jim Kerri, Maykl Duglas, Entoni Xopkins, Richard Xaris, Mel Gibson, Kameron Diaz, Lyusi Lu, Jeki Chan, Kris Taker, Arnold Shvarsnegr, Stiven Seybl, Laura Der, Jan Klod Vandam, Silvestr Stalone, Tom Kruz, Jon Travolta, Jet Li, Leonardo Di Kaprio, Keyt Uinslet va boshqalar Gollivudning eng mashhur aktyorlaridir.

⁷ Troost L. and Greenfield S. Jane Austen in Hollywood. – The University Press of Kentucky, 2001.



Hollywood Bowl

AQShda kino san`ati o`quv muassasalari, jumladan, 1927-yilda asos solingan “Kino san`ati akademiyasi” bor bo`lib u har yili mamlakat va chet ellarda yaratilgan eng yaxshi fil`mlarga “Oskar” mukofotini beradi. Oskar - Amerika kino akademiyasining har yili taqdim etiladigan mukofoti bo`lib 1927-yilda asos solingan⁸.

Oskar mukofoti AQShning eng nufuzli kinematografiya sohasidagi sovrin hisoblanadi. Taqdimot marosimi yuzlab mamlakatlarda to`g`ridan-to`g`ri efirga uzatiladi va olib ko`rsatiladi. Ko`pgina kinofestivallardan farqli ravishda “Oskar” hakamlar aniqloviga ko`ra emas, balki Akademiya a`zolarining umumiy ovoz berishiga ko`ra taqdim etiladi. Hozirgi kunda Oskar mukofoti 24 asosiy nominatsiya bo`yicha taqdim etiladi⁹.

Oskar mukofotining nominatsiyalari quyidagilardan iborat:

Asosiy nominatsiyalar

- Yilning eng yaxshi filmi - 1928-yildan
- Eng yaxshi erkaklar roli - 1928-yildan
- Eng yaxshi ayollar roli - 1928-yildan
- Eng yaxshi ikkinchi darajali erkaklar roli - 1936-yildan
- Eng yaxshi ikkinchi darajali ayollar roli - 1936-yildan
- Eng yaxshi animatsion to`liq metrajli fil`m - 2001-yildan


⁸<http://www.kinopoisk.ru/awards/oscar/>

⁹<http://www.oscar.com/>

- Eng yaxshi rassom-postanovkachi/dekorator ishi - 1928-yildan
- Eng yaxshi operator ishi - 1928-yildan
- Eng yaxshi liboslar dizayni - 1948-yildan
- Eng yaxshi rejissura - 1928-yildan
- Eng yaxshi hujjatli to`liqmetrajlifilm
- Eng yaxshi hujjatli qisqa metrajli film
- Eng yaxshi montaj - 1935-yildan
- Chettilidagiengyaxshifil`m - 1947-yildan
- Eng yaxshi grim - 1981-yildan
- Eng yaxshi musiqa - 1934-yildan
- Eng yaxshi qo`shiq - 1934-yildan

“Gollivud” so‘zining ma’nosini dunyoning deyarli barcha burchagida juda yaxshi bilishadi. Ular ekranlarda namoyish etadigan kinofilmlar kino san’atini qadrllovchi barchani o‘ziga ohanrabodek jalb etadi. Gollivud kinematografiyasi, so‘zsiz, o‘z kasbdoshlari orasida peshqadam. Ammo ko‘pincha “Gollivud kinosi” bilan “Amerika kinosi” degan tushunchalarni birlashtirib yuborishadi. Bu noto‘g‘ri. Amerika kinosi bu faqat ulkan Gollivud kinoindustriyasidangina iborat emas. Bu shu bilan birga rivojlangan mustaqil mualliflik kino tizimi hamdir. Bu katta-katta kinokompaniyalar aralashuvi va yordamisiz, faqat o‘z tashabbusi, kuchiga ishonib film suratga olayotganlar hamdir. Bu bir tomondan kichik byudjetli film bo‘lsa, ikkinchi tomondan rejissyorlarga hech qanday bosim yo‘q degnidir. Bu filmlar smetasi, odatda, uncha boy bo‘lmaydi. Rejissyorlar prodyuser topolmay, ko‘pincha o‘z shaxsiy mablag‘lariga film yaratadilar. Shunga qaramay AQSH va Kanadada mualliflik kinosi juda ommalashgan va rivojlangan. Undan tashqari, bunday filmlar ko‘plab xalqaro kinofestival va tanlovlarda g‘olib chiqib, dunyo

miqyosida ham obro‘ qozondilar. Amerika zamonaviy mualliflik kinosining Vudi Allen, Djon Malkovich, Maykl Mur, Djim Djarmush, Devid Linch, Djoel va Etan Koen singari vakillari jahongda mashhurdir. Ayniqsa, AQSH kinematografiyasida ijod qiluvchi jahonga mashhur kinorejissyorlarning paydo bo‘lishi ham kino olamida o‘ziga xoslikni tashkil etadi. Bu borada, mashhur Stiven Spilberg nomini eslash joiz.



Stiven Allan Spilberg 1946 yil 18-dekabrda Sinsinnati shahrida, muhandis Arnold Meer Spilberg va professional pianist Lei Adler oilasida tug‘ilgan. Amerikalik kinorejissor, ssenariynavis, prodyuser va montajor AQSH tarixidagi eng muvaffaqiyatli kinoijodkorlardan biri. Spilberglar ko‘chib o‘tgan Kaliforniyada Stiven ikki marta Janubiy Kaliforniya universitetidagi kino maktabiga kirishga uringan, ammo uni qabul qilishmagan. Keyin u Texnik kollejga o‘qishga kiradi va ta‘til payti 26 daqiqalik “Эмблин” filmi suratga oladi. 1969 yilda Universal Pictures “Эмблин” filmi tomosha qilgandan so‘ng, yangi “Ночнаягалерея” serialning birinchi epizodi uchun yosh rejissor bilan shartnoma tuzadi. Spilbergning birinchi rejissorlik debyuti “Шугарлендскийэкспресс” filmi edi. U tanqidchilar tomonidan yaxshi baholangan. 2001 yilda Britaniya kino

sanoatining rivojlanishidagi beqiyos hissasi uchun qirolicha Yelizaveta II unga Britaniya Imperiyasining Faxriy ritsar qo'mondoni unvonini berdi. Spielberg dnyo bo'yicha eng kassabop rejissor. Barcha filmlarning kassasi 8.45 milliarddan ortiq mablag'ni tashkil etadi.

- “Posledneye oruziye” (1959)
- “Bojevoy vzvod” (1961)
- “Pobeg v nikuda” (1961)
- “Nebesniye ogni” (1964)
- “Vozdushniy potok” (1964)
- “Emblin” (1968)
- “Ubiystvo po knige” (1968)
- “Duel” (1971)
- “Chto-to zlovesheye” (1972)
- “Dikar” (1973)
- “Shugarlenskiy ekspress” (1974)
- “Chelyusti” (1975)
- “Blizkiye kontakti tretyey stepeni” (1977)
- “1941” (1979)
- “Indiana Djons: V poiskax utrachennogo kovchega” (1981)
- “Inoplanetyanin” (1982)
- “Sumerechnaya zona” (1983)
- “Indiana Djons i xram sudbi” (1984)
- “Sveti liloviye poley” (1985)
- “Imperiya solnsa” (1987)
- “Indiana Djons i posledniy krestoviy poxod” (1989)
- “Vsegda” (1989)
- “Providets” (1990)
- “Kapitan Kryuk” (1991)
- “Park yurskogo perioda” (1993)

- “Spisok Shindlera” (1993)
- “Blizkiye kontakti tretyey stepeni” (1977)
- “Indiana Djons: V poiskax utrachennogo kovchega” (1981)
- “Inoplanetyanin” (1982)
- “Sumerechnaya zona” (1983)
- “Indiana Djons i xram sudbi” (1984)
- “Sveti liloviye poley” (1985)
- “Imperiya solnsa” (1987)
- “Indiana Djons i posledniy krestoviy poxod” (1989)
- “Vsegda” (1989)
- “Providets” (1990)
- “Kapitan Kryuk” (1991)
- “Park yurskogo perioda” (1993)
- “Spisok Shindlera” (1993)
- “Boyevoy kon” (2011)
- “Linkoln” (2012)
- “Shpionskiy most” (2015)
- “Bolshoy i dobriy velikan” (2016)
- “Sekretnoye dosye” (2017)
- “Pervomu igroku prigotovitsya” (2018)
- “Vestsaydskaya istoriya” (2020)
- “Indiana Djons 5” (2021)
-



The Terminal



Rejissyor suratga olgan barcha filmlarda o'ziga xos ichki nozik xislarni goh tushunarli, goh tahliliga xos tilda suratga oladi.

Bu esa tomoshabin uchun chuqur mulohazali betakrorligi bilan ajralib turadi. Shunisi qiziqki, rejissyorning yirik qo‘lga kiritgan muvaffaqiyatlaridan biri uning “Oscar” mukofoti sovrindori ekani. Undan tashqari Spilbergning kino san‘atiga qo‘shgan hissasi uchun 4 ta medal va 6 ta orden bilan taqdirlangan. Бу эса кино оламида ижодкорга берилган баҳо десак адашмаган бўламиз.

Tayanch iboralar

Kino, kino san‘ati, kinematograf, kino plyonka, Tomas Edison, “Sharq yulduzi” kinofabrikasi, kino musiqasi, Kinoasar o‘ziga xosligi, televidenie va kinoning farqli tomonlar, kino nazariyotchilari.

Nazorat savollari

1. Kino san‘atida nimalarni bilasiz?
2. Gollivud kino rejissorlari haqida fikringiz?
3. Kino ijodkorlar haqiga gapiring?

1.4§. ANGLIYA KINOSI

1. Angilya filmlarining paydo bo‘lishi

2. Kinoda ijodkorning o‘rni

3. Yevropa mamlakatlari kinosi

Angliya kinosining tug‘ilishi va «Brayton maktabi» (1895-1908-yillar)



Charlz Urban– Angliyaning ilk kino tadbirkorlaridan

Angliya kinosi boshqa Yevropa mamlakatlari kinosidan doim alohida ajralib turgan. Buyuk Britaniyada hali kinematografiya paydo bo‘lishi va tarqalishidan anchagina oldinroq dunyo tan olgan juda kuchli aktyorlik ijrochilik maktabi va madaniy an’analar shakllanib, mavjud bo‘lgan.

Angliyada kino ishlab chiqarish sanoati 1900 yilgacha ancha tarqoq bo‘lgan. Uilyam Pol Angliyaning birinchi film ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi. U 1895-1896-yillarda Birt Akres bilan hamkorlikda ish yuritadi. 1896-yilning dekabrda Polning bisotida asosan tabiatni suratga olishdan iborat lavhalar va hujjatli filmlar bo‘lgan xolos. 1898-yilga kelib Polning raqobatdoshlari faqat Braytonda ishlovchi, “Brayton maktabi” deb ataluvchi guruh vakillari bo‘lgan. Ular orasida Uilyam Friz-Grin va uning safdoshlari Esme Kollins, Jems Uilyamson, Jorj Albert Smit bo‘lganlar. Barchalari hozirgacha saqlanib qolgan mahalliy fotografiya klubi a’zolari bo‘lishgan.

Amerikalik Charlz Urban Nyu-Yorkdagi kinokorxonaning Londondagi sho‘basi rahbari bo‘lib, juda tez Angliyaning eng ko‘zga ko‘ringan va nufuzli kinotadbirkoriga aylangan.

Angliya kinematografi haqida soʻz borganda, bizning hayolimizda darrov ekranlashtirilgan adabiy asarlar gavdalanadi. Shuningdek, Alfred Xichkok va Lindsney Andersen singari ajoyib rejissyorlarning ismi yodimizga tushadi. Xichkokni qoʻrqinchli, ommani yoppasiga ruhiy jazavaga solib, asablarini tarang torttirib qaqshatuvchi, junbushga keltirib, dahshatli talvasaga tushiruvchi, vahshiylikni targʻib etuvchi janr asoschisi deyishadi. Masalan, “Qushlar” (“Ptitsi”) filmini misol qilish mumkin.

A.Xichkokni 1929-yilda suratga olgan birinchi ingliz ovozi “Shantaj” filmi mashhur qilgan. Keyinchalik “Xonim gʻoyib boʻladi” (“Ledi ischezayet”, 1938-yil) nomli “ekspressionistik” ruhdagi filmida qoʻrqinchli, kulgili va romantik voqealarni qorishtirib tashlab koʻrsatganda uni “asab tolalarini badiiy qaqshatish ustasi” deb tan olishgan.

L.Anderson Angliya kinematografiyasi uchun eng murakkab boʻlgan davrlarda ham «Ozod kino» yoʻnalishiga sodiq qolib va asosan mumtoz adabiyot asarlarini ekranlashtirish bilan shugʻullandi. Shu tariqa “Sportli bu hayot“ («Eta sportivnaya jizn», 1963), satirik komediya janridagi “Britaniya” gospitali” («Gospital «Britaniya»,1982) singari filmlar suratga olgan.

Angliya kinosining ikkinchi rivojlanish tamoyili anʼanaviy teatr sanʼati tajribasini oʻzlashtirish bilan bogʻliq boʻlib, mumtoz adabiyot asarlarini ekranlashirishda oʻz aksini topdi. “Araviyalik Lourens” («Lourens Araviyskiy»), «Gamlet», «Richard III», «Genrix V» singari filmlar shular jumlasidandir.

Angliyaning tijorat filmlari 1950-yillar oxiri va 1960-yillarning boshlarida ingliz tijorat filmlari alohida ahamiyatga ega boʻlib, bu filmlarning asosini detektiv janri tashkil etgan. Jumladan, Agato Kristining Puaro va Miss Parpl haqidagi mashhur

romanlarini ekranlashtirish, Jeyms Bond haqidagi turkum filmlarni suratga olish katta muvaffaqiyat olib kelib, muhlislar sonini oshirgan.

Angliyaning 1930-yillardagi kino san'ati, asosan, o'rta sinf vakillarining hayotini ko'rsatadigan filmlardan iborat bo'lib, ularda mavjud ijtimoiy muammolar, tengsizliklar, mehnatkashlarni ekspluatatsiya qilish, sinfiy kurash singari mavzular chetlab o'tilgan. Bu yillarda oddiy mehnatkashlarning, bank xodimlari singari turli kasb egalari hayoti to'g'risida ko'plab hujjatli filmlar yaratilgan bo'lsada, ularda ham o'tkir ijtimoiy masalalar deyarli ko'rsatilmagan. Ingliz hujjat kinosining urush yillaridagi faoliyati yangi - badiiy-hujjatli filmlar janrini paydo bo'lishiga yo'l ochib berdi. Urushning so'nggi yillarida asosan dramatik, psixologik, detektiv filmlarni suratga olish birinchi o'ringa ko'tarilgan.

Tijorat filmlaridagi dunyoga mashhur bo'lgan personajlardan biri Jeyms Bond yoki "007 Agenti" bo'ldi. Yozuvchi Yan Fleming bu ingliz "josusi" haqidagi birinchi kitobini 1953 yilda yaratgan bo'lsa, shundan keyin uning va boshqa mualliflarning Bond haqidagi ko'plab asarlari ekran yuzini ko'rdi.

Angliya kinematografik bozori 1920-yillardayoq allaqachon to'liq Gollivud hukmida bo'lgan. Bu paytlardagi Angliya kinosining e'tiborli jihati faqatgina S.M.Eyzenshteynning nazariy qarashlaridan ilhomlangan J.Girson boshchiligidagi milliy hujjatli kinofilmlar maktabining paydo bo'lishidir.

Yevropa mamlakatlari kinosi

Germaniya, Italiya davlatlarida (ular urushda mag'lub bo'lishgunga qadar) kino san'ati butkul imperiyalik, gegemonlik, boshqa millatlardan ustunlik g'oyalarini targ'ib va tashviq etuvchi kuch, vositaga aylantirilgan edi.

Fashistlar Germaniyasi va Italiyada hayotiy haqiqatni buzib, sohtalashtirib ko'rsatuvchi filmlarni ishlab chiqishga katta ahamiyat berilgan bo'lsa, Yaponiyada samuraylik maqomi, sharafini ulug'lovchi tarixiy filmlarga ro'jo' qo'yilgan.

Shvetsiya kinosi

Bu mamlakatda o'ziga xos ijod yo'nalishlariga ega bo'lgan rejissyor Ingmar Bergman oldingi saflarga chiqib oldi. Uning filmlarida zamonamizning ahloqiy muammolari, qaltis masalalari o'rganilib, yuqori saviyada ko'rsatiladi. Rejissyor ijodida Skandinaviya xalqlariga xos ijodiy tafakkur nomoyon bo'ladi. "Yettinchi muhr" ("Sedmaya pechat", 1957), "Yerlik maydon" ("Zemlyanichnaya polyana", 1957), "Kuzgi sonata" ("Osenniyaya sonata", 1978), "Shaxs" ("Persona", 1958), "Yuz" ("Litso", 1958) filmlarida rejissyor insonlarning ichki dunyosini tahlil etadi, ularning fojiaiy yolg'izligi haqida mushohada qilib, insonning jamiyatdagi o'rnini haqida fikr yuritadi. Shu bilan bir qatorda, qandaydir qarama-qarshi isyonkorlik hissiyotiga bo'ysunib, qahramonlar tuyg'ularini, hayotining turli jihatlarini beparda, behayolarcha namoyish etish hollarini namoyon etadi.

Rejissyor B.Vidbergning ijodi esa zamonamizning o'tkir ijtimoiy muammolariga bo'lgan qiziqishning kuchliligi bilan ajralib turadi.

Ispaniya kinosi.

Jahon kinosiga o'ziga xos, betakror Luis Bonueldek buyuk badiiy ijod ustasini bergan bo'lsada, ammo u mashhur fransuz kinorejissyori bo'lib tanildi. Butun umri davomida, uzoq 1928-yildan boshlab u "syurrealizm" g'oyalariga sodiq qoladi. O'shanda ular Salvador Dali bilan birga "Andaluz ko'ppagi" ("Andaluzskiy pes", 1928), "Oltin asr" ("Zolotoy vek", 1930) filmlarini suratga oladilar. Ikkala film ham juda katta norozilik,

mojorolar keltirib chiqaradi. “Oltin asr” filmi 50 yil mobaynida ta’qiqda bo‘lgan. Ammo kino ishlab chiqarish asta-sekin rivojlanib borgan.

Nazorat savollar

1. Angliya kinosining vujudga kelishi
2. Angliya kino san’ati rivojiga hissa qo‘shgan namoyondlar kimlar?
3. Angliya kinosining rivojlanish bosqichlari.

II BOB. ROSSIYA KINOSI

2.1§. 1920 -YILLARDA ROSSIYA KINOSINING RIVOJLANISHI

1. Birinchi kinonamoyishlar
2. Rossiya kinoijodkorlari
3. “Mosfilm” kinostudiyasining faoliyati

1908-yildan Sankt-Peterburgda A.Drankovning, Moskvada A.Xanjonkov va I.Yermolevning kino firmalari tashkil etildi. Ilk kinochilar xalq qo`shiqdari, mumtoz adabiyot asarlari asosida filmlar yaratishdi. 1908-yili “Stenka Razin va knyaz qizi” rejisser V.F.Romashkov, 1911-yili “Sevastopol mudofaasi”, rejisser V.M.Goncharov va A.Xanjonkov, 1910-yillarda “Dvoryanlar uyasi” rejisser V.R.Gardin, «Qarg`a» rejisser Y. Protazanov filmlari suratga olindi.

Dastlab, rus kino ishlab chiqarishining rivojlanishiga xorijiy lentalarning oqimi to'sqinlik qildi, ammo 1907-1908-yildan boshlab u asta-sekin yaxshilanib bordi va mahalliy rasmlarni chiqarish boshlandi. Kino sohasidagi birinchi tadbirkorlar orasida Aleksandr Osipovich Drankov va Aleksandr Alekseevich Xonjonkovlarni alohida t'akidlash lozim.




Aleksandr Osipovich Drankov



Aleksandr Alekseyevich Xanjonkov

Birinchi rus badiiy filmi V. Romashkovning ("Ponizovaya Volnitsa") edi. (1908). Stsenariy - V. Potters. Bu Stepan Razin haqidagi "Oroldan yadrogacha" qo'shig'i syujetidagi kichik pantomima edi.




Yana bir taniqli kinorejissyor Aleksandr Xonjonkov edi. 1909-1914-yillarda uning kompaniyasi 70 dan ortiq o'yin rasmlarini nashr etdi. 1912-yilda Jitnaya ko'chasida u o'sha paytda eng katta kinostudiyani qurdi, unda filmlar suratga olinib boshlandi.

Xonjonkov Pushkin, Lermontov, Gogol, Tolstoy va boshqa ko'plab adiblarning asarlari uchun "Ermak Timofeevich – "Sibirni zabt etuvchi", "Sevastopol mudofaasi", "1812" chi kabi tarixiy

rasmlar asosida suratga olgan. Rossiya inqilobdan oldingi kinosining birinchi rejissyorlaridan biri Peter Ivanovich Chardynin (1878-1934) edi. U 1907 yilda kinoga kirib kelgan va adabiy asarlarni filmga moslashtirish bilan shug'ullangan. O'lik ruhlar (Gogol, 1909), Kolomnadagi uy (Pushkin, 1913), Natasha Rostova (Tolstoy, 1915). Uning filmlarida Vera Xolodnaya, Ivan Mojuxinkabi taniqli aktyorlar rol o'ynagan.




Dziga Vertov (Denis Arkadyevich Kaufman) Rossiya hujjatli filmlarining asoschisi. 1922-1925 yillarda Vertov "Kino-Pravda" jurnalining oylik sonlari ustida ishladi. "Kinoglaz" filmi (1924) "Hayratlanish bilan hayot" birinchi film (Vertovni suratga olishning maxsus usuli). "Kiyim-kechak kiygan odam" (1929) - film hujjatli kino operatori kasbi haqida hikoya qiladi.



Eyzenshteyn Sergey Mixaylovich (1898.10.01, Riga 1948.11.02) Moskva kinorejisseri, kino nazariyotchisi. RSFSRda xizmat ko`rsatgan san`at arbobi (1935). San`atshunoslik fanlari doktori (1939), professor (1937). Sovet va chet el kino san`ati rivojiga tasir ko`rsatgan ijodkor. U o`z faoliyatini 1921-1924-yillarda “Prolet kult” teatrida boshlagan. Eyzenshteyn dastlab teatr bilan shug'ullangan. Hamda o'qituvchi deb ham hisoblangan. 1923 yilda Eyzenshteyn ijodiy manifestini nashr etdi. U an'anaviy dramada zarb va sirk, sahna, plakat, jurnalistikaning kombinatsiyasidan farq qiladi. Teatr spektakllaridan birining muvaffaqiyatsizligi uni teatrning eskirganligi to'g'risida o'ylashga majbur qiladi.

Kinodagi faoliyatini esa 1924-yildan boshlab, 1925-yil “Ish tashlash” nomli birinchi filmini yaratgan. “Potyomkin Bronenosetsi” fil'mi (1925) unga shuhrat keltiradi va bu fil'm jahon kinematografiyasi rivojida katta rol o`ynadi. Keyinchalik “Eskilik va yangilik”, “Aleksandr Nevskiy”, “Ivan Grozniy”, “Yashasin, Meksika!” kabi fil'mlar yaratdi. Katta Farg`ona kanali qurilishini ko`rib, shu haqida badiiy fil'mni suratga olmoqchi bo`lgan va P.Pavlenko ssenariysi asosida faoliyat olib borgan.

Shuningdek, kino nazariyasi va tarixiga oid asarlar yaratgan ijodkor.



1919-yildan boshlab 27-avgust Rossiya kinosi kuni sifatida nishonlanib keladi. Rossiyada birinchi fantastik janrdagi film “Aelita” deb nomlanib 1924-yilda tasvirga olindi. 1920-30-yillarda rejisserlardan S.Eyzenshteyn, G.Roshal, A.Ivanovskiy, V.Pudovkin, D.Vertov tarixiy, hajviy, komik filmlarni tomoshabinlarga taqdim etdilar. “Hayotga yo`llanma” nomli birinchi ovozli badiiy film rejisser N.Ekk tomonidan 1931-yilda yaratildi. Shundan keyin “Aleksandr Nevskiy” rejisser S.Eyzenshteyn, “Petr I” rejisser V.Petrov kabilar tarixiy filmlarni yaratishdi. Shuningdek, “Quvnoq yigitlar”, “VolgaVolga” rejisser G.Aleksandrov, “Traktorchilar” rejisser I.Pirev kabilar hajviy filmlarni yaratishdi va ekranga chiqarildi. II jahon urushi va undan keyingi yillarda Rossiya kinematografiyasining ko`pchilik kinoasarlari vatanparvarlik, fan-texnika inqilobi, kosmosni zabt etish mavzulariga bag`ishlandi “U vatanni himoya qiladi” rejisser F.Ermler, “Turnalar uchmoqda” rejisser M.Kalatozov, “Inson taqdiri” rejisser S.Bondarchuk, “Olovning bo`ysundirilishi” rejisser D.L. Xrabrovitskiy va boshqalar.

Sobiq Sovet Ittifoqi va Rossiya kino ijodkorlari “Oskar” mukofotini faqat 6 marotaba olganlar. 1943 yilda hujjatli kino ustalari Varlamov va Kapalinlar “Nemis-fashist bosqinchilarining Moskva ostonasida tor-mor etilishi” hujjatli filmi, 1944 yilda Mark Donskoy “Kamalak” (“Raduga”), 1968 yilda Sergey Bondarchuk “Urush va tinchlik” (“Voynaimir”), 1980 yilda Vladimir Menshov “Moskva koʻz yoshlarga ishonmaydi” (“Moskva slezam neverit”), 1994 yilda Nikita Mixalkov “Oftobdan charchaganlar” (“Utomlenniy esolnsem”) badiiy filmlari, 1999-yilda Aleksandr Petrov “Chol va dengiz” (“Starik i more”) animatsion filmi uchun “Oskar” bilan taqdirlanganlar.

Rossiya kinosanoatida mumtoz adabiyot asarlarini ekranlashtirish doim katta oʻrin olib kelgan. Jumladan, F.Dostoevskiyning “Jinoyat va jazo” (1970, rejisser L.A.Kulijanov), M.Gorkiyning “Egor Bulichev va boshqalar” (1973, rejisser Y. Solovev) va “Vassa” (1983, rejisser G.Panfilov), M.Bulgakovning “Qochish” (1971, rejisser A.Alov, V.Naumov), Chexovning “Dasht” (1977, rejisser S.Bondarchuk), I.Goncharovning “I.I.Oblomov hayotining bir necha kuni” (1980, rejisser N.Mixalkov), A.Tolstoyning “Pyotrning yoshligi” (1981, rejisser S.Gerasimov) asarlari suratga olindi. Rejisser V.Menshovning “Moskva koʻz yoshlarga ishonmaydi” va A.Mittaning “Ekipaj” filmlari Rossiya kinematografiyasida ijtimoiy va maʼnaviy yoʻnalishga eʼtibor kuchayganidan darak berdi. 1960-1980-yillarda G.Chuxray, V.Shukshin, G.Panfilov, N.Mixalkov, E.Ryazanov kabi rejisserlar barakali ijod qildilar. 1990-yillarda voyaga yetgan rejisserlar avlodi keksa kino arboblari bilan ijodiy bahs yuritib, mafkura sohasidagina emas, badiiy vositalar, ifoda usullari borasida ham yangi yoʻllarni izlay boshladi. Rossiyada badiiy kino bilan birgalikda hujjatli, ilmiy-

ommabop va multiplikatsiya kinosi ham keng rivojlandi. Rossiyada “Mosfilm”, “Lenfilm”, “M.Gorkiy nomidagi kinostudiya”, “Soyuzmultfil`m” studiyalari, turli viloyatlarda badiiy va hujjatli filmlar studiyalari bor. Rejisser operator va boshqa kadrlar Moskvadagi Davlat kinematografiya institutida, ssenarist va rejisserlar ikki yillik oliy kurslarda tayyorlanadi. Bundan tashqari, Sankt-Peterburg, Rostov-Don, Qozon, Voronej, Zagorskda kinotexnikumlar ham faoliyat yuritib kelgan.

“Mosfilm” - Rossiyadagi badiiy filmlar ishlab chiqaruvchi eng yirik kinostudiyalardan biri hisoblanib 1924-yil Moskvada tashkil topgan va turli nomlar bilan atalgan. 1935-yildan boshlab hozirgi “Mosfilm” nomida faoliyat yuritib kelgan S.Eyzenshteyn, V.Pudovkin, A.Dovjenko, M.Romm, A.Tarkovskiy va boshqa mashhur rejisserlar faoliyat ko`rsatgan. Shuningdek, M.Kalatozov, A.Ptushko, V.Shukshin, G.Aleksandrov, S.Bondarchuk, G.Daneliya, A.Zarxi, Y.Ozerov, G.Chuxray kabilarning ijodi “Mosfilm” faoliyati bilan chambarchas bog`liqdir. “Quvnoq bolalar” G.Aleksandrov, “Aerograd” A.Dovjenko, “Ivan Grozniy” S.Eyzenshteyn, “Inson taqdiri” S.Bondarchuk, “Haloskorlik` Y.Ozerov filmlari bilan shuxrat qozongan. 1945-yildan kinostudiya qoshida “Kinoaktyor teatr-studiyasi” ishlab turibdi. 1991-yildan boshqa kinostudiyalarni suratga olish pavilonlari bilan ta`minlovchi kinokonsern vazifasini ham o`tamoqda.

Protazanov Yakov Aleksandrovich (23.01.1881- Moskva - 08.08.1945) rejisser, rus kinematografiyasi asoschilaridan biri. U 1935-yilda Rossiyada va 1943-yilda O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan san`at arbobi unvonini olgan. U ijodini 1907-yil dastlab ssenariynavis, keyinchalik rejisser sifatida boshlagan. Yakov Protazanov tasvirga olgan “Qarg`a” (1916), “Sergiy ota” (1918) filmlari rejisserlik va operatorlik madaniyatining yuksakligi,

aktyorlar rolining mukammalligi bilan ajralib turadi. “Aelita” (1924), “Torjoklik bichiqchi” (1925), “Qirq birinchi” (1927), “Don Diego va Pelageya” (1928), “Avliyo Yorgen bayrami” (1930) kabi ovozsiz kinoning eng yaxshi namunalarini yaratdi. Yakov Protazanovning hajviy filmlari satira, yumor va qiziqarli syujetlarga boydir. Yakov Protazanov ovozli kinoda yaratgan “Sepsiz qiz” (1937) filmi mumtoz kino fondidan o`rin oldi. Yakov Protazanov uzbek milliy kino san`atining shakllanishi va rivojlanishiga ham katta hissa qo`shgan. U urush yillari Toshkentda yashab, “Nasriddin Buxoroda” (1943) filmi yaratdi. Bu film uzbek kinematografiyasida komediya janrining shakllanishi va N.G`aniev, R.Pirmo`hamedov, A.Ismatov kabi mahalliy kino arboblarning ijodiy kamolotida muhim rol o`ynadi.

Jumladan, Ukrainada dastlabki xronika filmlari 19-asrning 90-yillarida yaratilgan. 1896-1906 yillarda Xarkovlik fotograf A.K.Fedetskiy xronikal kinolentalarni namoyish etgan. 1911-1914-yillarda kinooperator D.Saxnenko rejisser N.K.Sadovskiy bilan birga "Poltavalik Natalka" va boshqa spektakllarni suratga oldi. 1917-1919-yillarda Yalta va Odessada xususiy kinoatelyelar ishladi. 1922-yildan muntazam ravishda badiiy filmlar ishlab chiqarila boshladi. 1928-yil Kiyevda katta kinofabrika (hozirgi A.Dovjenko nomidagi Kiyev kinostudiyasi) ochildi. Birin-ketin A.Dovjenkoning "Muhabbat mevasi" (1926). "Zvenigora" (1928), "Yer" (1930), "Aerograd" (1935) va boshqa fil`mlari yaratildi.

Tayanch iboralar

Rossiya kinosanoati, Timchenko ixtirosi, kinoprojektor, birinchi kinonamoyishlar, Aleksandr Xanjonkov kinofabrikasi, “Mosfilm” kinostudiyasining faoliyati, Sergey Eyzenshtey, Yakov Protazanov ijodi, birinchi ovozli filmlar, Rossiya kinosan`atkorlari va o`zbek kino san`atkorlarning hamkorligi, Markaziy Osiyo davlatlarida kinosana`ting rivojlanishi.

Nazorat savollari

1. Rossiyada kinosana`ti qachon paydo bo`ldi?
2. “Mosfilm” kinostudiyasi qachon o`z faoliyatini boshladi?
3. Kino ijodkorlar haqida nima bilasiz?

2.2§. 1940-1960- YILLADRA ROSSIYA KINOSI

1. Rossiya kinosida mavzu va uslub

2. Kinematografiyaning rivojlanishida ijodkorlar o`rni

3. Rossiya kinostudiyalari

1940-70-yillarda badiiy va hujjatli kino ustalari urush mavzularini va ijtimoiy turmushning chigal jarayonlarini aks ettirdilar. Axloq odob muammolarini ko`tarib chiqdilar. Adabiy asarlar ekranlashtirildi, bolalar uchun fil`mlar yaratildi.

Birinchi bor Moskva Xalqaro kinofestivali 1935 yilda o`tkazilgan. Venetsiya kinofestivalidan keyin eng qadimiy ikkinchi kinoanjuan hisoblanadi. Birinchi festivalda 19 mamlakatdan filmlar ishtirok etgan. Festival ochilish marosimi 21 fevral kuni Rossiyaning “Udarnik” kinoteatrida bo`lib o`tgan. Hay`at (jyuri) raisi etib taniqli kinorejissyor Sergey Eyzenshteynni tayinlashgan. Hay`at tarkibida kinorejissyor Vsevolod Pudovkin ham a`zo bo`lgan.

Festivalning tanlov dasturini “Lenfilm” kinostudiyasining “Chapayev” badiiy filmi ochib bergan. “Lenfilm” kinostudiyasiga “Chapayev”, “Maksimning yoshligi”, “Dehqonlar” filmlaridan iborat dastur uchun Birinchi mukofot topshirilgan. Shu jumladan, fransuz kinorejissyori Rene Klerning “Oxirgi milliarder” («Posledniy milliarder») filmi, Uolt Disneyning multfilmlar dasturi, Aleksandr Ptushkoning “Yangi Gulliver” (“Noviy Gulliver”) kinokartinasini ham mukofotlangan..

Keyingi yillarda festival o‘tkazilmagan. Faqatgina 1959 yilga kelib festival tiklangan va ikki yilda bir marta o‘tkazilib kelingan.

1950-60-yillarda rejisserlardan I.Savchenko ("Taras Shevchenko", 1951), S.Parajanov ("Unutilgan ajdodlarning soylari", 1965), V. Ivchenko ("Kora ilon", 1965), shuningdek, Y. Ilenko, L.Osika, L.Bikov, K.Muratova, R.Balayan va boshqalarlarning filmlari ekranga chiqarildi. Kino aktyorlaridan I.Mikolaychuk, B.Stupka, M.Yakovchenko, N.Ujviy, L.Chayka, A.Rogovseva, K.Stepankov, Y.Majuga, L.Gurchenko, O.Borisov, B.Benyuk, Ye.Paperniy va boshqalarlarning nomi mashhur bo‘ldi.

1980-yillar oxiridan belorus kinematografchilari tarixiy o‘tmishni va hozirgi zamonning murakkab jarayonlarini chuqurroq idrok etishga intilib, “Oq shudringlar” (rejisser I.Dobrolyubov), “Bizning bronepoyezd” va “Siyosiy byuro kooperativi” yoki “Olis vidolashuv” (rejisser M.Ptashuk), “Qilmishqidirmish” (rejisser B.Stepanov, M.Qosimova, B.Shadurskiy) filmlarini yaratishdi. “Belarusfilm”da “Telefilm”, “Yilnoma” ijodiy birlashmalari, 1972 yildan boshlab “A” toifadagi festivallar sirasiga kiritilgan. 1973-yildan multfilmlar ustaxonasi ishlaydi. Kinoaktyor teatri studiyasi mavjud.

XX asrning 1990-yillaridan Rossiyaning Ukraina kinosi yangi bosqichda rivojlana boshladi.

1997 yildan buyon har yili iyun oyining oxirida o‘tkaziladi va 10 kun davom etadi. 1998 yilda moliyaviy muammolar tufayli festival o‘tkazilmagan. Shu yiliyoq festivalning hujjatli filmlar bo‘yicha dasturi alohida ajrab chiqib, mustaqil ravishda o‘tadigan, yangi “Insonga murojaat” (“Poslaniye k cheloveku”) deb nomlangan hujjatli filmlar Leningrad xalqaro kinofestivaliga aylantirilgan. Moskva xalqaro kinofestivalining Bosh sovrini “Oltin Avliyo Georgiy” («Zolotoy Svyatoy Georgiy», 1989) hisoblanadi. Asosiy tanlovda 12tadan kam bo‘lmagan miqdorda filmlar ishtirok etadi. Filmlarni baholash uchun maxsus Hay’at (jyuri) tashkil etiladi.

“Istiqbollar” («Perspektivi») tanlovi bu tanlovda 35 yoshgacha bo‘lgan kinorejissyorlarning debyut ishlari, tajriba va izlanishlarga moyil bo‘lgan filmlari ishtirok etadi. Filmlarni baholash uchun maxsus Hay’at (jyuri) tashkil etiladi. Bu kabi festival, tanlovlar ijodkor kino xodimlari uchun imkoniyatlar belgisi hisoblanadi.

Nazorat savollar:


1. Rossiya kinolarida rejissuraning o‘rni haqida fikringiz?
2. Oxirgi yillarda suratga olingan filmlar mavzu xilma-xilligi
3. Rossiya kinolarida janr?

2.3§. KINO REJISSOR LEONID GAYDAY FILMLARI

- 1. Leonid Gayday ijodining dastlabki pog‘onasi**
- 2. Rejissorning mashhur filmlari**
- 3. Rejissorning aktor bilan ishlash xususiyatlari**

Rossiya kinorejissori aktyor, ssenarist, “SSSR xalq artisti” Leonid Gayday 1923-yil 30-yanvar kuni Amur Guberniyasining Dalniy Vostok shahrida dunyoga kelgan. U tug‘ilishidan bir necha oy

so'ng uning otasi xotini va uch bolasini olib shaharga kelishadi va bu shaharda yetti yil qolishdi. Oradan vaqt o'tgach ular Irkutsk shahriga ko'chib kelishadi. Oilaning eng kichik farzandi Leonid Gayday ilk maktabni shu yerda o'qidi. U bolaligida namunali hulq bilan tanilmadi ammo, u o'quv fanlarini a'lo darajada o'zlashtirib tanilgan. Gayday temir yo'lchilar klubiga a'zo bo'lib she'rlarni havas bilan o'qib doim e'tiborni tortgan. O'zidagi qiziqish uni, 1941-yili drama teatriga yetaklaydi. U yerda oddiy sahna ishchisi bo'lib ishga kirgan. Leonid Gayday evakuvatsiya qilingan hamma teatrlarda ishladi.



1942-yilda yosh Gaydayni Harbiy xizmatga chaqirishadi. U tankchilar bilim yurtini tamomlab, bo'linma komandiri bo'lib ham ishlaydi. Jang maydonida mina ta'sirida portlab ketadi va aynan shu sabab ikkinchi guruh nogironi ham bo'ladi.

1944-yili Irkutsk shahriga qaytib, teatrga zahira aktyori bo'lib ishga kiradi. Gayday epizodlarni qoyilmaqom oynagani uchun keyinchalik bosh rollarni ham ijro eta boshlaydi.

1949-yil VGIKni rejissorlik fakultetiga o'qishga kiradi. Nihoyat kinematografiyaga rejissor sifatida ishga taklif qilinadi va ijodiy maskanda hayoti boshlandi. 1956-yil uning birinchi filmi "Dolgiy put" Sibir hikoyalari asosida suratga olinadi. Rejissorning

keyingi filmi “Jenixstovo sveta” shu filmi, uning kinodagi faoliyatini tugatishiga bir bahya qolishiga sabab bo’ladi. “Trejdiy voskresshiy” filmi boshqalaridan ko’ra ajrab turgan.


Leonid Gayday mashhur shoir mixayel svetlov ijodining ixlosmandi edi. Qiziqarli tomoni shundaki u Mixayel Svetlov ni shunchalik sevib o’qisa ham o’z filmlarida uning she’rlaridan umuman foydalanmagan. Baribir unga bo’lgan ixlosini kino tarixiga muxrlagan. “Brilliant qo’l” filmidagi teploxod nomi Gaydayning xohishi bilan Mixayel Svetlov deb yozib qoyilgan.




“Brilliant qo’l” komediyasidagi sahnasi kinotanqidchilarga unchalik ma’qul kelmagan va bu sahnani qisqartirishni so’rashgan. Gayday esa yana bir bor o’z topag’onligini namoyish qilgan. U doimiy hamkorlik qiluvchi bastakori Zatsipinga murojaat qilib tez fursatda ohangli musiqa yozish kerakligini so’raydi. Qizig’i tezkor ohangli musiqa qo’shilgan lavhani qaytadan tomosha qilgan tanqidchilar o’z talablari b ajarilganidan boshi osmonga yetadi.

Gayday “Brilliant qo’l” filmining yakunida yadro bombasining portlashi sahnasini joylashtiradi. Tekshiruv komissiyasi bu lavhani olib tahlashni talab qiladi. Rejissor bunga rozi bo’ladi. Lekin komissiya buning evaziga Gaydayning talabini bajarishga majbur edi. Filmning boshqa hech bir lavhasiga teginilmaydi. O’z filmini shu ayyorlik ortqali tahdidlardan saqlab qoladi.

Leonid Gayday ijod namunalarining ingliz tilida nomlanishi ham qiziq “Kavkaz asirasi” filmini ular “Kidnapping Caucasian style” yani Kavkazcha usulda odam o’g’irlash deb tarjima qilishgan.



“Ivan Vasiliyevich o’z kasbini o’zgartiradi” kinokomediyasining muqobil nomi esa boshqa bir film nomi bilan hamohang “Back to future” yani kelajakka qaytib. Hozirgacha sevib kuylanuvchi ayiqlar haqidagi qo’shiq taronasi dastavval Gaydayning tanqidiga uchragan. “Voqealar yozda sodir bo’lgan bo’lsa ayozga nima bor axir. Xalq bunday qo’shiq kuylamaydi. Kuylamasligi aniq” degan ammop vaqti kelib bu fikri xato ekanini tan olgan.



Gaydayning turmush o’rtog’i Nina Pavlovna Grebeshkova 1930-yil tug’ilgan. 2001-yil aktrisa “Rossiyada xizmat ko’rsatgan artist” unvonini olgan.

GAYDAYNING ENG MASHXUR FILMLARI

1. “Brilliant qo’l”(1968)
2. “O’n ikki stul”(1971)
3. “Ivan Vasiliyevich o’z kasbini o’zgartiradi”(1973)
4. “Iy operatsiyasi”
5. “Kavkaz asirasi”
6. “Hayot uchun xavfli”
7. “Gugurtga ketib”
8. “Ishbilarmon kishilar”

GAYDAY HAQIDA VA UNING MASHHUR SO’Z VA JUMLALARI

1. Iltimos, sekinroq gapirsangiz yozib olay”
2. “Qisqaroq qiling sklifosovskiy”
3. “Ishlamagan tishlaydi o’rgan student”
4. “Imtihon men uchun hamisha bayram”
5. Leonid Gayday filmlari ijodiy topilmalarga shu qadar boyki, qancha tomosha qilsak, yangilik topaveramiz. Gayday yoshlik vaqtida uy qurilishida qatnashgan, vaqti kelib talaba bo’lgan.
6. “ Iy operatsiyasi” filmining uchchala qismi ham Gayday hayotiga juda yaqin. Chunki u o’z hayotiy lavhalarining ba’zilarini kinolarida aks ettirgan. Masalan, “Sheriklar” novellasi tazirini yegan Fedya hamma ishga “men” deb javob qaytargan sahnasi. Urush vaqtida Gayday frontga rosa oshiqqan. Harbiy komissar qismga kelib askarlarni urushga olib ketish uchun suhbat uyushtiradi.
“kavalertiyaga
-men
-artilleriyaga
-men

-piyoda qo'shinlariga

-men

komissar gaydayga yuzlanadi

-sabr qilsangizchi royxatni oxirigacha o'qib olay,

Gayday hayotidagi bu hodisa keyinchalik filmga aks etadi.

Nazorat savollar:

1. Gayday rejissurasi haqida fikringiz?
2. Rejissorning eng mashhur filmlarini ayting?
3. Sizga Gaydayning qaysi filmi maqul?

III BOB. ЎЗБЕК КИНОСИ

3.1§. Ўзбек киносининг вужудга келиши

1. Birinchi kino namoyishlari
2. Birinchi o'zbek fotografi va operator Xudoybergan Devonov ijodi
3. O'zbek ovozsiz kinosining rivojlanishi

O'zbekistonda birinchi film 1897-yil "Eski jo'va" maydonida ko'rsatilgan. 1908-yildan Toshkent, Samarqand, Qo'qon va boshqa shaharlarda chet el filmlari namoyish etilgan. 1917-yilga qadar O'rta Osiyoda namoish qilingan lentalar, asosan, Amerika, Fransiyaning Sharq ekzotikasiga moil filmlaridan iborat bo'lgan.

O'zbek milliy kino san'ati XX asrning 20-yillarida vujudga keldi. Birinchi o'zbek kinooperatori Xudoybergan Devonov (1878, Xiva - 1940, Toshkent) o'zining ilk hujjatli-xronikal filmlarida o'zbek xalqining hayotini, urf-odatlarini, Xorazm manzaralarini aks ettirishga intilgan. Xudoybergan Devonov 1907-08-yillar Moskva, Peterburgdan teleskop, grammofon, foto va kino asboblari olib kelib fotolaboratoriya tashkil etgan. Bu laboratoriya Xorazmda fotokinostudiya vazifasini o'tagan. X.Devonov ijodi rus kinosan'atkorlari faoliyati bilan deyarli bir vaqtda boshlangan. U "O'rta Osiyo me'moriy yodgorliklari", "Turkiston ko'rinishlari", "Xiva va xivaliklar" kabi qisqa filmlarni ishlagan. O'z filmlarida vatanparvarlik, ma'rifatparvarlik g'oyalarini ilgari surgan. Xorazm xalqi urf-odatlari ifodalangan mingga yaqin fotosurat yaratdi. Xorazm xalq sovet respublikasi davrida maktab, internatlar ochib, unda foto-kino ishlarini olib bordi. "Uzbekistanskaya pravda" (O'zbekiston haqiqati)

gazetasida fotomuxbirlik qilib, Xorazm dalalarida birinchi traktorning paydo bo`lishi, dehqonlarga yer taqsimlanishi va ommaviy yig`ilishlarga oid ko`p fotosurat va kinolavhalar yaratdi. 1925-yilda O`zbekistonda kinostudiyasi tashkil etilgach X.Devonovga Xorazmda kino ishlarini olib borish topshirildi. Keyinroq "Sovkino"ning muxbiri etib tayinlandi va Moskvaga "Sho`r ko`l", "Ishchi ayollar" singari syujet va lavhalarini yuborib turdi. X.Devonov suratga olgan kinolentalarning ko`pi haligacha topilgani yo`q. Urganch shahridagi kinoteatr, Xiva shahridagi X.Devonov yashagan ko`cha uning nomi bilan yuritiladi.

1924-yil Rus-Buxoro shirkati "Buxkino", 1925-yil Toshkentda "Sharq yulduzi" (1932-yildan "O`zbekfilm") kinofabrikasining tashkil bo`lishi o`zbek Kino san`ati rivojini boshlab berdi. Lekin milliy kadrlarning yetishmasligi natijasida studiyani tashkil etishga urinish va "Buxkino" shirkati qoshida muntazam suratga olishni tashkillashtirish muvaffaqiyatsiz bo`ldi. Toshkent studiyasiga hali kino sohasida yaxshi tanilmagan rus kino arboblarning kelishi, ularning kasbiy saviyasining pastligi haqiqiy milliy mazmundagi kinolar yaratishga yo`l qo`ymasdi. Ular yaratgan filmlar faqat ekzotik va tashviqiy harakterda bo`lib, o`zbeklar hayoti buzib ko`rsatilardi, o`zbek ayollari rolini rus aktrisalari o`ynashi natijasida qahramonning ichki dunyosi, uning psixologik kechinmalari ochib berilmasdi. Masalan, "O`lim minorasi" (rejisser V.Viskovskiy), "Musulmon qiz" (D.Bassaligo), "Ikkinchi xotin" (M.Doronin) va boshqalar. Kino ishlashda milliy proza va dramaturgiyadan foydalanishdan bosh tortish, o`zbek hayotini bilmaydigan rus mutaxassislarining o`zlari yozgan ssenariylari asosida film yaratishi milliy kino uchun juda katta yo`qotish bo`ldi, uzoq yillargacha o`z shakl-shamoyiliga ega

bo`lolmadi, uning "o`zbek milliy kinosi" sifatida shakllanishiga o`tib bo`lmas to`siq bo`ldi.

Asosiy ifoda vositalari XX asrning 1920-yillarida kino san`ati asoslari (kinematografik rejalar, suratga olish rakurslari, montajning almashinib turishi, yaxlit asar yaratish, unga loyiq talqin topish va boshqalar)ga suyangan holda ishlab chiqildi. Birinchi ovozsiz filmlar rejisseorlari fransuz aka-uka Lyumerlar (hujjatli) va J.Mele (fantastik ertak) jahon kinosining bosh yo`nalishini belgilab berdi. Ovozsiz kinoni fransuz «avangard»lari, nemis ekspressionizm vakillari, shuningdek, D.Griffit, Ch.Chaplin, R.Flaerti kabi amerika kinorejessyorlari olib bordilar. A.Nilsen, B.Kiton, M.Linder, Ch.Chaplin, M.Pikford va boshqalar ovozsiz kinoning yetakchi aktyorlari bo`ldilar.

O`zbekistonda ovozsiz kino davri 1920-1930-yillarni o`z ichiga oladi. «Soyabon arava», «Ravot qashqirlari», «Ikkinchi xotin», «Yuksalish» va boshqalar dastlabki ovozsiz filmlardir. S.Xo`jaev, E.Hamroev, N.G`aniev, K.Yormatov, R. Pirmuhamedov, Y.A`zamov, Z.Shokirova, M.Ja`farova kabi san`atkorlar ovozsiz kino davrida milliy kinoning shakllanishida muhim rol o`ynaganlar. Ovozsiz fil`mlarda berilgan mazmun tomoshabinga ko`proq Yevropa mutaxassislari nuqtai nazarini ifodaladi, chunki milliy an`analarni bilishdan yiroq mualliflarning asarlari shu ruxda yaratilgan edi. 1920-yillarda yaratilgan "Soyabon arava" (O.Frelix), "Ravot qashqirlari" (K.Gertel), "Makrli changal" (V.Kozlov), "Chodira" (M.Averbax) kabi filmlar shular jumlasidan.Ovozsiz kino davrida filmning tuzilish xususiyatlari, o`ziga xos estetik jihatlari belgilandi. Badiiy filmlar mazmuni va voqealarning rivojlanib borish holati so`zsiz - faqat tasvir yordamida ochib berilardi. Dastlabki rivojlanish davridagi

o`ziga xosligi uning aktyor ijrosi bilan bog`lik, ifoda vositalari bo`lib, kadr tagiga voqeani tushuntirib beruvchi yozuvlar yozib borilgan.

XX asrning 1930-yillarida ovozli kinoning vujudga kelishi kino san`atining badiiy qiymatini oshirdi. Ovozli kino o`zbek kino san`atining ham badiiy qiymatini oshirdi. Birinchi o`zbek ovozli filmi "Qasam" 1937-yilda rejisser A.Usolsev tomonidan olindi. Unda milliy aktyorlik madaniyati, o`zbek hayoti va psixologiyasi mufassal aks etdi, ijtimoiy qarama-qarshiliklar asosiga qurilgan dramaturgiya namoyon bo`ldi. Chunki barcha bosh rollarni o`zbek aktyorlari o`ynagan edi. Lekin baribir asar ovozsiz kino davridagi eski kino madaniyati qoldig`utridan xoli bo`lolmagani sababli o`tmish va bugungi kun o`rtasida arosatda bo`lib qoldi. Shu sababli, o`sha davrda yaratilgan Gruziya, Ozarbayjon filmlari kabi eng yaxshi filmlar darajasiga ko`tarila olmadi. Ovozli kinoning o`zlashtirilishi o`zbek kino san`atining adabiyot va teatr bilan aloqasini yanada mustaxkamladi. Buning natijasida kino musiqasi rivojlandi. Kino musiqasi – kinematografiyaning shakllanishi va rivoji bilan bog`langan musiqa janri bo`lib, dastlab kino apparati shovqinini bosish uchun mo`ljallangan. Bora–bora kinodrammaturgiyaning muhim vositalaridan biriga aylandi. Odatda har bir film uchun maxsus musiqa yoziladi, ba`zan mavjud musiqadan ham foydalaniladi. Kino musiqasi syujet bilan uzviy bog`lanib, obrazlarning ruxiy kechinmalari dramatik holatlar, ziddiyatlar va boshqalarni hayajonli qilib ifodalashga yordam beradi. Kompozitorlardan S.Prokofev, D.Shostakovich, I.Dunaevskiy, T.Xrennikov, A.Xachaturyan, N.Kryukovlar ijodida kino musiqasining namunalari vujudga keldi.

O`zbekistonda 1920-yillardan, kino va musiqa hamkorligi boshlangan. Janr sifatida esa kino musiqasi 1940-yilning 2-

yarmidan shakllana boshladi. Dastlabki o`zbek filmlariga musiqa yozishda V.A.Uspenskiy, A.Kazlovskiy, o`zbek xalq kuy va qo`shiqalaridan hamda o`zbek bastakorlari ijodidan foydalanishgan. Masalan; “Ravot qashqirlari” 1927-yil, “Tohir va Zuhra” 1945-yil va boshqalar. Keyingi yillarda yaratilgan ko`p o`zbek filmlarida musiqadan dramatik rivojni ochish vositasi sifatida foydalanildi. Masalan; “Abu Ali ibn Sino” (kompozitor M.Burxonov, 1957-yil), “Furqat” (kompozitor S.Yudakov,

1959-yil), “Hamza” (kompozitor I.K.Akbarov, 1961-yil) va boshqa filmlar. Kino musiqasida qo`shiq muhim ro`l o`ynaydi. Masalan; 1959-yilda kompozitorlar I.K.Akbarov, M.Burxonov, M.Levnevlar yaratgan “Maftun bo`ldim”, 1960-yilda kompozitor M.Levnev yaratgan “Mahallada duv-duv gap” va boshqalar. Musiqali kino komediya, kompozitor, derijyor, xonandalar haqidagi tarixiy biografik, shuningdek kino konsert, kino opera, xoreografik kinofilmlarda musiqa asosiy o`rin egallaydi.

Rus kino ustalari Gertel, M.Doronin, Ch.Sabinskiy, O.Ferelix, A.Dorn va boshqalar o`zbek badiiy kinematografiyasini rivojida katta yordam ko`rsatdilar. “Sharq yulduzi” kinofabrikasining dastlabki lentalarini yaratgan rus kino ustalariga yordamchi bo`lib ishlagan N.G`aniev O`zbek milliy kino san`atiga asos soldi. O`zbek kino san`atining ilk namoyondalari N.G`aniev, Y.Sulaymonxo`jaev, R.Pirmuhamedov, K.Yormatov, A.Hamroev va boshqalar rus kino ustalari yordamida o`zbek kino san`atini ittifoq miqyosiga ko`tarishda faol ishtirok etishdi.

II jahon urushidagi g`alabaga o`zbek kino san`ati ijodkorlari ham o`z hissalarini qo`shdilar. Bu sohada K.Yormatov, N.G`aniev, Y.A`zamov hamda markaziy shaharlar Moskva, Leningrad, Kiev, Oddessadan Toshkentga evakuatsiya qilingan 200 ga yaqin kino ustalarining o`zaro hamkorligi katta rol o`ynadi.

Bu davrda yaratilgan “Nasriddin Buxoroda”, “Tohir va Zuhra” “Ikki jangchi” va boshqa badiiy filmlar haqli ravishda mashhur bo`ldi va “O`zbekfilm” oltin fondidan joy oldi.

3.2§. ЎЗБЕК КИНОСИДА ТАРИХИЙ VA ZAMONAVIY FILMLAR

1. 1943-1968-yillarda suratga olingan filmlar
2. Komil Yormatov, Malik Qayumov, Latif Fayziyev rejissorlik faoliyati

O`zbek kinosining комедия жанридаги "Nasriddin Buxoroda" (1943, rejisser Y.Protazanov) filmi xalq mavzusining haqiqiy imkoniyatlarini ochib berdi, tasviriy vositalar qatorini qanday chiroyli va ifodali qurish mumkinligini ko`rsatdi, yuqori darajadagi ijro uslubini o`rgatdi. Ushbu film haqiqiy o`zbek xalqining mehnatsevar xalq ekani, insonlari sodda va ishonuvchanligini kulgili sahnalar orqali aks ettiradi. Ayniqsa, liboslaridagi o`sha davrni aks ettiradigan jihatlar tarix bilan bog`liq jihatlarni tasvirlaydi. Nasriddinning o`ziga xos uddaburon, gapga ustaligi har xil holatda o`zini-o`zi himoya qila olishini kulgili namoyon etadi. Uning hazilkash va sodda insonlarni himoya qilishi esa davrga xos va mos tarzda tasvirlangan. Film voqealari o`zbekning tarixiy filmi bo`lib tarix sahifalariga muhrlangan.

"Tohir va Zuhra" (1945, rejisser N.G`aniyev) kartinasi tarixiy filmlar yaratishga asos bo`ldi, milliy ruhdagi, har ikki “yaxshi va yomon” so`zlarining kuchi va uning insonlar taqdiriga ta`sirini ifodalab, film kadrlari orqali his etishga imkon beradi. Tohir va Zuhraning sof muhabbati, toju-taxt atrofidagi to`qnashuvlar

tomoshabinni davr shiddatli voqealaridan xabardor etsa, Qorabotir roli orqali (Shukur Burhonov)insonning jirkanch ishlarga qodirligini tasvirlab beradi. Film orqali tomoshabin tarixiy obidalar, saroy ichida bo'layotgan voqealarni chalg'imasdan tomosha qiladi. Tohir va Zuhraning insoniy fazilatlarini ko'rib esa xaqiqiy o'zbek yigiti va qizining or-nomusi yo'lidagi jasorati orqali aktyorlarni qalban yaxshi ko'ramiz. Ular orasidagi Qorabotir obraziga bo'lgan nafrat film voqealari bilan kuchayib boradi. Rejissyor Nabi G'aniyev aktyorlar tanlovini muvaffaqiyatli amalga oshirgan. Ayniqsa, filmdagi g'oya va voqealar davrlar o'tsada, o'z ahamiyatini yo'qotmasligi albatta N.G'aniyev rejissurasining ustunligidan dalolat beradi.

Keyinroq suratga olingan "Alisher Navoiy" (1947, rejisser K.Yormatov) filmining yaratilishiga "Tohir va Zuhra" filmi muhim poydevor bo'lib xizmat qildi. Shuningdek, "Boy ila xizmatchi" (1953, rejisser L.Fayziyev), "Qutlug` qon" (1957, rejisser L.Fayziyev), "Shohi so`zana" (1954,A.Beknazarov) kabi badiiy asarlar ekranlashtirildi.

O'zbek kinosida yoshlarda zamon talablariga yangicha qarash shakllandi, eski qolip va taxminlardan o'zoqlashdilar, dunyoga shoirona nazar tashlash imkoniyatlari namoyon bo'ldi. Shu bilan birga hayot faqat sevish, xursandchilik qilish, qahvaxonalarda raqsga tushish, chiroyli kiyinishdan iborat deb bilgan shaharlik yigit va qizlar uchun tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan filmlar ham o'zbek ekran san`atiga yangi bir sahifa bo'lib kirib keldi. Bu, ayniqsa, rejisser E.Eshmuhamedov ijodida "Nafosat" (1966), "Sevishganlar" (1969) va boshqalarda yaqqol ko'zga tashlandi. "Maftuningman" (1958, Y.A`zamov), "Mahallada duv-duv ran", "Sen yetim emassan", "Qalbingda quyosh", "Toshkent - non shahri" (1960, 1962, 1966, 1967,

rejisser Sh.Abbosov), "Sinchalak", "Ulug`bek yuldo`zi", "Natashaxonim" (1961, 1965, 1966, rejisser L.Fayziyev), "O`rgan kunlar" (1969, rejisser Y.A`zamov) va boshqa filmlar shular jumlasidan.

Milliy kino ijodkorlarining tashkiliy va ijodiy ishlar, to`plangan tajribalarni yangicha ko`z bilan ko`rib chiqishi, ekran san`atiga talabchanlikni oshirishi natijasi o`laroq tarixiy-inqilobiy filmlar ("Qora konsulning halokati", rejisser K.Yormatov; "Yettinchi o`q", A.Hamroyev) bilan bir qatorda zamonaviy mavzuda ham bir qancha filmlar ishlandi: "Shiddat" (rejisser U.Nazarov), "Yoz yomg`iri" (A.Qobulov), "Falokat oyoq ostida" (Z.Sobitov), "Sevgi fojiasi" (Sh.Abbosov), "Alangali so`qmoqlar" (Y.A`zamov), "Seni kutamiz, yigit" (R.Botirov), "Achchiq danak", "O`zganing baxti" (Q.Kamolova), "Inson qushlar ortidan boradi" (A.Hamroyev, Dehli xalqaro kinofestivalida "Kumush tovus" mukofotini olgan, 1976), "Chinor ostidagi duel" (M.Abzalov). Shuningdek, buyuk allomalar hayoti haqida so`zlovchi "Nodirabegim" (rejisser K.Yormatov), "Abu Rayhon Beruniy", "Olovli yo`llar" (Sh.Abbosov) hamda "Zulmatni tark etib" (Y.A`zamov), "Shum bola" (D.Salimov) va boshqa filmlar tasvirga olindi.

O`zbek kinosi izlanishlarni kengaytirishga, jamiyatda sodir bo`layotgan ijtimoiy jarayonlarni yanada chuqur va yorqin ifodalovchi kinolentalar yaratishga intildi. Ekran son va sifat jihatdan yana bir pog`ona ko`tarildi, janrlar esa shakl va mazmun har taraflama kuchaydi, ularning xilma-xilligi oshdi, qolipga tushib qolgan odatiy mazmunlardan qochish sezildi.

"Alibobo va qirq qaroqchi" (rejisser L.Fayziyev, U.Mehra), "Mana o`sha yigit qaytib keldi" (R.Botirov), "Oltin junli qo`y terisi", "Uygonish" (L.Fayziyev), "Bo`ysunmas" (A.Qobulov),

"Qiyomat qarz" (U.Nazarov), "Dahoning yoshligi", "Karaxtlik" (E.Eshmuhamedov), "Parol-Regina" mehmonxonasi" (Y.A`zamov), "Armon", "Suyunchi", "Kelinlar qo`zg`oloni", "Maysaraning ishi" (M.Abzalov), "Orzular og`ushida" (F.Zaynutdinov) va boshqa filmlar estetik sifatini ustunligi va yangi-yangi shakllari bilan ajralib turadi.

O`zbek hujjatli kinosi, asosan, 1930-yillardan boshlangan. F.Nazarov, N.Gasilov, V.Timkovskiy, K.Alikayev, M.Kovnat, N.G`aniyev, Y.A`zamov kabilar hujjatli kinoning dastlabki yillarida ko`tarinki ruh bilan ishladilar va ma`lum muvaffaqiyatlarga erishdilar. "Ishlab chiqarishda jismoniy tarbiya" rejisser Y.A`zamov, "Ajoyib ish" N.G`aniyev, M.Qayumov suratga olgan "O`zbek paxtakorlarining g`alabasi", "O`zbek xalqining bayrami" Sh.Zohidov, O.Tursunov bilan hamkorlikda, "Katta Farg`ona kanali", "Kuchli oqim" filmlari yuqori baholandi. Ayniqsa, "Toshkent to`qimachilar kombinata" (1938) filmi Nyu-Yorkda o`tkazilgan jahon ko`rgazmasida Oltin medalga sazovor bo`ldi.

Shu o`rinda taniqli o`zbek kino ijodkorlari haqida quyidagi ma`lumotlarni berish maqsadga muvofiq keladi.

Qayumov Malik Qayumovich 1912-yilda Toshkentda tug`ilgan. Iste`dodli kinorejisser, kinooperator, 1932-yilda Butunittifoq kinematografiya instituti (VGIK)ni tugatgan. 1946-yilda O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan san`at arbobi, 1948 yilda O`zbekiston xalq artisti, 1981-yilda Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo`lgan. U o`z faoliyatini 1929-1931-yillarda Toshkent «Sharq yulduzi» kinofabrikasida kino artisti hamda kinooperator yordamchisi sifatida boshlagan. Dastlab «Bag`dodda «Amerika paxtasi»» (1931), «Qumlikdagi voha» (1932), «O`lim qudug`i» (1939) kabi filmlarda rollar o`ynagan. Toshkent

kinoxronika studiyasida operator, 1932-1940-yillarda «Soyuz kinoxronika»ning O`rta Osiyodagi muxbiri lavozimlarida faoliyat yuritgan. Hujjatli filmlar markaziy studiyasining II jahon urushi frontlaridagi harbiy kinooperatori. Toshkent badiiy va hujjatli xronikal filmlar studiyasida kinooperator, rejisser, xronika direktori, 1946-1960-yillarda badiiy rahbari bo`lgan. 1961-1975-yillarda O`zbekiston ilmiy ommabop va hujjatli filmlar studiyasining direktori, badiiy rahbari, 1976-1993-yillar O`zbekiston kinematografiya xodimlari soyuzi pravleniesining birinchi kotibi bo`lgan. Malik Qayumov ijodiy faoliyati davomida 200 dan ortiq hujjatli va ilmiy ommabop filmlar yaratdi. U o`z filmlarida O`rta Osiyo hayotiga oid voqealar, uning tabiati, fani va xo`jalik hayotini aks ettirgan. Toshkent Farg`ona kanali qurilishiga bag`ishlangan «Qudratli oqim» (hamkorlikda yaratilgan), «Toshkent to`qimachilik kombinati», «O`zbekiston geografiyasi», «Ona diyor», «To`rt darvozali shahar», «Farhod chiroqlari», «Hindiston tongi», «O`zbekistonimizga keling», «Insoniyatning besh qo`li», «Vetnam - mening mamlakatim», «Bahordan bahorgacha», «13 qaldirg`och», «Toshkent, Zilzila», «Go`zallikning uch siri», «Samarqand hamisha men bilan», «San`atga baxshida umr», «Oltin Bengaliya», «O`zbek atlasini», «Paranji», «Sharqda shunday shahar bor» yoki «Toshkent bilan uchrashuv», «Bryussel» va boshqa qisqa, to`la metrajli filmlari o`zbek hujjatli kinosi rivojida muhim ahamiyat kasb etdi.

Malik Qayumov nafaqat O`zbekiston, balki jahon hujjatli kinosi rivojiga o`zining munosib hissasini qo`shdi va bu o`z vaqtida Nyu-York, Venetsiya va Leypsig xalqaro kinofestivallarining katta oltin medallari, «Oltin Kabutar» mukofoti bilan, jahon hujjatli kinosi rivojiga qo`shgan hissasi uchun maxsus diplom bilan taqdirlangan. 1964-yilda Hamza

nomidagi O`zbekiston Davlat mukofoti laureati, 1995-yilda «Jasorat» medali va 1999-yilda «El-yurt hurmati» ordeni bilan mukofotlangan.

Komil Yormatov 1904-yilda Konibodomda tug`ilgan va 1978-yilda Toshkentda vafot etgan. U o`zbek kinorejisseri va tojik kinosining asoschisi hisoblanadi. 1939-yilda Tojikistonda xizmat ko`rsatgan san`at arbobi, 1943-yilda O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan san`at arbobi, 1955-yilda O`zbekiston xalq artisti kabi unvonlar olgan. Uning birinchi filmi «Muhojir» 1934-yilda Tojikiston kinostudiyasida suratga olingan (o`zi ssenariy muallifi, rejisser va bosh rol ijrochisi bo`lgan). «Faxriy huquq», «Uzoq chegarada», «Do`stlar qayta uchrashganda» filmlari ham «Tojikfilm»da ishlangan. Bu filmlarda uning o`ziga xos uslubi, keskin dramaturgiyaga intilishi, murakkab dekoratsiyalardan foydalanishi ko`zga tashlanadi. 1941-yildan «O`zbekfilm»ning badiiy rahbari. Urush yillari «Vatan sovg`asi», «Front uchun konsert» singari konsertfilmlar, «Uyqusiz yillar» badiiy filmi yaratdi. Uning 1947-yilda tasvirga olingan «Alisher Navoiy» filmi katta shuhrat keltirdi. Bir qancha o`zbek filmlarida aktyor sifatida qatnashgan. Komil Yormatovning har bir ijodiy bosqichi yangi-yangi bo`yoqlar bilan sayqallasha borib, yaratgan filmlari milliy kino oldida turgan aniq va muhim vazifalarni hal eta bordi. Zamonaviy mavzuda «Opa-singil Rahmonovalar», «Gullar ochilganda», tarixiy mavzuda «Abu Ali ibn Sino» kabi filmlari, «Paxtaoy» ertakfilmii kinofestivallarda I-darajali diplomlar bilan taqdirlangan. 1960-yillarda Komil Yormatov kinotrilogiya yaratib, o`zbek kino san`atini yangi bosqichga ko`tardi. Afsona xarakteridagi 1966-yilda ishlangan «Ikki dil dostoni» (1968-yil xalqaro kinofestivalning «Oltin Absora» mukofotiga sazovor bo`ldi), o`zbek shoirasi hayotiga bag`ishlangan «Nodirabegim»,

«Uzoq-yaqin yillar» (1978-yil Riga kinofestivalining maxsus sovriniga sazovor bo`ldi) kabi filmlari ham shuhrat qozondi. «Kinossenariylar» (M.Melkumov bilan hamkorlikda) to`plami, «Esdaliklar»i nashr etilgan. 1958-1978-yillarda O`zbekiston Kinematografchilar uyushmasining kotibi, 1967-yilda Hamza nomidagi O`zbekiston Davlat mukofoti laureati bo`lgan, «O`zbekfilm»ga Komil Yormatov nomli berilgan.



kinorejissyor Latif Fayziyev

Fayziyev Latif Obidovich 1929-yilda Toshkent tug`ilgan (1994. 21. 10 vafot etgan). Latif Fayziyev iste`dodli kinorejissor bo`lib, 1941-1945-yillarda Yosh tomoshabinlar teatrida aktyor.

1948-yilda L.Fayziyev mashhur rejissyor Igor Savchenkoning “Uchinchi zarba” filmida jangchi roliga chiqadi.



Ustozi rejissyor Igor Savchenko



1951-yilda shu rejissyorning “Taras Shevchenko” filmida rejissyor assistenti vazifasida ishlaydi va qirg‘iz rovida o‘ynaydi.



Moskvadagi kinematografiya institutini tugatgan, 1950-yildan «O`zbekfilm»da rejisser.

Moskva kinematografiya institutini 1950-yili 21 yoshida bitirgan zukko bo‘lishiga qaramay, taajjubki “O‘zbekfilm”da unga joy topilmagan va bir necha oy operatorlarning asbob-anjomlarini ko‘tarib yurishdan boshqa yumushni unga ravo ko‘rishmagan. Keyin Ukrainaning “Dovjenko” kinostudiyasidan kelgan kursdoshlari uni Kiyevga olib ketishdi va dastlabki ijod namunalarini o‘sha yerda yaratishigaimkon berishdi. Latif Fayziyev ustozlari Igor Savchenko vafotidan keyin ham Ukrainada ishini davom ettirdi.



T.Levchuk



V.Kulchitskiy



I.Shmur

U T.Levchuk, V.Kulchitskiy, G.Estrin, I.Shmurk singari ijodkorlar bilan birgalikda ishlab, yigirmaga yaqin filmni rus tilidan ukrain tiliga tarjima qildi. Keyinchalik Latif Fayziyevning ishlaridan xabardor bo‘lib qolganidan so‘nggina “O‘zbekfilm”ga 1950 yili uni ishga taklif qilishadi.

Toshkentga kelgan Latif Fayziyev o‘zbek kino san’atining asoschisi, Oliy kategoriyali kinorejissyor Nabi G‘aniyev rahbarligida ishlay boshlaydi. “Farg‘ona vodiysi”, “Akademik Kanash” nomli hujjatli filmlarni suratga olishda assistentlik qildi. Shundan so‘ng operator Aleksandr Pann bilan hamkorlikda mustaqil ravishda hujjatli filmlarni suratga oldi. “Amu bo‘ylab” nomli kinocherk yaratadi. Yigirmadan ortiq kino-jurnal suratga oldi.



Nabi G‘aniyev




Aleksandr Pann

1964-yilda O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi, 1979-yilda O‘zbekiston xalq artisti, 1986-1989-yillar Hamza teatrida bosh rejisser, 20 ga yaqin hujjatli xronikal filmlar («Amudaryo», 3 qismli, «Toshkent fontanlari», «Dekameron 76», «Chinor haqida afsona», «Derazalar uchun yasalgan kiprik») yaratgan.

1953-yili Latif Fayziyev “O‘zbekfilm”da H.H.Niyoziy asari asosida A.Ginzburg bilan hamkorlikda o‘zining birinchi “Boy ila

xizmatchi” badiiy filmini suratga oldi. U o‘zining yaratgan filmlari bilan o‘zbek kinosining rivojiga munosib hissa qo‘shdi, kino san’atida o‘ziga xos yo‘nalish, o‘ziga xos bir maktab yaratishga muvaffaq bo‘ladi.




H.H.Niyoziy



Filmni suratga olish maydonidan.

1955-yilda Vladimir Basov bilan hamkorlikda olingan birinchi o‘zbek rangli filmi “Amirlikning yemirilishi”ni suratga oladi. (birinchi o‘zbek rangli filmi)



Vladimir Basov




Rejissyorning keyingi ishi 1956-yil “Qutlug‘ qon” filmini suratga olish bilan davom etadi. Filmning olinish jarayonlarida yozuvchi Oybek hamda uning umr yo‘ldoshi Zarifa Saidnosirova ham ishtirok etadilar. Shunday katta asarni yozuvchi Oybek film qilib yaratishni Latif Fayziyevga ishonganligi, uni naqadar iste’dodli rejissyor ekanini bildirib turardi.



Film jarayonidan lavha.





“Qutlug‘ qon” filmida “Qo‘zg‘olon” sahnasini suratga olish jaryonida. Professor Zarifa Saidnosirova (chapdan o‘ngga), ippodrom boshlig‘i Soldatov, film rejissyori Latif Fayziyev, yozuvchi Oybek, aktyor Razzoq Xamrayev Shokir ota rovida, Oybekning o‘g‘li Bekjon Toshmuhamedov, aktyor San‘at Devonov sobiq “Pionerlar saroyi” binosi oldida.

Rejissyorning yana «Natashaxonim» (birinchi o‘zbek keng ekranli rangli filmi), «Ikkinchi bor gullash», «Sinchalak», «Ulug‘bek yulduzi», «Vatan o‘g‘lonlari», «Alibobo va qirq qaroqchi», «Sevgi afsonasi», «Ovchi» (uchchalasi hindlar bilan hamkorlikda), «Oltin junli qo‘y terisi» (sarguzasht film), «Uyg‘onish», «Taqdir eshigi» kabi filmlari o‘zbek kinosi rivojiga munosib hissa bo‘lib qo‘shildi. Latif Fayziev o‘zbek kinosida filmbaletga asos solganlardan bir bo‘lib, u «Temur Malik», «Moviy saroy oshiklari», «Jonlangan miniatyuralar», «Eski qal‘a afsonasi» va boshqa filmbaletlarni yaratdi. «Tojikfilm»da «Uch

palma daraxti», «Gang uzra tong» (hindlar bilan hamkorlikda) filmlarini yaratgan.

1959-yil V.Kreps ssenariysi asosida “Ikkinchi bahor”, 1960-yilda Abdulla Qahhor ssenariysi asosida “Sinchalak” filmlari suratga olingan.



“Ikkinchi bahor”




“Sinchalak”



1964-yilda atoqli shoir, dramaturg Maqsud Shayhzodaning ssenariysi asosida yaratilgan “Ulug‘bek yulduzi” filmi Latif Fayziyev ijodida katta burilish yasadi. Bu



film uning yetuk san’atkorligidan darak berib turardi. Shuning uchun ham bu filmi uchun Latif Fayziyevga “Oliy kategoriyali kinorejissor” degan ijodiy unvon berilgan.





“ ”


Latif Fayziyev o‘zi rejissyorlik qilgan *Ulug‘bek yulduzi* filmida o‘ynagan kichik roli.



“Akam *“Ulug‘bek yulduzi”* filmini olganlarida *Ulug‘bek*ning xotini *Feruz*a roliga hind aktrisasi *Vayjantemal*ani taklif qilishni juda orzu qilgan edilar. Ammo orzulari moliyaviy masalalar bilan bog‘liqbo‘lgani uchun amalga oshmagan.”

Ra‘no Ibrohimova
(L.Fayziyevning singlisi)

1965-yil Latif Fayziyev o‘zbek sahnasida birinchi bo‘lib o‘ynagan ayol – rus qizi haqida “Natashaxonim” nomli film yaratdi. 1968-yil “Albomning jonli sahifalari” filmini suratga oladi.



«Нагаша-ханум» («Узбекфильм»).
Нагаша (О. Амалина),
Музаффар (У. Алиходжаев)




1981-yilda Hamza nomidagi O`zbekiston Davlat mukofoti laureati bo`ldi, 1994-yilda «Shuhrat» medali bilan mukofotlangan.

Fayziev Hotam Xolmatovich 1937-yilda Toshkentda tug`ilgan kinooperator, rejisser, 1969-yilda O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan san`at arbobi, 1983-yilda Toshkent teatr va rassomlik san`ati institutini tugatgan. «Besh og`aynilar» filmi uning birinchi mustaqil ishidir. Keyinchalik «Sen yetim emassan», «Surayyo», «Vijdon amri bilan», «Toshkent non shahri», «Sevgi fojiasi», «Abu Rayhon Beruniy», «Yilning to`rt fasli», «Sel», «Ehtiyot bo`l! Ilon!», «Buvimni qaytaring», «Hayot mazmuni», «Alif Laylo», «Yulduzimni qaytib ber», «Katta janjal», «Utgan kunlar», «Ayollar saltanati», «Chimildiq», «Sardor», «Dilxiroj», «Yodgor», «Dard» kabi badiiy va ko`p qisimli televizion filmlarga operatorlik qildi. Shuningdek, «Serquyosh joy», «O`zbek san`ati dekadasi», «Qirq yil va bir kun», «Toshkent - zilzila!», «Samarkand, hamisha men bilan», «Navoiy shahri», «Mening minglab o`g`ilqizlarim», «Avlodnoma», «Murodning orzuomidlari», «Ayol madhiyasi», «Bobur», «Tushlar» kabi hujjatli filmlarni ham suratga olgan. «Nashtar», «Zumrasha» satirik kinojurnalining ko`p sonlariga rejisserlik, operatorlik qilgan. 1971-yilda Hamza nomidagi O`zbekiston Davlat mukofoti laureati bo`lgan, 1999-yilda «El-yurt hurmati» ordeni bilan mukofotlangan.

Latif Fayziyev kitob mutolaasiga juda o`ch edi. Faqat badiiy adabiyot bilan emas, balki turli ilmiy soha asarlariga ham qiziqardi. Shuni ham ta`kidlash joizki, u ko`hna Sharq madaniyatidan xabardor bo`lishi bilan birga, G`arbda chop etilgan badiiy asarlarni ham nazaridan chetda qoldirmagan. Latif Fayziyev bir qancha filmlarini hindlar bilan hamkorlikda

yaratdi. “Gang uzra tong”, “Sevgi afsonasi”, “Ali bobo va qirq qaroqchi” va boshqa hind-o‘zbek aktyorlari



hamkorligidagi filmlari bunga yorqin misoldir. “Ali bobo va qirqqaroqchi” filmini tasvirga olish haqidagi loyihasini juda qiyinchilik bilan o‘tkazishgan. Nihoyat, Hindistondan ssenariy muallifligiga bir kishini qo‘shish sharti bilan kinoni tasirga tushirishga rozilik olib, 1979-yilda filmni suratga oladi. Filmni suratga olish ishlarida aktyorlar to‘rtta tilda – hind, ingliz, rus va o‘zbek tillarida matn yodlashiga to‘g‘ri kelgan. Bitta sahnada to‘rtta tilda so‘zlashilgan. Bu esa aktyorlardan katta mehnat va rolining muvaffaqiyatli chiqishi talab etilgan.

1981-yil navbatdagi o‘zbek-hind ijodkorlari bilan “Sevgi afsonasi” filmini suratga oladi. Filmda bosh rollarni Sanni Deol, Punam Dhillon ijro etishgan. Undan tashqari Zinat Omon, Pran, Shammi Kapur, Zikr Muhammadjonov, Nabi Rahimov, San’at Devonov, Zulxumor Mo‘minova, Gulchehra Jamilova, Isamat Ergashev va boshqa aktyorlar rol ijro etganlar.



Latif Fayziyev va hind rejissyori, mashhur aktyor Raj Kapur foto lavhalari

Latif Fayziyevning hayoti va ijodi, kasbga bo‘lgan hurmat, ma’naviy barkamollik yo‘lidagi izlanishlari asrlar osha o‘z fayzi va latifligi bilan qalblarga doimo kino nurini sohib turaveradi.

3.3§. O‘ZBEK MILLIY FILMLARIGA TAHLILAN YONDOSHUV “JASUR” filmi

“O‘zbekkino” Milliy agentligi buyurtmasiga asosan, 2011 yilda suratga olingan filmlar orasida “Jasur” filmining ham borligi, bu kinoijodkorlarimizning yutug‘i desak, mubolag‘a bo‘lmas. Har bir inson o‘z Vatanini ko‘z qorchig‘iday asrab, o‘z

onasiday sevishi kerakligi hammaga ma'lum. Shuning uchun ham Ona Vatan deb, bu muqaddas zaminni tilga olamiz.

“Jasur” filmi ijodkorlari ham aynan Vatanga bo‘lgan muhabbat, uning uchun jonini berishga ham tayyor turgan chegara qo‘shinlari xizmatchilarining og‘ir, ammo sharaflil faoliyati haqida hikoya qiladilar. Film fabulasida bolalikdan birga o‘sgan ikki yigitning hayotdagi tanlagan yo‘llari haqida atroflicha tasvirlanadi. Jinoyatchilar, o‘zlarining qabih niyatlari yo‘lida hech narsadan voz kechmasliklari, ularning jirkanch harakatlari filmda munosib o‘rin olgan. Albatta, bunday mavzudagi filmlarni suratga olayotganda rejissyorlarning zimmasiga katta vazifa tushadi. Ayniqsa, ssenariyda belgilangan janrga itoat qilish lozim bo‘ladi. Mening nazarimda, filmning janri kerakli darajada aniqlanmagani uchun, ba’zi hollarda dramaturgiya bo‘yicha talab qilingan keskinlik susayib qolgan. Ssenariyda berilgan psixologik sarguzasht janri, filmda o‘z aksini to‘laligicha topmagan. Masalan; avtobusdagi muhit har obrazni o‘lim tahlikasi oldidagi holatini ochib berish, keyin esa ularni birlashtirishga olib kelishi kerak edi. Lekin, garovga olinganlarning ba’zi birlari, o‘zlari tushib qolgan vaziyatni umuman tushunmaydi, yoki jiddiy his qilishmaydi. Oqibatda tahdid oldidagi insonlarning o‘zlarini tutishlari yuzaki, ishonarsiz bo‘lib qolgan. Ammo, bu bilan “Jasur” filmi tanqid qilmoqchi emasmiz, ammo filmdagi ba’zi kamchiliklarni ham tilga olishni joiz deb bildik. Film rejissyori Bahodir Odilov aktyorlarga rol tanlashda imkoniyatlardan keng foydalangan. Chunki ayrim sahnalarda aktyorlarning rol ustida izlangani, jiddiy fikr yuritib ish ko‘rgani seziladi. Film biz juda katta yutuq va tomoshabin uchun o‘rnak bo‘ladigan ijobiy jihatlarni ko‘rib o‘rganish mumkin. Masalan, oilada ikki farzand bir o‘g‘il va bir qiz farzandlarini bolaligidan yolg‘iz boshi bilan katta qilib, ta’lim-

tarbiya berib, ularni katta qilib uyli- joyli qilgan yolg'iz onaning matonati, vatani uchun jonini ham ayamagan Jasurning otasi tanlagan yo'lni keljakda uning farzandi ham davom ettiradi. 1994 yili maktabni tugatish chog'ida Jasur opasini turmushga berishadi. Oila qiyinchiliklarga duch kelsa ham onasi Jasurni oilani boqish uchun qo'shimcha pul topishga undamadi, aksincha uni bilim olib, kelajakda otasi kabi vatanimiz sarhadlarida, o'z muqaddas burchini o'tashga katta ko'mak beradi. 1997 yili harbiy bilim yurtida tahsil olish bilan birga, Jasurning hayotida yana bir baxtli onlari sodir bo'ladi. Feruzani ilk bora kinoga borgan chog'ida ko'rib unga nisbatan muhabbati uyg'onadi. Oradan vaqt o'tib, qizning oilasida qarshiliklar bo'lsa ham taqdir ularni birga bo'lishlariga qarshilik bildirmaydi. Yillar o'tib qizi ulg'ayib, orada nimagadir bir-birin tushunmaslikmi... paydo bo'ladi. Jasurning turmush o'rtog'i Feruza (Jamila G'ofurova) o'sha kuni nima sabab bo'ldiki, eridan xafa bo'ladi. Erining oilaga vaqt ajratmayotgani tufayli o'rinsiz hayollarga berilib, qizi bilan oyisinikiga bir haftaga dam olib kelishlarini aytib yo'lga o'tlanishadi.

Demak, yuqorida biz tilga olgan ba'zi o'rnak bo'ladigan jihatlarga misol, bu borada harbiy ofitserlarning oilalariga, ularning turmush o'rtog'lariga sabr-bardoshli bo'lishlariga, har bir daqiqalarda vatanimiz tinchligi yo'lida kamarbasta bo'lgan erlariga faqat yelkama-yelka turib dalda berish o'rinli ekanini tushinishlari filmda ta'kidlab o'tilgan.

Jasur Ikromov (Mirolim Qilichev) yurtdoshlari oldidagi burchini, qolaversa, kasbiga bo'lgan mehri va albatta Vatanim bayrog'ini o'pib, qasam ichganida "halqini har xil balo qazolardan asrashi" haqidagi qasamyodiga sodiq qolib ularni garovdan ozod qilishga kirishadi.

Avtobus haydovchisi oldiga kelib Zunnun (taxallusi Abdulshoh) katta pulga doim sotilib kelgan bu kimsa, uni ham yolgʻon soʻzlariga ilintirib, “toʻrtta qop mayiz bor edi, shuni dovongacha olib keting”-deydi. Yoʻq deb turgan shofyor bir zumda, pulni qoʻliga olgach, yoʻlga tushgan, har xil yoshdagi yoʻlovchilar, chiroyli togʻlar, betakror tabiatning moʻjizasidan bahra olib xursand ketayotgan chogʻida, kutilmagan voqealar boshlanadi. Toʻrtta qop mayiz degani bu – toʻrtta terrorist boʻlib chiqadi. Ust-boshi gʻalati, koʻzlarida alami bor bu toʻrttala kimsalarni koʻrgach, shofyor ularni olib ketolmasligini bildirgach, ular jismoniy kuch ishlatib, savalab ketishadi. Oʻzlarini avtobusga otgan kimsalar, darrov yoʻlovchilarga tajovvuz qilib, ularga sovuq qurollarini oʻqtashadi. Yuzlarida zarracha yaxshilikdan nishona yoʻq, bu qora niyatli kimsalar, shofyorga doʻq qilib, tezlikni oshirib tezroq dovonga chiqishini talab qilishadi. Arosatda qolgan odamlar vahimaga tushib qoladi. Feruza sumkasidan qoʻl telefonini olib, eri Jasurga qoʻngʻiroq qiladi. Buni koʻrgan terroristlar uni urib, qoʻlidagi telefoni olib sindirishadi. Orada telefon orqali ularni ovozi eshitib, voqeadan xabar topgan Jasur ularni orqasidan yetish choralarini koʻradi. Harbiy boʻlimga xabar berib, terroristlar odamlarni garovga olganini aytadi. Oxir-oqibatda juda koʻp qiyinchiliklardan oʻtib, turmush oʻrtogʻi Feruza, qizi Noila va boshqa hamyurtlarini qutqarish uchun avtobusga yetib oladi. Ammo mashinasini avtobus oldiga koʻndalang qoʻyib, oʻzi terroristlar qoʻliga tushib qoladi. Avtobusda Jasur bolalikda birga oʻynab, ulgʻaygan hamqishloq doʻsti Nasrullohni koʻrgach, uni shu darajada qabih ishlarga, aralashib, yomon kimsalar orasiga tushib qolganidan taajjublanadi. Bir paytlari 1990 yili futbol maydonida birga bolalar bilan toʻp surib oʻynab yurgan chogʻida, Nasrullohni qishloqning

tarbiyasi og‘ir bolalari chaqirib, do‘pposlab, cho‘ntagida bor pulini olishadi o‘sha payti uni Jasur kelib yomon bolalar qo‘lidan qutqarib oladi. Ularni do‘stligi shu borada yanada mustahkamlanib boradi.

Nasrulloh (taxallusi Abdulloh) esini tanibdiki, mahalladagi G‘iyosxo‘janing hujrasiga qatnayverib, uning miyasi buzg‘unchi g‘oyalardan zaharlangan. Yillar o‘tib, dinni yanada chuqurroq egallash uchun chet elga ham borib keladi. Ularga doimiy yordam berib kelgan mahalladagi Zunnun (taxallusi Abdulshoh) buyruq asosida ularga doimiy yo‘l-yo‘riqlarni ko‘rsatib kelgan. Demak, Abdulloh qora niyatdagi terroristlarga bosh-qosh bo‘ladi. Ammo bu kimsaning haqiqiy ismi Nasrulloh ekanini avtobusga chiqqan Jasur bilib oladi. Nasrulloh ota-onasini dilini og‘ritib, uydan chiqib ketganicha, qaytmagan. Shu qora niyatdagi rejalarini amalga oshirish uchun yillar davomida tayyorgarlik ko‘rgan, atrofiga ham o‘ziga o‘xshagan ma‘naviy olami zaif yigitlarni yig‘ib ularni ham shu yo‘ldan ketishga undab, yaqinlaridan uzoqlatishga majbur etgan.

Olloh so‘zini tilga olib, o‘zlariga dinni niqob qilgan kimsalarning qora niyatlari begunoh insonlarni avtobusda garovga olib, ulardan foydalanish maqsadi edi. Filmda Jasurning to‘g‘ri va aqllilik bilan yo‘l tutgani yuraklari tilka-pora bo‘lgan begunoh insonlarni o‘z oilalariga sog‘-omon qaytarishga sabab bo‘ldi.

Biz Vatanimiz tinchligini saqlab turgan, harbiylarning qadriga yetib, ularga doim ta‘zim qilsak arziydi. Darxaqiqat, ushbu filmda Jasurning mardligi, orqaga chekinmasdan dushmanga yengilmasdan ko‘rsatgan jasorati orqali, butun o‘zbek o‘g‘lonlarining jasurligini aks ettirdi.

“JASUR” filmining ssenariy mualliflari Jahongir Qosimov, Faxriddin Nizomovlarning oldilariga qo‘ygan maqsadi,

tomoshabinlarda bugungi kunda ogohlikka, mehr-oqibat, qadr-qimmat, to'g'rilik kabi fazilatlarga yanada e'tiborli bo'lishlarini uqtiradi. Qalblariga yana bir karra samimiylik urug'larini ulashib, har bir o'zbek xonadonlariga ushbu film namoyishi bilan ta'sir ko'rsatdi. "Jasur" filmi insonlar ma'naviy ongini boyitibgina qolmay balki, barchani ogohlikka chorlaydi. Mahallada doimiy surishtirish ishlari olib borilishi, yoshlarni oilada tergap, bo'sh vaqtlarini behudaga o'tkazmasliklari uchun, mahalla faollari doimiy turli tadbir, bellashuvlarni o'tkazib turishlari lozim. Bugun buning ijobiy natijalarini har bir mahalladagi yoshlar uchun sport maydonlari, suzish havzalari, futbol maydonchalari bunyod etilmoqda. Qizlar uchun ham turli to'garaklar, tadbirkorlik va kasanachilik ishlari yo'lga qo'yilgan. Biz doim o'z uyimizni, Vatanimizni asrab-avaylab, atrofimizda kechayotgan turli o'zgarishlarga befarq bo'lmasligimiz kerak. Sarhadlarimiz mustahkam ekan, uyimizda tinch, osuda dam olamiz, oqshomlari tinch ko'chalarda yuramiz. Harbiylarimizning yurt tinchligi borasida, olib borayotgan tinimsiz mehnatlarini vatanparvarlik filmlarida yana bir bor, yaqqol ko'rishimiz mumkin.

"AFG'ON" filmi

Vatanparvarlik mavzusidagi filmlardan "Afg'on" filmi o'zining noana'naviyliigi bilan tomoshabinlar e'tiborini o'ziga jalb etdi. Chunki, film tomoshabinni teran fikrlashga undaydi. Film 1989 yilning yoz kunlarida chegaraga yaqin bo'lgan qishloqlarda 2 kun ichida bo'lib o'tgan mudhish voqealar haqida hikoya qiladi. Film ikki qismga bo'lingan. Qismlar "Mehmon" va "mezbon" nomlari bilan belgilangan. Film ijodkorlari, birinchi katta qismini mehmon deb atashlarining asosida, ayrim insonlar o'z yurtlarida

mehmon bo‘lib, begonalarday yashashlari ta’kidlansa, ikkinchi qismida o‘z Vatanlariga mezbon bo‘lganliklari bilan belgilanadi.

Filmning ilk kadrlarida Akbarning, tom ustida dutordan yangrayotgan kuyga o‘zicha xursand bo‘lib, raqs tushishi, harbiylarning qishloqqa mashinada tobutlarni olib kelishi bilan baxtli onlariga nuqta qo‘yilsa, filmning finalida aynan mana shu uzilib qolgan baxtli onlar davom etadi. Oradagi 5 yil barcha yaralarni, dardlarni orqada qoldiradi.

Afg‘onistonda bo‘layotgan begona urush, filmdagi barcha obrazlarning hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Eng avvalo, qishloq raisi, mehnat qahramoni, 4 yildan beri yakkayu-yagona o‘g‘lini “Bu bizning vatan uchun bo‘layotgan urush emas”, deb armiya xizmatidan “otsrochka” qilib kelayotgani, shu bilan birga hamqishloqlarining oldida o‘zini qaysidir ma’noda aybdor his qilishi... yoki, Akbarning shu urushni deb harbiy xizmatga otasi yubormayotgani, shu munosabat bilan hamma uni erkak emas deb kamsitishi, hatto uylangani qiz topa olmayotgani, Abdullaning tili bilan aytganda, “xajiqizga” aylanib qolgani... yo bo‘lmasam, tobutlarni kuzatib kelgan oddiy askar Qurbonovning xuddi bu urush tugaguncha bir og‘iz ham kalima qilmayman, deganday hech kim bilan gaplashmasligi... Xuddi shunday, Abdulla ham afg‘ondan kontuziya bo‘lib qaytgani va endilikda cho‘pon bo‘lib insonlardan uzoqlarda yashashi, hatto shuning uchun oila qurmagan... Lekin bu urushning eng katta dahshati, filmdagi katta voqea, tomoshabinning ko‘z o‘ngida yuz beradi. Choyxonachi Fayzullaning yagona o‘g‘li vafotiga chiday olmay, o‘zini osib qo‘yishi, filmning haqiqiy kulminatsiyasiga aylanadi.

Fayzulla (Farhod Abdullayev), o‘g‘lining o‘limidan xabardor bo‘lish epizodi, kino tilida juda ham yuqori saviyada,

rejissyorning professionallarcha talqinida namoyon bo‘ladi. Fayzullaning talvasaga tushib gapirgan monologi, uning hamqishloqlariga nisbatda hayqirig‘i–xuddi butun insoniyatga qaratilganday, talqin etilgan. Filmdagi bu muhim epizod, operator tomonidan uzluksiz yaxlit bir kadrda suratga olingan holda, otaning e‘tirozini barcha insoniyatning e‘tiroziga aylantiradi. **“Badiiy kinoda inson obrazini aktyor yaratadi. U talqin etadigan obrazlar muhitida film g‘oyasi ro‘yobga chiqadi. Filmda qatnashishga rozi bo‘lgan aktyor ssenariyni qo‘lga olib, diqqat bilan tanishib, o‘z roli qatorida boshqa aktyorlar rollarini ham o‘rganib chiqadi. Zero bo‘lajak filmda ishtirok etadigan aktyorlarning barchasi bilan ijodiy hamkorliksiz o‘z ishida muvaffaqiyat qozonish mumkin emasligini yaxshi bilishi muhim ahamiyat kasb etadi”**¹⁰.

Filmda xuddi shunday, ikkinchi tobutning manzilida, to‘y ustiga aza bo‘lib, yetib kelgan Saidning mayiti, 14 yildan beri turmushga chiqish orzusida bo‘lgan kelinning fojiasini ham bu begona urushning mahsuloti sifatida qabul qilish lozim.

Filmdagi yana bir yorqin epizod, qisqa vaqt ichida shuncha dahshatni boshidan o‘tkazgan Akbarning so‘nggi monologida yuz beradi. Bu sahna ham, operator tomonidan 3 daqiqali yaxlit bitta kadrda suratga olingan bo‘lib, Akbarning ulg‘aygani va endilikda u xuddi afg‘onning dahshatli onlarini yashagan insonday butunlay o‘zgaradi. Hatto afg‘on urushining ishtirokchilari Qurbonov va Abdulla ham uning oldida o‘zlarini aybdor his qilishadi.

¹⁰ Абулкосимова Х. Кино санъати асослари. –Т. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2009. 53-б.

Filmda simyog'ochlarda osilib turgan karnaylardan yangraydigan sovetlar zamonining turli qo'shiqlariga parallel, yoki to'g'rirog'i, qarama-qarshi tarzda, dutor navolari kadr ortida yuz berayotgan to'qnashuvga o'xshaydi. Va finalda aynan milliy ohanglar g'olib chiqqanligini ham e'tirof etish mumkin.

Umuman, "Afg'on" filmida kinodagi barcha komponentlar o'z o'rnini topa olgan.

Kino san'atida o'z o'rniga ega serqirra ijodkor Yolqin To'ychiyev ssenariy muallifi hamda rejissyor sifatida filmda o'ziga xoslikni namoyish etish bilan birga tomoshabinni yana bir karra chuqur mushohadaga undaydi. Rustam Murodovning operatorlik ishini alohida ta'kidlash lozim. Chunki, aktyorlarning ijrosi – hammasi maqtovg'a loyiq. Ayniqsa, Akbar bilan Abdullaning kimsasiz tog' yon bag'irlarida tortishib qolish sahnalari, hamda Fayzulla akaning fojeali alam bilan o'g'li o'limini tan olmagan sahnalari o'ta ta'sirchan va tomoshabinni larzaga soladigan darajada betakror chizgilarda tasvirga olingan. Chiroqlar o'z o'rnida aktyorning holatlarini ko'rsatishda ko'makchi vazifasini bajargan.

Akbar (Akbarxo'ja Rasulov), Abdulla (Dilmurod Masaidov), Qurbonov (Adiz Rajabov), Fayzulla (Farhod Abdullayev), Ena (Gulbahor Yo'ldosheva) kabi bir-birini takrorlamas obrazlarni talqin etgan yuqoridagi aktyorlarning rollari hayoti ichida yashaganini ko'rish mumkin. Chunki, film ijodkorlarini behudaga tilga olmadik. Negaki, film qaysi janrda bo'lmasin uning ijodiy guruhlari orasida aktyorlarning o'ziga yarasha tomoshabinlarga yetkaza oladigan vositachi sifatida gavdalanishi yetakchi o'rinda turadi.

Bu filmni har ko‘rganda, diqqatli tomoshabin o‘zi uchun yangi bir fikrni, tushunchani topishi muqarrar. Xullas, shunga o‘xshash filmlar milliy kinomizning buguni va kelajagi borligi haqida o‘ylashga asos bo‘la oladi.

“O‘TOV” filmi

“O‘tov” (ssen. mual. Yolqin To‘ychiyev) 2007-yilda “O‘zbekkino” Milliy agentligi buyurtmasi asosida iqtidorli yosh rejissyor Ayub Shahobiddinov tomonidan suratga olingan. Filmda istibdod tufayli hayoti ostin-ustun bo‘lib ketgan, oxir-oqibat o‘sha tuzimdan ajralib, yolg‘izlikda yashashga ahd qilgan bir inson qismati, uning ruhiy iztiroblari ta’sirchan lavhalar yordamida ochib berilgan.

“O‘tov” filmi qahramoni Ubaydulloning zamonga bo‘lgan qarashlari Yusuf Roziqovning “O‘rtoq Boykenjayev” film qahramonini yodga soladi. Boykenjayev zamon qurboni, ammo YO. To‘ychiyevning Ubaydullo qahramoni sovet tuzumi qurboni bo‘lmaydi, aksincha u barcha qiyinchiliklarni yengib chiqadi.

Mirshabning “Kollektivniy xozyaystvo nimalini qayerdan tushunarding? degan savoliga javoban, Ubaydullo “O‘sha seni hukumating bobomni quloq qildi, otamni qatag‘on qildi, meni xalq dushmanining farzandi deb e‘lon qildi. Hamma yaqinlarimni birma-bir yo‘qotdim. Bisotimda faqat o‘g‘lim qolgan. Shuning uchun dangalini ayt, qancha?” deydi. Mirshab undan besh juft qo‘y so‘raydi...

Ushbu film orqali o‘sha davr odamlarining hukumat tomonidan yolg‘onlarga qorishib yashashi, poraxo‘rlik kabi illatlar mirshabning tashqi qiyofasi, ayyorona yuz tuzilishi, gapirish ohangida o‘z aksini topgan. Rejissyor ushbu qahramon timsoliga

Xayrulla Sa'diyevni to'g'ri tanlagan, aktyor filmda o'z qahramoni siymosini yaqqol aks ettirgan.

Rejissyor Ayub Shahobiddinov o'rta yoshli aktyorlar ko'p bo'lishiga qaramay, film bosh qahramoni Ubaydullo obraziga aynan Nozim To'laxo'jayevni taklif qilgani filmning muvaffaqiyatli chiqishini ta'minlagan. Nozim To'laxo'jayev o'zbek kinosida ko'plab o'ziga xos rollar ijro etgan, ammo ushbu roli barcha rollaridan ustun keldi. Filmida o'tgan asrda davr zulmidan azob chekkan, shu bois umidsizlikka tushib qolgan insonlar taqdiri Ubaydullo obrazi orqali namoyon bo'ladi. Bir qarashda Ubaydullo qaysidir jihatlari bilan o'tovga to'g'ri kelmaydigan odamdek tuyuladi. Haqiqatan ham film davomida ko'satilgan bir epizod (sandiqdan frak olib kiyishi) uning san'at bilan oshno inson ekanini isbotlaydi.

Aktyorning ko'z oldimizda qahramon sifatida gavdalanishida, eng avvalo, N. To'laxo'jayevning aktyorlik mahoratini, libos ustalarining unga mos kiyim tanlaganliklarini va film davomida qalb isyonlarini chanqovuz orqali berilishida film ijodkorlarining xizmati katta. Operator Azizbek Arziqulovning qahramonlar ichki konfliktini tomoshabinga yetkazishda muhim hisoblangan tasviriy olam film badiiyligiga munosib hissa qo'shgan.

Kino san'atini operatorning tasviriy olamisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Operator dramaturg ssenariysi asosida rejissyor qo'yimoqchi bo'lgan film qahramonlarini ekranda gavdalantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. U hamisha rejissyor va rassom bilan yonma-yon ishlaydi. Operator filmni tavsirga olishda umumiy, o'rta va yirik planlardan, turli-turman rakurslardan, film mazmuni va g'oyasiga ko'ra tezlashgan yoki aksincha sekinlashgan kadrlar foydalanadi.

Operator suratga olish guruhi qatori rejissyorga bo‘ysunsada, agar u o‘ziga xos yorqin iste’dod egasi bo‘lsa, filmning plastik yechimida ham shu narsa ifodalanadi. Har bir operatorning u yoki bu turdagi filmga, ma’lum bir uslabga moyilligi bo‘ladi. Masalan, operator D. Fatxullin (o‘zbek kinosida “Uchrashuv”, “Laylak keldi – yoz bo‘ldi”, “Dorbozlar”, “Nafosat”, “Oy borib, omon qayt” filmlarini suratga olgan) lirizmga intilsa, M. Krasnyanskiy qat’iy talabchanlik taqazo etiladigan tarixiy janrni ma’qul ko‘rardi. Operator H. Fayziyev suratga olgan filmlarda (“Sen yetim emassan”, “Toshkent – non shahri”, “Muhabbat mojarosi”, “O‘tkan kunlar-2”, “Ayollar saltanati”) har bir kadrda uyg‘unlikka, aniqlikka intilishini, effektlardan qochishga harakat qilishini ko‘ramiz.¹¹

A. Arziqulov “O‘tov” filmi tasмага muhrlashda ijodiy xodimlar bilan birgalikda film muhitini ochib bera oladigan ajoyib tabiat (tog‘ yon bag‘ridagi o‘tov) topganini alohida ta’kidlash kerak. Ubaydullo tabiat bilan bir bo‘lgani uchun uni baxtli inson qiyofasida ko‘ramiz. Lekin u jamiyatdan azob chekkan, shu bois o‘g‘lini jamiyatga qo‘shgisi kelmaydi. Bu voqealarning bari operator Aziz Arziqulov boshchiligida mahorat bilan tasvirga olingan. Uning film mazmuni va g‘oyasini ochishda qo‘llagan rakurslari va planlari tomoshabinga estetik zavq bag‘ishlaydi.

Operatorlik ham murakkab kasblardan biri bo‘lib, bu soha egasi hisob-kitobga usta bo‘lishi kerak. A. Arziqulov bilan suhbatda bo‘lganimizda, u “O‘tov”ni suratga tushirishda ancha qiyinchiliklarga uchraganini aytgandi. Buning sababi, institutda professional texnik jihozlarning yetishmasligi degandi. Biz institutda videoga olardik. Plyonka bilan ishlash esa biz o‘ylaganchalik oson emas ekan.

¹¹ Абулқосимова Х. Кино санъати асослари. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2009. – 40-бет.

Film (“O‘tov”) voqealari ro‘y berayotgan yillar oddiy titrlarda emas, o‘sha davrlarda chop etilgan gazeta sahifalari orqali, 80-yillardagi “paxta ishi” esa televizor orqali ko‘rsatiladi. Bunda rejissyorning kinoda tasviriy-ifodaviy vositalardan oqilona foydalanganini alohida ta’kidlash kerak.

Ra’no Shodiyeva ijrosidagi gung ayol Ubaydulloning ko‘ksiga musht urib taqillatishi filmda ramziy ma’noda aks ettirilgan bo‘lib, film ijodkorlari ayol Ubaydulloning qalbiga kirishga ruxsat so‘rayotgandek tarzda ifoda etganlar.

Filmning badiiy o‘xshatishlari asosan televizor orqali namoyon etilgan. Masalan, qish bo‘yi g‘aflatda qolgan o‘tov aholisi televizorda oq ayiqqa qiyoslanadi. Filmda televizorning yerdan kavlanib olish sahnasi diqqatga sazovor. Rejissyor Ayub Shahobiddinov muallif Yolqin To‘ychiyevning ozodlik haqidagi g‘oyalarini Ubaydulloning yosh qizi obrazi orqali ochib beradi. Qiz otasiga “Ozodlik televideniya da ko‘rinadimi?” deganida ota “Ko‘rinar?!” deb ikkilanib javob beradi. Javobdan qoniqmagan qiz otasiga “Nega unda bizning televizorimiz har doim bir xil narsani ko‘rsatadi?”, deydi. Shunda ota televizor buzuvchiligi, uni tuzatish kerakligini aytadi. Bu o‘rinda ssenariy muallifi YO. To‘ychiyevning tagma’noli fikrni o‘rnida ustamonlik bilan qo‘llaganini alohida ta’kidlash lozim. Muallif televizorning bir xil narsani ko‘rsatishini jamiyatdagi zerikarli, bir maromdagi hayotga qiyoslaydi. Shu bois uni tuzatish kerakligini aytadi. Rejissyor A. Shahobiddinov muallifning ushbu tagma’noli fikrini filmda tasviriy vositalar bilan yanada boyitib ko‘rsata olgan.

Filmning ta’sirli chiqishida montaj ustalarining har bir kadr ustida alohida ishlaganini qayd etish lozim. Lavhalarning birin-ketin bir maromda o‘tishi film badiiyligini oshirgan.

Rossiyada bo‘lib o‘tgan nufuzli “Kinoshok-2007” xalqaro kinofestivalda iste’dodli kinoaktyor N. To‘laxo‘jayevning “O‘tov” filmida yaratgan Ubaydulla obrazi “Eng yaxshi erkak roli ijrosi uchun” nominatsiyasi bilan taqdirlandi.

Film ijodiy xodimlarining mehnatini ekranda namoyon etadigan kasb egalari aktyorlar bo‘lib, tomoshabinning nigohi faqat uni ko‘radi, u orqali ijodiy xodimlar ishiga baho beradi. Shu bois rejissyorning aktyor bilan bevosita ishlay olishi muhim ahamiyatga ega. O‘z navbatida, rejissyor filmga qanday aktyorlar ansamblini yig‘ishi tomoshabinlar auditoriyasiga o‘z ta‘sirini o‘zkazadi.

Rejissyorning muvaffaqiyati – oldiga qo‘ygan maqsadini tomoshabiniga yetkaza olishidadir. Agar tomoshabin film qahramonini yaxshi ko‘rmasa, undan o‘ziga o‘xshash jihatlarni topmasa, kinoning yashab ketishi qiyin masala. Ijodkorning iqtidori maqsadini film orqali ochib berishi va tomoshabin yuragiga kira olishida namoyon bo‘ladi.

3.4§. QISQA METRAJLI FILMLAR

- 1. Qisqametrajli filmlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi**
- 2. Qisqametrajli filmlarning o‘zbek kino san’atiga kirib kelishi**

1907 yili Xudoybergan Devonov Rossiyadan olib kelgan “Pathe Freres” kinokamerasi orqali dastlabki qisqa hajmli o‘zbek reportaj-filmlarini, manzarali filmlarni suratga oldi. Bu o‘zbek madaniyati tarixida texnik taraqqiyotga asoslangan yangi san’atning tug‘ilishi edi.

Yigirmanchi asrning ikkinchi yarmida “Vasisualiy Loxankin” va “Filippinets i pyaniy” (Filippinlik va mast odam) nomli qisqa metrajli filmlari bilan Shuhrat Abbosov kino olamiga qadam tashlagan bo‘lsa, “Tog‘larda qolgan qalbim” filmi orqali Rustam Hamdamov o‘z ijodiy faoliyatini boshlagan.

Shuhrat Abbosovning “Vasisualiy Loxankin” nomli filmi 1958 yilda suratga olingan bo‘lib, ijodkorning ilk filmi hisoblanadi. Kino uchta personaj, Loxankin, Varvara, Ptiburdukovdan iborat. Filmda ayol qalbi, uning har qanday sharoitda ham oilaga ko‘rsatadigan sadoqadi, shu bilan birga e‘tibor qo‘msashi haqida so‘z yuritiladi.

1966 yilda “O‘zbekfilm” kinostudiyasi qoshida “Nashtar” nomli satirik kinojurnal o‘z faoliyatini boshlashi O‘zbekistonda qisqa metrajli filmlarning rivojlanishiga katta ta’sir o‘tkazdi. Ushbu kinojurnalda turli xil mavzularda tasvirga olingan qisqa metrajli filmlar o‘rin olgan. “Nashtar” satirik kinojurnali kinofelyeton, kino yumor kabi janrlarning rivojlanishiga sababchi bo‘ldi. Ushbu qisqa metrajli filmlarda Maryam Yoqubova, Sharofat Shokirova, Tamara G‘aniyeva, Rajab Adashev, G‘ani A‘zamov, Po‘lat Saidqosimov singari iqtidorli aktyorlar rol ijro etganlar.

1971 yilda suratga olingan qisqa metrajli filmlardan iborat “Uchrashuv” nomli teleminiatyuralarni ko‘rsatish mumkin. Ham rejissyor ham operator sifatida Shavkat Junaydullayev yaratgan “Uchrashuv” nomli ijodiy ishi o‘nta qisqa ko‘rinishlardan iborat. “Uchrashuv” fil’midagi har bir ko‘rinish bugungi kunda ham kino ixlosmandlar tomonidan sevib eslanadi va tomosha qilinadi. Ushbu filmda ishlatilgan iboralar hanuzgacha xalq orasida qo‘llanilib kelinadi.

Film ko‘rinishlaridan biri talabaning imtihon topshirishi to‘g‘risida bo‘lib, bu miniatyurada darslarga o‘z vaqtida tayyorlanmagan talabaning imtihon paytida nechog‘lik kulguli ahvolga tushib qolishini usta san’atkor Ergash Karimov mohirona ko‘rsatib bergan. Sabr toqatli o‘qituvchi obrazini esa G‘ani A‘zamov ijro etgan. Bu miniatyuraning xalq tomonidan sevib tomosha qilinishiga sabab faqat uning yumorga boy ekanligida emas, balki bir necha daqiqada jamiyatdagi ko‘plab muammolarni ko‘tarib chiqilganligidadir.

90-yillarga kelib, qisqa metrajli filmlarimiz tomirlari yangi qon bilan oqib, bir qancha ijobiy yuksalishga erishdi. Shu yillarda Zulfiqor Musoqov “Adashganlar” nomli qisqa metrajli filmi bilan rejissyor sifatida kino olamiga kirib kelgan bo‘lsa, Farhod Xaydarov, Bahodir Odilov kabi kinoijodkorlarimiz o‘z qisqa metrajli filmlari bilan kino san’atimizni boyitdilar.

Mustaqillik yillarida suratga olingan qisqa metrajli filmlardan biri Jahongir Qosimov tomonidan 1992 yilda suratga olingan “SHo‘r peshonalar” filmidir. Ushbu film komediya janrida suratga olingan bo‘lib, tomoshabinlar tomonidan hanuzgacha sevib tomosha qilinadi. “SHo‘r peshonalar” Zulfiqor Musoqov ssenariysi asosida suratga olingan. Filmda taniqli aktyorlar Baxtiyor Ixtiyorov, Xusan Sharipov, Rimma Ahmedova, Dilbar Ikromovalar rol ijro etganlar. Film syujeti juda qiziqarli bo‘lib, Baxtiyor Ixtiyorov talqinidagi qahramon butun umr lotareya o‘ynaydi. Ammo biror marta ham omadi kelmagan. Shunday kunlarning birida futbolga yutuqli yutuqli chipta sotib oladi. Lekin futbol kuni aksiga olib nevarasining tug‘ilgan kuniga to‘g‘ri kelib qoladi. Xotini – Rimma Ahmedova janjal qilib, nevaralarining tug‘ilgan kuniga borishga majbur qiladi. Baxtiyor Ixtiyorov yo‘lda ketayotib, tasodifan uchrashib qolgan qo‘shnisi Xusan Sharipovga

chiptalarni beradi. Qo‘shnisining “Yutuq chiqsa-chi?”, degan savoliga “Teng yarmiga bo‘lamiz”, deya javob beradi. Qo‘shni futbolga umuman qiziqmasa ham yutuqli chipta sababli o‘yin tomoshasi uchun futbol maydoniga boradi. Kutilmaganda unga omad kulib boqadi.

Jahongir Qosimovning “SHo‘r peshonalar” nomli qisqa metrajli filmi ayrim holatlarda odamlar o‘zlarini qanday kulguli tutishlarini tasvirlab bergan.

O‘zbek qisqa metrajli filmlari haqida gapirar ekanmiz, ularda nafaqat yumor, balki boshqa ko‘plab janrlardagi ustuvorlikni ko‘ramiz. Qisqa vaqt davom etadigan o‘zbek filmlarida ijtimoiy muammolar dramatik shaklda ham ochib berilgan. Misol tariqasida Xotam Fayziyevning “Kichkina odamlar” filmi keltirish mumkin. 2007 yilda “Vatan” kinostudiyasida suratga olingan bu film uchta qisqa metrajli kinolardan tashkil topgan. Ulardan biri “Kichkina odamlarning katta tanishi” nomli qisqa metrajli filmida jamiyatda uchrab turadigan ijtimoiy kamchiliklardan biri, ya’ni jamiyatda o‘z o‘rnini topishda kimgadir ishonib ish yuritish kabi insonga hos salbiy illat bir oddiygina voqea orqali ochib berilgan.

Istiqlol yillarida ekran yuzini ko‘rgan qisqa metrajli filmlarimizda erkinlik nafasi shundoq sezilib turadi. Bu davrda kino san’atining qisqametrajli filmlar turi bo‘yicha Mansur Abduholiqov, Yolqin To‘ychiyev, Abduxalil Mingnorov kabi rejissyorlar sermahsul ijod qilib kelmoqdalar. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, yuqorida tilga olingan ijodkorlarning filmlarida qisqametrajli kinolarning asl shaklu shamoyilini ko‘rish mumkin.

2006 yilda rejissyor Mansur Abduholiqov tomonidan suratga olingan “Gap” qisqa metrajli filmi o‘zbek oilalarida uchrab

turadigan kamchiliklar, farzand tarbiyasiga bo'lgan e'tiborsizlik haqida so'z yuritadi. Filmda Lola Eltoyeva, Fatxulla Ma'sudov singari iqtidorli, Dilbar Ikromova, Ravshan Solihov, Alisher Otaboyev kabi ustoz san'atkorlar, shuningdek, yosh aktyor Firdavs Abduholiqovlar rol ijro etganlar.

Qisqametrajli ushbu film Fatxulla Ma'sudov hamda Lola Eltoyevalar juftligidagi oilada Ibrohim ismli 4-5 yoshli farzand bilan voqealanadi. Fatxulla Ma'sudov harbiy sohada faoliyat yuritadi. Shanba tongi nonushtasida ishga shoshayotgan eridan Lola Eltoyeva bugun dugonalari bilan "Gap"i borligi, buguncha uyda qolib farzandlari Ibrohimga qarab turishni iltimos qiladi. Tabiiyki, harbiy sohadagi tartib intizomni buzib bo'lmaydi. Shu sababli er xotiniga ishdan qola olmasligini tushuntirib taklifiga rad javobini beradi. Bundan achchiqlangan xotin eriga e'tiroz bildiradi. Fatxulla Ma'sudov ertalabdan kayfiyati buzilgan holda ishga ketadi. Lola Eltoyeva "Gap" uchun bozor harajatlarini qilish maqsadida ko'chaga o'tlanadi va yo'l-yo'lakay o'g'lini qo'shnisidikida qoldirmoqchi bo'ladi. Ammo qo'shnisining ham ma'lum sabablarga ko'ra uyda bo'lmasligini eshitgach, noiloj o'g'lini bozorga olib ketadi. Bozor-o'charni qilib bo'lgan ona taksiga o'tirganidan keyin nimanidir unutib qoldirganini o'ylaydi. Shu lavhadagi Lola Eltoyevaning ijrosi va ijrodagi dialog filmning ta'sir kuchi orttiradi. Lola Eltoyeva ayni lavhada o'z-o'zi bilan suhbat quradi:

- Non oldim, anor oldim, tuxum, karam, apelsin oldim, banan oldim... Nima esdan chiqdi-ya? Nima qolib ketdi? Apelsin, banan, olma, uzum...

Aslida u farzandi Ibrohimni bozorda unitib qoldiradi. Lola Eltoyevaning o'zi bilan qurgan suhbat rivojida tomoshabin beixtiyor farzand unutib qoldirganini yodga tushishini taxmin

qiladi. Ammo “Gap” tashvishlari bilan bo‘lgan ona shu joyda “Anjir qolib ketibdi” – deya afsuslanishi ekran qarshisida filmni kuzatib o‘tirganlarni qalqitib yuboradi. Ona xayol bilan bo‘lib bolani butunlay yodidan chiqaradi. U farzandini qo‘shnisinikiga tashlab keldim deb o‘ylaydi. Uyga kelgach, dasturxon tuzayotgan Lola Eltoyevaga onasi qo‘ng‘iroq qiladi. U onasining Ibrohimning hol-ahvoli borasida bergan savoliga javob berishda ham bolasini bozorda unutib qoldirganini avvaliga eslolmaydi. Lola Eltoyevaning onasi bilan telefondagi suhbatini filmning ta’sir doirasini yanada kengaytiradi. Telefondagi suhbat quyidagicha bo‘lib o‘tadi:

- Kuyovingiz yaxshi, Ibrohim ham.
- Kasal emas, bog‘chada.
- Ahir aytayapman-ku bog‘chada deb.
- Qo‘shninikidamas. Qo‘shni challariga ketgan.
- Oyi, shanbaligini juda yaxshi bilaman. Bog‘cha ishlamaydi, to‘g‘ri.
- Demak, Ibrohim qo‘shninikida ham emas, bog‘chadayammas...

Onasining beto‘xtov savollariga javob berarkan, so‘nggi pallada ayol bolasini bozorda qoldirganini eslaydi va ko‘chaga yuguradi. Bozorga kelib, uni nazorat hodimlari xonasidan topadi. Hiyol ochilgan xona eshigi oldida to‘xtagan ona ichkaridagi nazorat hodimi hamda o‘g‘lining suhbatini eshitadi:

Nazoratchi hodim – Tavba, ona deganam bolasini ko‘chada qoldirib ketadimi?

Bola – Meni oyim tilla! Ular meni rosa erkalaydilar. Har hafta hayvonot bog‘iga boramiz, muzqaymoqmi, shokoladmi nima desam olib beradilar.

Nazoratchi xodim – Shunaqami? Juda maza qilar ekansan-da.

Bola – Qancha to‘polon qilsam ham oyim hech ham urishmaydilar. Uyimizga mehmon kelsa ham faqat men bilan ovora bo‘ladilar. Mehmonlar bilan ishi ham bo‘lmaydi, bildiz?

Nazoratchi xodim – Hmm, juda arzandai kiromanda ekanlarda a?

Bola – Ular meni yeru ko‘kka ishonmaydilar. To‘g‘risini aytsam, ularni erkalashlaridan charchab ketaman. Shunday paytda xuddi bugungidek, ulardan qochib ketaman!

Eshik ortida turib bu gaplarini eshitgan ona klovlanib ichkariga kiradi. U farzandiga naqadar e‘tiborsizlik qilganini shu pallada tushunib yetadi. Ular uyga kelganlaridan so‘ng, ona “Gap”ni ham to‘xtatib, arazlab xonasiga berkinib olgan bolasiga afsusda ekanligini tushuntiradi.

Film davomida Ibrohim bir necha marotaba onasidan hayvonot bog‘iga olib borishini, fillarni ko‘rsatishini so‘raydi. Bunga umuman e‘tibor qaratmagan ona yakunda bolasi bilan hayvonot bog‘iga borishni kelishib oladi.

Xalqimiz hayotida farzand tarbiyasiga e‘tibor eng muhim vazifalardan sanaladi. Bolaning qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash orqali ota-ona uning istedodini yuzaga chiqarishi mumkin. Aks holda farzand har tomonga yo‘rg‘alay boshlashi, natijada hayotdagi o‘z o‘rnini topa olmasligi mumkin. Farzand hamisha ota-onadan e‘tibor kutadi, orzu-niyatlari, xohish-istaklarini ota-ona bilan bo‘lishadi. Bola uchun ota-ona hamma narsaga qodir odamdek gavidalanadi. Bunday e‘tiborsizlik bolani ruhan sinishiga olib keladi.

Xuddi shu masalalarni ekranga olib chiqqan “Gap” qisqametrajli film. Xalqimiz hayotida tarbiyaviy ahamiyati bilan muhim o‘rin tutadi. Zero farzand bu – kelajak. Uning tarbiyasi esa kelajakning qanday borishini belgilab beradi.

Mustaqillikdan oldingi deyarli barcha qisqametrajli filmlarning asosini yumoristik asarlar tashkil etadi. Bugungi kunga kelib, o‘zbek qisqametrajli filmlarida mavzu va janrdagi rang-baranglikni uchratishimiz mumkin. Shuningdek, qisqametrajli filmlardagi bugunning asosiy janri sifatida kuchli drama hamda falsafiy-psixologik asarlarni keltirish mumkin. Chunki mustaqillik yillarida suratga olingan qisqametrajli filmlarimizda ko‘proq aynan shu janrlarni uchratamiz. Xususan, so‘nggi yillarda o‘zining turli-xil mavzulardagi badiiy asarlari bilan kitobxonlar e‘tiboriga tushayotgan Zulfiya Qurolboy qizining “Ayol qiyofasidagi ajal” nomli hikoyasi asosida suratga olingan rejissyor Abduxalil Mingnorovning “Chaqmoq chaqqan tunda” filmi psixologik drama janridagi qisqametrajli filmlarning yorqin namunalaridan biri deya ta’kidlash mumkin.

Qisqametrajli film rivojiga qaratilgan e‘tiborni chuqurlashtirish orqali o‘zbek kino san’atiga yetuk aktyorlar, rejissyor va dramaturglarni yetkazib berish mumkin. Bugungi kunning ko‘zga ko‘ringan ijodkorlari qisqametrajli filmlar maktabini ko‘rganliklari yaqqol sezilib turadi. Bunday filmlar ijodkorga tajriba demakdir.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, qisqametrajli filmlarni jahon andozalariga mos ravishda alohida o‘rganish milliy kino san’atimizga katta foyda keltirishi shubhasiz.

3.5§. KINO TURLARI

Kino san’atining vujudga kelish va rivojlanish jarayonida uning turlari ham ko‘paya bordi. Kinoning turlari bir-biridan filmda: ko‘rsatilayotgan mavzu, ma’no; ifoda vositalari; ilgari surilgan maqsadlari bilan farq qiladi.

Kino san'atida filmlarning texnik nuqtai nazardan (ifoda vositalariga ko'ra) quyidagi asosiy turlari mavjud:

ovozli va ovozsiz;

rangli va rangsiz;

oddiy, keng ekranli, keng o'lchamli, stereoskopik, vareoskopik, kinotasma yoki videotasmadagi va x.k.

Filmlarda tasvirning tusiga qarab ajratadigan bo'lsak, ikki turga bo'lishimiz mumkin:

1. Oq-qora yoki rangsiz tasvirli. 2. Rangli tasvirli.

Ekranida namoyish etilish uslubi jihatidan filmlar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Oddiy ekranli. 2. Keng ekranli. 3. Keng hajmli (panoramali). 4. Aylana panoramali kino (eskirgan). 5. Stereoskopik (stereo) kino (eskirgan).

Film suratga olingan tasmalarining eni jihatidan turlari quyidagicha:

1. Ensiz (8,16mm o'lchamli tasmadagi filmlar). Bunday tasma asosan havaskorlik kinosi, hujjatli filmlar va ayrim vaqtlardagina badiiy filmlar yaratish uchun ishlatilgan.

2. Oddiy (35 mm o'lchamli tasmadagi filmlar). Bunday kinotasmalardagi filmlar bugun eng keng tarqalgan bo'lib, asosan badiiy, hujjatli, ilmiy-ommabop va multiplikatsion filmlar yaratishda ishlatiladi.

3. Keng o'lchamli (65-70 mm tasmadagi filmlar). Tasmalarning bu turi o'z nomi bilan keng o'lchamli filmlar ishlab chiqarishda ishlatiladi va maxsus apparatlarda namoyish etiladi. Katta sarf-harjatalar talab qilgani uchun keng ommalashmagan.

Har uchchala o'lchamdagi tasmalarda ham oq-qora yoki rangli tasvirdagi filmlar bo'lishi mumkin.

Kino dastlab oddiy ekranda, oq-qora tasvirda vujudga keldi. Fan va texnikaning tez sur'atlar bilan rivojlanishi natijasida san'atning bu turi oq-qora tasvirdan rangli tasvirga, oddiy ekrandan keng ekranga, "ovoqsiz"dan "ovoqli"ga o'tdi. Bu, albatta, filmga ko'rk bag'ishladi, uning tabiiyligini kuchaytirdi, tomoshabinga ta'sir kuchini orttirdi.

Fimlarda ma'lum g'oya va maqsad ko'zda tutiladi. Shu g'oya va maqsad muayyan voqea-hodisalar zamirida amalga oshiriladi. Kinoning rivojlanish jarayonida amalga oshirish usul-uslubiga qarab ijodiy nuqtai nazardan filmlarning quyidagi to'rt yirik turi shakllanganligi haqida 4-bobda aytilgan edi:

Bular: aktyor-aktrisalarning ijrochilik mahoratidan foydalanib, kinodramaturgiya yoki kinoga moslashtirilgan nazm, navo, dramaturgiya adabiy asarlarini ekranlashtirishga asoslangan badiiy kino;

hayotiy, sodir bo'layotgan real voqealarni o'ziga xos uslublarda kinotasmaga suratga olib muhrlab qo'yishga asoslangan hujjatli kino;

rasmli, qo'g'irchoq, plastilin va boshqa shu kabi turli vositalar, kompyuter grafikasidan foydalanib yaratilgan multiplikatsion kino;

yuqoridagi uchchala kino turidan foydalanib ilm-fan yutuqlarini, ilmiy bilimlarni targ'ib etuvchi, tomoshabinlarni tabiat va jamiyat hayoti, ilmiy kashfiyot va ixtirolar bilan tanishtiradigan ilmiy-ommabop kino.

Ijodiy nuqtai nazardan filmlarni ham shu to'rt asosiy tur bo'yicha ko'rib chiqamiz:

1. badiiy kino;
2. hujjatli kino;
3. ilmiy-ommabop kino;

4. multiplikatsion (animatsion) kino.

Badiiy kino.

Badiiy filmlar maxsus qonun-qoidlr asosida yozilgan adabiy ssenariylar asosida, aktyorlar ishtirokida suratga olinadi. Multiplikatsion filmlar ham badiiy film hisoblanadi.

Badiiy kinoning paydo bo'lishiga fransuz rejissyori J. Melyes ijodi asos solgan. U aka-uka Lyumyerlarning dastlabki filmlarini ko'rgach, ularni yaratishda (o'sha vaqtdagi filmlar 5-10 daqiqadan oshmas edi) aktyorlarni jalb qilgan holda turli syujetlardan foydalanish ham mumkinligini darhol tushunib yetdi. Kinoning bu turida zamonaviy voqelik, tarixiy o'tmish, turli xil fantastik voqealar gavdalantirilishi va aktyor san'ati orqali ochib berilishi mumkinligini hayot tasdiqladi. Filmni barcha tarkibiy qismlari (komponentlari) - rejissura, rassom, operator va kompozitorlarning ishi inson taqdirini, uning fe'l-atvorini, u ishtirokchisi va guvohi bo'layotgan voqea va vaziyatlarni ochib berishga bo'ysundirildi.

Inson, uning o'tmishi, hozirgi kuni va ehtimol kelajagi badiiy kinoda tasvirlashning asosiy obyektlaridir. Kinoning bu turidagi filmlar to'liq metrajli (kinotasmada 1800 metr, boshqa vositalarda 60 daqiqadan ortiq), qisqa metrajli (kinotasmada 1800 metrgacha, boshqa vositalarda 60 daqiqadan kam) va ko'p seriyali bo'lishi mumkin.

Xronikal - hujjatli filmlar sanoat sohalari, korxonalar, qishloq xo'jaligi, qurilish, o'quv yurtlari, xarbiy qism va boshqa joylarda bo'layotgan haqiqiy voqealar asosida suratga olinadi. Xronikal-hujjatli filmlarda aktyorlar deyarli ishtirok etmaydi. Ammo so'nggi paytda badiiy-hujjatli (badiiy-publitsistik) filmlar ham vujudga keldiki, unda ayrim voqea xodisalar aktyorlar yordamida tiklanadi.

Kinoning bu turida tasvirning asosiy materiali, mavzui o‘tmishda ro‘y bergan faktlar, voqea-hodisalar, hozirgi zamonaviy voqelikning o‘zi bo‘lishi mumkin. Barcha ifoda vositalari haqiqiy voqealarning mohiyatini, filmga asos qilib olingan haqiqiy inson taqdirining mohiyatini ochib berishga bo‘ysundiriladi. Bu kinosan’at turining asosiy hususiyatlari - to‘g‘rilik, haqiqiylikdir. Bu kinoning filmlari obrazlilik, yuksak badiiyligi bilan ajralib turadi.

Hujjatli kino ichidagi xronikani, ya’ni - biror voqea, xodisani qisqacha izoh bilan beradigan tezkor kinoaxborotni farqlash kerak. Bu filmlarni kinoreportaj deb ham atash mumkin. Kinoxronika bugungi kunda televideniya keng ommalashgan.

Haqiqiy (rosmana) “hujjatli kino”

Shu bilan birga qayd etish kerakki, “Hujjatli kino” iborasining o‘zi hozirgi paytda ko‘plab kinoshunos yoki kinotanqidchilar tomonidan shubha ostiga olinmoqda. Gap shundaki, aksariyat rejissyorlarning fikricha, istagan odam kino suratga olish kamerasini ko‘rishi bilan o‘zini boshqacha, g‘ayri tabiiy tutib qaysidir ma’noda rol o‘ynay boshlar ekan. Natijada hamma voqealar huddi sun’iy, tashkillashtirilib, sahnalashtirilgandek bo‘lib qoladi. Shu bois ko‘plab ekspertlar “hujjatli kino” mavjudligini umuman inkor etadilar. Hujjatli kinoni badiiy kinoning tarkibiy bir janri deb hisoblaydilar. Ular rosmana “hujjatli film” sifatida faqat boshdan oxirigacha yashirin kamera orqali suratga olingan filmlarni tan oladilar. Ana shunday yashirin kamera bilan suratga olingan kinonigina haqiqiy hujjatli kino deb ataydilar. Bugungi kunda “haqiqiy hujjatli kino” zamonaviy kinosan’atining eng ilg‘or namunalaridan deb tan olinib unga kinoshunos va kinoishqibozlarining qiziqishi katta bo‘lmoqda.

Multiplikatsion (animatsiyali) filmlar.

Kinoning bu turidagi filmlar har qanday mavzu, mazmun va janrlarda bo‘lishi mumkin. Bolalar va kattalar uchun mo‘ljallangan ertaklar, hozirgi zamonning g‘oyat keskin mavzulari, masalan, ekologik muammolar, tarixiy o‘tmish va hokazolar shular jumlasidandir. Bu kino turining o‘ziga xos xususiyati - uning filmlari badiiy asosga ega bo‘lib, ishlanishi chizilgan rasmi, qo‘g‘irchoq, plastilin tarzida bo‘lishi mumkin. Zamonaviy animatsiyali kinoda kompyuter grafikasidan keng foydalaniladi.

Multiplikatsiya tarixi 1877 yilning 20 iyulida Fransiyada boshlangan.

Shu kuni havaskor muhandis Emil Reyno ommaga birinchi bor o‘zi yasagan praksinoskop. moslamasini namoyish etadi. 1892 yilning 28 oktabr kuni Parijdagi Greven muzeyida Emil Reyno kinoprojektordan o‘zgacha ishlaydigan “optik teatr” moslamasi yordamida birinchi chizma lentasini namoyish qiladi. Birinchi multfilmlar 15 daqiqagacha davom etadigan qo‘lda chizib bo‘yalgan pantomimalardan iborat bo‘lgan. O‘sha paytlardayoq tasvirga moslashtirilgan musiqa jo‘rligidan foydalanishgan.

Reyno rasmlar bilan birga fotosuratlardan oqilona foydalanilgan multfilmlarni ham yaratgan. Keyinchalik boshqa multipliktorlar ham turli janr, texnika va uslublarda filmlar yaratib multiplikatsiya san’ati rivojiga munosib hissa qo‘shganlar.

Qisqa metrajli (qisqa hajmli) kino

Ilk qisqametrajli filmlarning (uzunligi 15—20 metr, taxminan 1,5daqiqagina namoyish etiladigan) aksariyati hujjatli film bo‘lgan. Ammo aka uka Lyumerlarning komediya janridagi “Xo‘l bo‘lgan suv sepuvchi” filmida badiiy kinoning birinchi unsurlari paydo bo‘la boshlaganining guvohi bo‘lamiz.

Birinchi filmlar hajmining kichkinaligi kinoapparatlarning hali texnik rivojlanmaganligining oqibatidan deyish mumkin. Shunga qaramay 1900- yillarga kelib film uzunligi 200-300 metrga, namoyish vaqti 15–20 daqiqaga yetdi. Kino suratga olish va namoyish etish apparatlarining texnik takomillashuvi filmlarning hajmini oshishiga, turli badiiy va texnik suratga olish usullarining rivojiga, aktyorlar ijrosi va rejissyorlik mahoratini ko‘rsatishga imkon yarata boshladi. Kinematografning keng tarqalishi va ommaviyligi uning iqtisodiy jihatdan foydali ekanini ham ta’minladi. Bu xol filmlarning badiiy saviyasiga ham ta’sir qilmay qolmadi. Bu paytga kelib film syujetlarining murakkablashuvi va uzayishi barobarida kinematograf janrlari shakllanib, ularning badiiy o‘ziga xosligi yuzaga kela boshladi. Har bir janrga xos va mos maxsus tasviriy ifoda vositalari vujudga kela boshladi. “Ovozsiz kino” o‘z rivojining eng yuksak cho‘qqisiga 20-yillarga kelib erishdi. Bu paytda u o‘zigagina xos va mos badiiy ifoda unsurlariga ega bo‘lgan mustaqil san’at turi sifatida shakllanib bo‘lgan edi.

Yuzaki qaraganda qisqametrajli kino to‘liq metrajli kinolardan faqat qisqa vaqt davom etishi bilan farq qiladigandek ko‘rinishi mumkin. Ammo bu yuzaki qaraganda. Chunki qisqa (15-20 daqiqa) vaqt oralig‘iga xuddi to‘la metrajli filmdagi kabi tomoshabin kechinmalarini, muallif fikrini, asar mazmunini sig‘dira olish kerak bo‘ladi. Shu bois qisqa metrajli kino, badiiylik nuqtai nazaridan, kinosan’atining va kinematografik ijodning butkul alohida turi hisoblanadi. Uni ba’zan “kinominiatyura” ham deb atashadi.

Telefilmlar kinostudiyalar, telestudiyalarda televideniyeining o‘ziga xos xususiyatlari (kichik o‘lchami, tasvir aniqligi va boshqalar)ni hisobga olgan holda suratga olinadi.

Havaskorlik filmlari 8 va 16 mm. li eni tor tasmlarda 8 mm. li “Kvars”, “Neva”, “Lada”, 16 mm.li “Kiyev” va boshqa maxsus suratga olish apparatlarida xavaskorlar tomonidan suratga olinib, xona va kichik klublarda namoyish qilingan. Xavaskorlik filmlari ko‘pgina hollarda xronika va televideniyaning qiziqarli xronikal va qisqa metrajli filmlar bilan boyitib turgan. Hozirgi paytda ulardan foydalanilmaydi.¹²

3.6§. KINO JANRLARI

Kino san’ati turlarining janrlari adabiyot ta’siri ostida shakllangan va rivojlangan. Adabiyot janrlari esa ko‘p asrlar mobaynida shaklanib, muayyan belgilar hamda tamoyillarga ega bolishga ulgurgan. Kinosan’atining navqironlik davrida adabiy janrlar badiiy filmlarga o‘tgan va rejissyorlar ularning qonun-qoidalariga qat’iy amal qilganlar. Biroq, kino rivojlana borgan sari janr chegaralari kengayib borgan. Filmning g‘oyasi, mavzui, maqsadini, qahramonlar xarakterini chuqurroq ochib berish uchun badiiy kinoda janrlarning aralashuvi sodir bo‘ladi. Bu hodisa hozirgi zamon kinosida ham odatiy xol bo‘lib, davom etib bormoqda.

Shuhrat Abbosovning mashhur “Mahallada duv-duv gap” filmi o‘laylik. Unda drama unsurlari mavjud. U yoki bu janrning ifoda vositalari bir-biriga ko‘chadi, biroq ular maqsad va qahramon tabiatining birligi bilan yagona asarga aylanadi.

Kinoning barcha turlarida janrlarning boy bo‘lishi kinoijodkorlarning yangi-yangi mavzularni, syujetlarni, hayotiy materiallarni muttasil o‘zlashtirishlari bilan bog‘liqdir.

Kino ijodkor o‘z ssenariysi va film uchun tanlagan janr, ijodkorning materialga bo‘lgan munosabatini ham, uslubini ham

¹²17-боб. Қўшимча маълумотлар. – илова. Кинематография турлари ҳақида қискача маълумот.

talqinini aniq ifodalaydi. Janrda uning dunyoqarashi, badiiy tafakkurinamoyon bo‘ladi. Ssenariy muallifi, rejissyor o‘z asari uchun muayyan janrni tanlashi bu film dramaturgiyasiga asos qilib olingan materialni muayyan tarzda inkishof etishi bu asarning badiiy o‘lchovini belgilamoq. Shunday qilib, janr rejissyorga niyatini amalga oshirish uchun zarur ifoda vositalarini tanlanishini belgilab beradi.

Janrni tanlash-ssenariy muallifining ham, rejissyorning ham ishidagi ma‘suliyatli jihatlardan biridir.

Misol uchun rangtasvirdagi va hujjatli kinodagi portret janrini taqqoslab ko‘raylik. Har ikkala san’atda bu janrda bir inson haqida hikoya qilinadi. Unisida ham, bunisida ham mualliflar ushbu insonning o‘ziga xosligini, betakrorligini ko‘rsatib berishga intiladilar. Lekin bunda rassom ham, kinematografchi ham turli ifoda vositalaridan foydalanaдилар.

Kinodagi janr qotib qolgan narsa emas. Ular rivojlanib, yangilanib boradi, ayrimlari o‘tmishda qolib ketadi. Janr qonunlari badiiy usullar, qoidalar majmuidan iborat. Ular har bir janr uchun zarur, chunki film janrini rivojlantirib yangi qonun-qoidalar bilan boyitadi. Rejissyor o‘z niyatini amalga oshirishda ifodaviy yorqinlikka intilib ba‘zan janr qonunlaridan chetga chiqishi mumkin. Ko‘p hollarda buni rejissyorning shaxsi, o‘ziga xosligi emas, balki filmga tanlangan material taqazo etadi.

Janrlarni bir-biriga aralashib ketishi - bu ularning ifoda vositalari va tamoyillarini filmni yaratishda vujudga keladigan vazifalar bilan bog‘liq ravishda ichki jihatdan qayta joylashtirishdir. Hozirgi zamon kinosida janrlarni aralash holda ishlatilishi odatiy voqeadir. Dramaturgiya, g‘oya, rejissura jiddiy bo‘lganda janrlarning aralash kelishi ijobiy natijalar beradi. Masalan, M. Kalotozovning “Turnalar uchmoqda” filmida

melodramatik syujet tragediyaga yaqinlashib qolgan vizual uzviy birlikda o‘zaro munosabatga kirishadi. Shuning uchun plastik yechim bilan g‘oyat xilma-xil janr vositalari filmga chuqur, boy ma‘no bag‘ishlaydi. Dramaturgiya yetarli darajada pishiq bo‘lganda janrni aniq tanlash, o‘ziga xos ifoda vositalardan foydalanish filmning muvaffaqiyatini belgilab berishi mumkin.

XX asr ikkinchi yarmidagi quyidagi asosiy janrlarni, ularga misol bo‘la oladigan filmlarni ko‘rsatish mumkin:

A) tragediya (fojia): L. Fayziyevning “Ulug‘bek yulduzi”, G. Kozinsevning “Qirol Lir”, D. Kameronning “Titanik” filmlari;

B) drama - SH. Abbosovning “Sen yetim emassan”, E. Eshmuhammedovning “Alvido, g‘o‘r yoshligim...”, B. Flemingning “Shamollarda uchgan hislarim”;

V) komediya- Y. Protazanovning “Nasriddin Buxoroda”, N. G‘aniyevning “Nasriddinning sarguzashtlari”, M. Abzalovning “Kelinlar qo‘zg‘aloni”, “Chimildiq” filmlari;

G) melodrama - Hindistondagi Bombay maktabi filmlari;

D) detektiv - Mels Abzalovning “Sirli sirtmoq” filmi;

YE) sarguzasht - “Xazinalar oroli”, “Dunyo boylab 80 kunda”, “Robinzon Kruzo”

YO) fantastik- “Yulduzli urushlar”, “Godzilla”, “Abdullajon”. Deyarli har bir janr yana bir necha turlarga bo‘linadi. Masalan: komediya- o‘ziga xos belgilarga ega bo‘lgan alohida janr bo‘lib, u *musiqali* (Y. A‘zamovning “Maftuningman”), *maishiy* (SH. Abbosovning “Mahallada duv-duv gap”), *hajviy* (E. Ryazanovning “Garaj”, M. Abzalovning “Ta‘ziyadagi to‘y”) bo‘lishi mumkin.

Vaziyat komediyalari – qahramonlar turli kulgili vaziyatlarga tushadi, xatti-harakatlari, turli qiliqlri biln tomoshabinni kuldirishga harakat qiladi. Bularga CH. Chaplinning ilk ovozsiz

filmlari, S.Eyzenshteynning “Volga-Volga” kinoasari misol bo‘la oladi.

Piroxen komediyalar - kinoning dastlabki - boshlanish paytlarida bunday komediyalar ommalashgan edi. Ularda albatta qahramonlar o‘zaro janjallashgan, yugurib yelgan, bir-birig tortlar otishgan.

Hujjatli va ilmiy-ommabop kinoda portret, ocherk, manzarali film, film-intervyular, ekologik, o‘quv- uslubiy janrlari ommalashgan.

Animatsiya filmlari esa mavjud janrlarning butun boyligini o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lishi mumkin.

Badiiy ijodda bo‘lajak filmning qaysi janrga mansub bo‘lishi alohida muhim ahamiyatga egadir, chunki u aktyorning rol ijro etishdagi uslub va harakat tarzini belgilab beradi.

Film qaysi janrga mansubligining aniqligi uni tomoshabin tomonidan yaxshi idrok etilishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi.¹³

3.7§. DUBLYAJ SAN’ATI

Kinofilmlarni dastlab yaratilgan tildan boshqa tilga tarjima qilish dublyaj deyiladi. Sobiq Ittifoqdosh respublikalarning barcha studiyalarida har yili bir qancha filmlar milliy tillarga dublyaj qilingan. Bundan ko‘zda tutilgan maqsad, Ittifoqdosh respublikalarda yaratilgan yoki chet eldan olib kelingan filmlarni milliy xalq vakillariga o‘z ona tillarida yetkazish bo‘lgan. Bugungi kunda ham jahon kino san’ati durdonalarini, turli teleseriallarni xalqimiz e’tiboriga yetkazishda dublyajning ahamiyati juda katta.

Filmlarni dublyaj qilish mahorati bo‘yicha «O‘zbekfilm» kinostudiyasining dublyaj sexi doim ilg‘orlar qatorida bo‘lgan. Bir paytlr bu studiyada har yili yuzdan ortiq filmlar o‘zbek tiliga yuksak

¹³17-боб. Қўшимча маълумотлар. —илова. Кинематография жанрлари ҳақида қискача маълумот.

saviyada dublyaj qilingan. Bu yerda dublyaj mutaxassislari: muharrirlar, rejissyorlar va ukladkachilar (soʻzlarni lablashtiruvchi)lar xizmat qilishgan.

Hozirgi kunda ovozlashtirish, dublyaj qilish faoliyatida raqamli elektron texnologiyalardan keng foydalanilayotgan boʻlsada, kinotasmadagi filmlarni dublyaj qilish tartibi haqida axborot sifatida quyidagi maʼlumotlarni keltiramiz.

Filmning montaj matni tarjima qilinishidan avval filmni oʻzini tarjimon ekranda bir koʻrib olishi lozim. Chunki u filmdagi monolog va dialoglar qanday vaziyatda, qaysi holatda talaffuz qilinishini, filmning qayerlari katta hamda qayeri oʻrta va kichik koʻrinishlarda suratga olinganini aniq bilishi lozim. Nega deganda qaysi tilga tarjima qilinishidan qatʼi nazar, personajlar harakati, soʻzlash, usul-uslubi asl holatdagidek qolaveradi; Tarjimadagi soʻzlar esa, film qatnashchilarining oʻsha holatlariga, ogʻiz ochib-yumushlariga, aktyor talaffuziga mos tushishi shart. Badiiy asar tarjimasida jumladagi maʼno toʻla aks etishi uchun soʻzlar koʻp yoki kam boʻlishi mumkin. Lekin film tarjimasida soʻzlar koʻpayib ham ketmasligi, kamayib ham qolmasligi, maʼno esa buzilmasligi kerak. Matn tarjimasini bitgandan keyin lablashtiruvchi muharrir har bir soʻzni aktyor talaffuziga solishtirib tahrir qiladi. Bu ancha mushkul, masʼuliyatli ish. Ayniqsa, yirik planda suratga olingan kadrlar tarjimasini aktyor talaffuziga, lablariga tushirish tarjimondan ham, muharrirdan ham sinchkovlik, eʼtibor va qunt bilai mehnat qilishni talab etadi. Baʼzan boshqa tillarda ochiq boʻgʻinda aytiladigan soʻzlar oʻzbek tilida yopiq boʻgʻinda kelishi yoki aksincha boʻlishi mumkin. Shunda soʻzlar muqobilini axtarish, shu holatga va mazmunga mos boshqa soʻzlar topish lozim boʻladi. Lablashtiruvchi muharrir tarjimini oxiriga qadar koʻrib chiqqandan keyin matnni rejissyorga topshiradi.

Film matni tarjima va tahrir qilinayotgan jarayonda rejissyor, avvalo, filmning har bir qismini bir necha o‘n bo‘laklarga bo‘lib, har qaysi bo‘lakning ikki uchini bir-biriga ulab, aylana chambar hosil qiladi. Natijada tasma bo‘laklari ovoz kuchaytirgichda takror va takror aylanaveradi. Bu matn yozish va uni aniqroq anglash uchun rejissyor va muharrirlarga qulaylik yaratadi. So‘ng rollarga aktyorlar tanlanadi. Aktyor tanlash dublyaj rejissyorining eng asosiy va eng mas’uliyatli vazifasi hisoblanadi. Chunki tanlangan aktyorning ovozi ijrochi aktyorning ovozigacha to‘g‘ri kelishi, milliy tillarga dublyaj qilingan filmdagi gap-so‘zlar tomoshabinga xuddi asl nusxadagi aktyor gapirayotganday tuyulishi kerak.

Yuqorida zikr etilgan chambar lenta apparatlarga o‘rnatilib, qayta-qayta namoyish etilaveradi. Aktyor matni o‘zlashtirib bo‘lgandan keyin lentaning ovozi o‘chiriladi. Ovozsiz lenta aylanayotgan paytda aktyor bir-ikki marta gapirib repetitsiya qiladi va so‘ngra ovozi yozdirishga tayyor ekanligini rejissyorga aytadi. Shundan keyin aktyor yoki aktyorlarning ovozi yoziladi. Film oxiriga qadar ish xuddi shu tartibda davom etadi. So‘ngida esa, ovoz operatori bilan rejissyor hamkorlikda aktyorlar ovozi bilan shovqinlarni qo‘shib yozishadi. Shovqin deganda filmda eshitiladigan avtomobil ovozi, shamol guvillashi, dengiz to‘lqini, parranda va hayvonlar ovozi, samolyot, vertolyot ovozlari singarilar ko‘zda tutiladi. Nihoyat, hamma ovoz birgalikda bir tasmaga yozilib, film tasviri ustiga joylashtirilgandan keyin dublyaj tayyor hisoblanadi.

«O‘zbekfilm» kinostudiyasi dublyaj sexi faoliyati e‘tiborga loyiq. Shuning uchun ham bu studiyada dublyaj qilingan filmlarning saviyasi baland, sifati eng zukko tomoshabinning talablariga javob berishi bejiz emas. Bu sexda O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar Ilyos Yoqubov va Sofiya Imonqulova, Erkin Abdullayev,

Sobitjon Saidov, Yo‘ldosh Abdukarimov, Komiljon Usmonov singari mohir, tajribali dublyaj rejissyorlari; Qodir Mirmuhamedov, Tohir Ibrohimov, Ibrohim G‘afurov, Miad Hakimov, Tuyg‘un Valiyev singari tarjimonlar; Yulduz Rizayeva, Sharofatxon Qo‘shboyeva singari lablashtiruvchi muharrirlar o‘zbek dublyaj san’ati rivojiga katta hissa qo‘shganlar. Shu o‘rinda dublyaj sohasining mohir ustalarining ayrim ijod namunalariga ham misol keltiramiz:

O‘zbekiston xalq artisti Vohid Qodirovning rossiyalik aktyor Yevgeniy Leonovga, O‘zbekiston xalq artisti Hamza Umarovning rossiyalik Vladimir Yakovlevga, O‘zbekiston xalq artisti Obid Yunusovning hindistonlik Raj Kapurga, O‘zbekiston xalq artisti Yoqub Ahmedovning rossiyalik V.Etushga, O‘zbekiston xalq artisti Mukambar Rahimovanning rossiyalik Alina Fredlixga, O‘zbekiston xalq artisti Rimma Ahmedovanning hindistonlik Vijantemalaga, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsagan artist Dias Rahmatovning rossiyalik Georgiy Vitssinga ovoz berishdagi ijro mahoratlari dublyaj san’atining eng oliy namunalari sifatida hozirgacha e’tirof etiladi.

Dublyaj qilish – “dubl” – takrorlash so‘zidan olingan. Audiovizul asarlarni tarjima qilish ma’nosini bildiradi. Bunda aktyorlarning chet tildagi gap-so‘zlari tarjima qilinayotgan tildagi gap-so‘zlarga to‘liq almashtiriladi. Natijda asl nusxadagi tilda so‘zlashmaydigan mamlakatlarda bu asarni namoyish qilish imkoni tug‘iladi. Tarjima aktyorlarning mimika, artikulyatsiyalari bilan moslashtiriladi. Dublyaj uchun aktyorlarni tanlaganda asl ovozning xususiyatlari, ya’ni tembri, ingichka-yo‘g‘onligi, ijrochi aktyorning g‘ayrat-shijoati, yoshi albatta inobatga olinadi.

Dublyaj bir necha usullarda amalga oshirilishi mumkin:

1. Har bitta aktyor o‘rniga boshqa shu jinsdagi, taxminan shu yoshdagi aktyor ovoz beradi (gapiradi). Ayrim hollarda bir nechta aktyorga mahorat bilan bitta aktyor ovoz beradi. Buni faqat yuqori malakali mutaxassislargina payqashlari mumkin bo‘ladi.

2. Barcha erkak rollarga bitta erkak, hamma ayol rollarga bitta ayol (kadr ortidan) ovoz beradi.

3. Barcha aktyorlarga bitta: yoki erkak, yohud ayol aktyor (kadr ortidan) ovoz beradi. Bugungi kunda katta ekranlarga chiqariladigan barcha filmlar faqat birinchi usuldagina dublyaj qilinadi. Bu usul boshqa usullardan, subtitrlashtirishdan ko‘ra ancha qimmat bo‘lsada, tomoshabin uchun eng maqbuli hisoblanadi. Dublyaj qilingan filmlar ovozigga qo‘yiladigan eng muhim talab: u barcha akustik qonun-qoidalariga mos, haqiqatga yaqin bo‘lishi kerak. Masalan, agar aktyor vannada bo‘lsa gaplari jaranglab chiqishi, tog‘da hayqirsa, albatta aks-sado bilan eshutilishi kerak.

Kadr ortidagi tarjima (kadr orti ovozashtirish) usulida dublyaj qilingan badiiy, hujjatli, multiplikatsion filmlarda tarjima qilingan nutq asl nusxadagi ovozlar ustiga joylashtiriladi.

Kadr orti dublyaji bitta ovoz bilan (bu usuldan, asosan, noqonuniy, kontrofakt mahsulotlarda, hujjatli filmlarda foydalaniladi) yoki 2-4 kishidan iborat professional aktyorlar guruhi tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Bunday dublyaj, ayniqsa, telekanallarda va katta ekranlarda namoyish etilmaydigan filmlarni ovozashtirishda juda keng qo‘llaniladi.

Hozirgi paytda Xalqaro kinofestivallarda namoyish etiladigan filmlar ovozi asl holida qoldirilib, kadr ostidagi yozuvlar – subtitrlar orqali zarur tilda tarjima qilinishi tartibi joriy etilgan. Bu film yaratilgan mamlakat milliy tilining butun jozibasi, go‘zal

tarovatini tomoshabinga yetkazib, uning taassurotlarini boyitishga xizmat qiladi.

Subtitrlashtirish

Subtitr (fransuz tilidagi “sous-titres” soʻzidan olingan boʻlib, imzolar – podpisi maʼnosini anglatadi) – kino-video asarlarni asl yoki tarjima qilingan tildagi, ijrochilarning gap-soʻzlarini matn yozuvi bilan qoʻshib namoyish etish. Bu asl tilni bilmaganlar uchun film dublyaji vazifasini bajarsa, eshitish qobiliyati cheklangan tomoshabinlar uchun filmni koʻrib, tushunish uchun xizmat qiladi. Subtitrlar, odatda, oʻrta shriftda yozilib, kadr ostida berib boriladi.

Tayanch iboralar.

Oʻzbek soqov kinosi, xorijiy filmlarning birinchi kinonamoyishlari, kinomatografiya, Fotograf va kinooperator Xudoybergan Devonov ijodi, “Turkiston davlat kino” (Turkgoskino)ni vujudga kelishi, “Buxkino” faoliyati, “Sharq yulduzi” kinofabrikasi faoliyati, Oʻzbekfilm faoliyati, Nabi Gʻaniyev, Sulaymon Xoʻjayev, Ergash Hamrayev, Komil Yormatov, Yoʻldosh Agʻzamov, Raxim Pirmuhamedov, Malik Qayumovlarning hayoti va ijodi, ovozsiz filmlar, ovozli filmlarning yaratilishi, “Qasam” birinchi oʻzbek ovozli filmi.

Mavzuni mustakamlash uchun savollar

1. Adabiy janrlarning kino sanʼtiga ham oʻtganligi nima bilan izohlanadi?
2. Oʻzbek soqov kinosi haqida maʼlumot bering?
3. Kinomatografiya deganda nimani tushunasiz?
4. “Turkiston davlat kino” va “Buxkino” faoliyati haqida maʼlumot bering?

ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori

Mamlakatimiz kino san‘ati bir asrdan ziyod tarixga ega bo‘lib, o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. Bu davr mobaynida o‘zbek kinosining poydevori yaratilib, u xalqimizning madaniy-ma‘naviy hayotida muhim o‘rin egalladi. Mustaqillik yillarida milliy kinematografiya rivojiga davlatimiz tomonidan qaratilayotgan katta e‘tibor natijasida sohada muayyan yutuqlarga erishildi. Mazmun va shakl jihatidan rang-barang kino asarlar yaratilib, ular tomoshabinlar e‘tiborini qozondi. Ayni vaqtda bugun jahonda kechayotgan globallashuv jarayonlari, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashning ustuvor vazifalari barcha soha va tarmoqlar qatorida kino san‘ati faoliyatini ham takomillashtirish, soha rivoji uchun yangi imkoniyatlar yaratishni talab etmoqda.

Qayd etish kerakki, kinematografiya sohasida normativ-huquqiy bazaning mukammal emasligi, kino ishlab chiqaradigan yetakchi korxonalar, jumladan “O‘zbekfilm”, “Qoraqalpoqfilm” hamda “Ilmiy-ommabop va hujjatli filmlar” kinostudiyalarining moddiy-texnika bazasi jismoniy va ma‘naviy jihatdan eskirgani, kinofilmlarni moliyalashtirish tizimining bugungi kun talablariga javob bermasligi, kinoteatrlar va malakali kadrlar yetishmasligi soha rivojiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarga asoslanib, xalqimiz, avvalo, yoshlar ongiga milliy istiqlol g‘oyalariga sadoqat, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat, ona Vatanga muhabbat tuyg‘ularini singdirishda katta ta‘sir kuchiga ega bo‘lgan kino

san'atining rolini oshirish, "O'zbekkino" Milliy agentligining faoliyatini takomillashtirish maqsadida:

1. Quyidagilar: Milliy kinematografiyani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturini amalga oshirish bo'yicha Respublika komissiyasi tarkibi 1-ilovaga muvofiq; Milliy kinematografiyani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi 2- ilovaga muvofiq; "O'zbekkino" Milliy agentligi markaziy apparatining tuzilmasi 3-ilovaga muvofiq; "O'zbekkino" Milliy agentligining "Qoraqalpoqkino" agentligi hamda viloyatlar va Toshkent shahar bo'limlarining namunaviy tuzilmalari 4- va 5- ilovalarga muvofiq; "Respublika kinofondi" davlat unitar korxonasi tuzilmasi 6- ilovaga muvofiq tasdiqlansin. "O'zbekkino" Milliy agentligi qoshida O'zbekiston kino arboblari ijodiy uyushmasi yuridik shaxs sifatida tashkil etilsin va uning tuzilmasi 7- ilovaga muvofiq tasdiqlansin. "O'zbekkino" Milliy agentligi Bosh direktoriga, zarur hollarda, "O'zbekkino" Milliy agentligining markaziy apparati, tizim tashkilotlari hamda "Qoraqalpoqkino" agentligi, viloyatlar va Toshkent shahar bo'limlari tuzilmasiga xodimlarning tasdiqlangan cheklangan umumiy soni doirasida o'zgartirishlar kiritish huquqi berilsin.

2. "O'zbekkino" Milliy agentligi uchun davlat buyurtmasiga asosan milliy kino mahsulotlarini yaratish yillik ishlab chiqarish hajmlarining quyidagi prognoz ko'rsatkichlari belgilansin: 2018 yilda – 20 ta, 2020 yildan boshlab – 30 tadan to'liq metrajli badiiy filmlar ishlab chiqarish; 2018 yilda – 40 qismdan iborat 20 ta, 2019 yilda – 50 qismdan iborat 25 ta va 2020 yildan boshlab – 60 qismdan iborat 30 ta hujjatli, ilmiy-ommabop, o'quv-uslubiy filmlar, kinosolnomalar, kinojurnallar ishlab

orqali ilmiy kashfiyotlar, ixtirolar, haqiqatlar, farzlar ommalashtiriladi. chiqarish; multiplikatsion filmlarni 2018 yilda 15 ta, 2022 yildan boshlab har yili 50 tadan ishlab chiqarish; yosh kino ijodkorlarning 10 soatdan iborat qisqa metrajli filmlari, bolalar uchun yumoristik kinojurnallar suratga olish; davlat buyurtmasi asosida ishlab chiqarilgan filmlarni jahon bozoriga chiqarish va festivallarda namoyish etish uchun chet tillarga subtitrlashtirish va dublyaj qilish; milliy kinematografiyaning eng sara asarlarini tiklash, restavratsiya qilish va zamonaviy formatga o‘tkazish.

3. Milliy kinematografiya san’atini zamon talablari asosida rivojlantirish, yosh kino ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida “O‘zbekkino” Milliy agentligi huzurida Milliy kinematografiyani rivojlantirish jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda Jamg‘arma deb ataladi) tashkil etilsin va uning mablag‘larini shakllantirishning manbalari etib quyidagilar belgilansin: davlat buyurtmasi va Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan ishlab chiqarilgan filmlarning kinoprokatidan tushadigan mablag‘lar; davlat buyurtmasi va Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan ishlab chiqarilgan filmlarni namoyish etish mobaynida joylashtiriladigan tijorat e’lonlaridan tushadigan mablag‘larning 10 (o‘n) foiziga teng miqdordagi majburiy ajratmalar; Jamg‘armaning vaqtincha bo‘sh mablag‘larini qonun hujjatlariga muvofiq bank depozitlari shaklida va boshqa shakllarda joylashtirishdan tushadigan daromadlar; “O‘zbekkino” Milliy agentligi tomonidan kino va boshqa madaniy-ijtimoiy tadbirlarni tashkil etish hamda o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyatidan olinadigan daromadlar; yuridik va jismoniy shaxslarning, shuningdek, xalqaro tashkilotlarning homiylik

xayriyalari hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

4. “O‘zbekkino” Milliy agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi hamda O‘zbekiston yoshlar ittifoqining kinofilmlar namoyishini samarali tashkil etish, aholi, ayniqsa yoshlarga madaniy xizmat ko‘rsatish uchun sharoit yaratish maqsadida mamlakatimizdagi mavjud yoshlar markazlari, madaniyat va aholi dam olish markazlari, litsey va kollejlarning binolaridan foydalangan holda, “O‘zbekkino” Milliy agentligi huzurida Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda tarkibida kichik kinostudiyalari va zamonaviy formatdagi kinozallari bo‘lgan mintaqaviy madaniy-ko‘ngilochar komplekslar (keyingi o‘rinlarda komplekslar deb ataladi) tashkil etish to‘g‘risidagi taklifi qabul qilinsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi va “O‘zshaharsozlik LITI” davlat unitar korxonasi 2018 yil 1 yanvargacha “O‘zbekkino” Milliy agentligining texnik topshirig‘i va xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribasini har tomonlama o‘rganish asosida komplekslarning namunaviy loyihasini ishlab chiqsin, uning maydonlarida zamonaviy kinozallarni (2-qavat), shuningdek, savdo-ko‘ngilochar obyektlarni (1-qavat) joylashtirishni nazarda tutsin.

6. “O‘zbekkino” Milliy agentligi O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Yozuvchilar uyushmasi, Tashqi ishlar vazirligi bilan birgalikda: Kinematografiya sohasida kadrlarni qayta tayyorlash maqsadida “O‘zbekkino” Milliy agentligi qoshida atoqli kino ijodkorlar dars beradigan malaka oshirish kurslarini va “Mahorat maktablari”ni tashkil etish; Mamlakatimizning yosh, iste’dodli va istiqbolli kino ijodkorlari malakasini oshirish maqsadida ularning tegishli

yetakchi xorijiy ta'lim muassasalarida muntazam ravishda tahsil olishiga zarur shart-sharoitlar yaratish yuzasidan 2018 yilning 1 yanvariga qadar Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritsin. Belgilab quyilsinki, mazkur bandda ko'rsatilgan chora-tadbirlar Jamg'arma mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

7. "O'zbekkino" Milliy agentligining faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida: "Qoraqalpoqkino" agentligi, viloyatlar va Toshkent shahar hududiy bo'limlarini 1 tadan "Damas" rusumli avtomashina bilan ta'minlash; "Qoraqalpoqkino" agentligi va viloyatlar hududiy bo'limlariga byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan saqlanadigan 4 tadan qo'shimcha shtat birligi ajratish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

8. Belgilab qo'yilsinki: "O'zbekkino" Milliy agentligining markaziy apparati, "Qoraqalpoqkino" agentligi va hududiy bo'limlarini saqlash, shuningdek, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bilan bog'liq xarajatlar O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qoplanadi; O'zbekiston kino arboblari ijodiy uyushmasini saqlash xarajatlari Jamg'arma mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi; milliy kino mahsulotlarini yaratishning belgilangan yillik ishlab chiqarish hajmlarining prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va Jamg'arma mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi.

9. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi: "O'zbekkino" Milliy agentligi markaziy apparatiga 3 ta shaxsan birlashtirilgan va 1 ta navbatchi xizmat avtotransportini saqlash uchun limit ajratsin; "Respublika kinofondi" davlat unitar korxonasining faoliyatini, 2020 yil 1 yanvardan boshlab o'zini o'zi moliyalashtirishga o'tish sharti bilan, O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining parametrlarida ijtimoiy sohaga nazarda

tutilgan mablag‘lar doirasida moliyalashtirilishini ta‘minlasin; O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining 2017 yilgi parametrlari doirasida “Qoraqalpoq kino” agentligi, viloyatlar Toshkent shahar hududiy bo‘limlarini 1 tadan “Damas” rusumli avtomashina bilan ta‘minlash uchun zarur mablag‘larni “O‘zbek kino” Milliy agentligiga ajratsin.

10. “O‘zbek kino” Milliy agentligi: Adliya vazirligi bilan birgalikda davlat unitar korxonalar shaklida tashkil etiladigan mintaqaviy madaniy-ko‘ngilochar komplekslar to‘g‘risidagi Nizomni uch oy muddatda ishlab chiqsin va Vazirlar Mahkamasiga kiritsin; davlat buyurtmasi asosida ishlab chiqariladigan kinofilmlarning g‘oyaviy-badiiy saviyasi, mazmun-mohiyati hamda professional darajasini oshirish maqsadida soha namoyandalari, tajribali yetuk mutaxassislardan iborat Badiiy kengash tarkibini shakllantirib, uning Nizomini ishlab chiqsin hamda mutasaddi vazirlik va idoralar bilan kelishilgan holda ikki oy muddatda tasdiqlasin.

11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi uch oy muddatda: mazkur qaror ijrosini ta‘minlashga qaratilgan, shu jumladan, O‘zbekiston kino arboblari ijodiy uyushmasi va Milliy kinematografiyani rivojlantirish jamg‘armasi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlashni nazarda tutuvchi hukumat qarorini qabul qilsin;

12. “O‘zbek kino” Milliy agentligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda: qonun hujjatlariga mazkur qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin; o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarini ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

13. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchisi X.M.Sultonov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti Shavkat Mirziyoyev
Toshkent shahri, 2017 yil 7 avgust

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI
MILLIY KINOINDUSTRIYANI RIVOJLANTIRISH
BO‘YICHA QO‘SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR
TO‘G‘RISIDA

Mahalliy kino sanoati milliy madaniyat va san’atni rivojlantirishga, yoshlarni sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga, keksa avlodga hurmat-ehtirom ko‘rsatishga bebaho hissa qo‘shmoqda. Kino inson bilimini orttirishda muhim rol o‘ynaydi, uning boy mazmuni esa aholining bilimdonlik darajasiga bevosita ta’sir qiladi.

Shu bilan birga, mazkur sohadagi ishlarning haqiqiy holati milliy kino sanoatining jadal rivojlanishiga, kino bozorida raqobatbardoshligini oshirishga, uni xorijda targ‘ib qilishga to‘sqinlik qiladigan bir qator hal etilmagan muammolar mavjudligidan dalolat bermoqda. Xususan:

birinchidan, ishlab chiqilayotgan kino mahsulotlarining mafkuraviy-badiiy darajasining pastligi, ssenariynavislik, rejissyorlik va aktyorlik ishlarining lozim darajada sifatli emasligi, yoshlar uchun ma’naviy namuna bo‘lib xizmat qiladigan badiiy obrazlarning ko‘pincha mavjud emasligi yosh avlodni jasorat va qat’iyatlilik ruhida tarbiyalash, yot «ommaviy madaniyat»ga qarshi kurashish kabi milliy kinematografiyaning asosiy maqsadlarini amalga oshirish imkonini bermayapti;

ikkinchidan, kino mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha davlat buyurtmasini berish yuzasidan shakllangan amaliyot

qo'llanilayotgan tartib-taomillarning ochiqligi va shaffofligini, byudjet mablag'laridan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlamayapti, shuningdek, kinematografiya sohasida sog'lom raqobat muhitini rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda;

uchinchidan, kino sanoati sohasiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish strategiyasining, ishlab chiqilayotgan kino mahsulotlarining o'zini qoplay olishi va daromad keltirishiga qaratilgan zamonaviy marketing tadqiqotlari va aniq maqsadli kino ishlab chiqarish dasturlarining mavjud emasligi milliy kinematografiyaning yuqori zarar bilan ishlashiga sabab bo'ldi;

to'rtinchidan, kinoprokat va respublika bo'ylab kino mahsulotlarini yetkazib berish samarasiz tizimining mavjudligi, ishlab chiqarilgan kino mahsulotlarining yetarli darajada targ'ib qilinmasligi sababli aholining sust xabardorligi kinoprokatchilar daromadlariga, kinokompaniyalarning ijodiy va ishlab chiqarish xodimlarini moddiy rag'batlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatdi, shuningdek, kinoteatrlar tarmog'i faoliyatining tugatilishiga olib keldi;

beshinchidan, davlat buyurtmasi bo'yicha ishlab chiqariladigan kino mahsulotlariga ajratiladigan mablag'larning yetarli emasligi, kino ishlab chiqaruvchilarni soliqqa tortish tizimining samarasizligi va yuqori soliq yuki kino sanoati sohasining daromadlilikini cheklamoqda va kinematografiyaning umumjahon rivojlanish tendensiyalariga muvofiq ilg'or innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirmayapti;

oltinchidan, kino sohasida kadrlarni tayyorlash tizimi zamonaviy talablarga javob bermaydi, ixtisoslashtirilgan, shu jumladan xorijiy davlatlarning oliy o'quv yurtlarida talab yuqori bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash, kino san'ati vakillarini qayta

tayyorlash va ularning malakasini oshirish ishlari tashkil etilmagan;

yettinchidan, mualliflik huquqi obyektlarini, shu jumladan kino mahsulotlarining noqonuniy tarqatilishini aniqlash va oldini olish, ular bilan ruxsatsiz foydalanishdan ishonchli himoya qilish, o'g'rincha ko'chirib olishga qarshi kurashishning aniq mexanizmlari mavjud emasligi kino mahsulotlarining asl nusxalarini yuqori darajada noqonuniy aylanishiga va mamlakatning kinokompaniyalari hamda kinoteatrlariga sezilarli zarar yetkazilishiga olib kelmoqda;

sakkizinchidan, mahalliy sara kinolentalarni jahonga mashhur xalqaro kinofestivallarga taqdim etish, shu jumladan ularda ishtirok etish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmayapti, madaniy o'zaro almashinuv darajasining pastligi esa milliy kinematografiyani xorijda faol targ'ib qilinishiga va uning jahon kino maydoniga qo'shilishiga imkon bermayapti.

Mamlakatda kino sanoatini yanada rivojlantirish, kinokompaniyalarni tanlab olishning shaffofligini ta'minlash, kinematografiya sohasida malakali mutaxassislarni tayyorlash, zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini oshirish, shuningdek, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida:

1. «O'zbekkino» Milliy agentligi (keyingi o'rinlarda «O'zbekkino» MA deb yuritiladi), O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Adliya vazirligi, Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi hamda «O'zbekfilm» AJ aksiyadorlarining:

«O'zbekfilm» aksiyadorlik jamiyatini jamiyat tarkibidan chiqib ketadigan aksiyadorlar bilan qonun hujjatlarida o'rnatilgan

tartibda hisob-kitobni amalga oshirgan holda «O‘zbekfilm» davlat unitar korxonasi etib qayta tashkil etish;

«Hujjatli filmlar kinostudiyasi» davlat unitar korxonasini mamlakatda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlarini va davlat va jamiyat hayotidagi eng muhim sohalarda erishilgan yutuqlarni tasvirga olish va ularni keyinchalik arxivlashtirish bo‘yicha vazifalarni yuklagan holda «Hujjatli va xronikal filmlar kinostudiyasi» davlat unitar korxonasi sifatida qayta nomlash;

«O‘zbekkino» MAning hududiy bo‘linmalari negizida ularning shtatlar birliklarini, bino va boshqa moddiy-texnika bazasi, shuningdek, 2020 yilning 1 yanvariga qadar muddatda amaldagi moliyalashtirish manbalarini saqlagan holda «Respublika kinoprokat markazi» davlat unitar korxonasining filiallarini tashkil etish;

«O‘zbekiston kinoarboblari ijodiy uyushmasi» davlat muassasasini uning balansida bo‘lgan mol-mulk va boshqa moddiy-texnik qimmatliklarni (ko‘chmas mulkni bepul foydalanishga) topshirish orqali nodavlat notijorat tashkiloti sifatida qayta tashkil etish to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berilsin.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bir oy muddatda yangi tashkil etilayotgan nodavlat notijorat tashkilotini davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini ta’minlasin, uning ustav organlarini shakllantirishda zaruriy amaliy yordam ko‘rsatsin.

2. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga ko‘ra:

2019 yilning 1 yanvaridan boshlab, «O‘zbekkino» MA Badiiy kengashi tomonidan davlat buyurtmasi asosida suratga olinadigan kino mahsulotlarning yillik tematik rejasi yuzaga kelayotgan vaziyat, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalarda amalga oshirilayotgan

yangilanishlar, shuningdek, aholining mazmunli kinofilmlarga boʻlgan real ehtiyojidan kelib chiqib shakllantiriladi;

ishlab chiqariladigan badiiy filmlarni davlat buyurtmasi boʻyicha ishlab chiqariladigan badiiy filmlarning yillik hajmiga nisbatan foizda janrlar boʻyicha kvotalash tizimi joriy etiladi;

2019 yil 1 yanvardan boshlab, mulkchilik shaklidan qatʼi nazar, mamlakatdagi barcha kinoteatrlarda namoyish etiladigan mahalliy badiiy filmlar namoyishi hajmlarini — sutkada ikkitadan kam boʻlmagan shu kabi toʻliq metrajli filmlar bilan, 2021 yil 1 yanvardan esa oylik ekran vaqtining 25 foizidan kam boʻlmagan, bayram kunlari 40 foizdan kam boʻlmagan miqdorda kvotalash tizimi joriy etiladi;

davlat buyurtmasi boʻyicha ishlab chiqariladigan badiiy filmlarning smeta xarajatlarida koʻrsatilgan mablagʻning 10 foizi faqatgina ularning reklamasi va televideniye, radio va Internet tarmoqlaridagi piar-kompaniyasiga, shuningdek, tashqi reklamasini joylashtirish uchun foydalaniladi;

davlat buyurtmasi boʻyicha kino mahsulotlarini Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasi tizimidagi teleradiokanallarda reklama qilish, milliy teleradiokompaniya telekanallarida namoyish qilishda «Oʻzbekkino» MAning shaxsiy koni mahsulotlari uchun mualliflik va mulkiy huquqlariga rioya qilgan holda, imtiyozli shartlarda amalga oshiriladi;

kinokompaniyalarning, mulkchilik shaklidan qatʼi nazar, davlat buyurtmasi boʻyicha kino mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi ishtiroki faqat «Oʻzbekkino» MA tomonidan qonun hujjatlariga asosan tashkil etiladigan tanlov asosida amalga oshiriladi;

«Oʻzbekkino» MA Badiiy kengashi tarkibi prodyuserlar, adiblar, tarixchilar, kinooperatorlar, rejissyorlar, kinoprokatchilar,

kinotanqidchilar, psixologlar, kinematografiya sohasidagi nodavlat tashkilotlar vakillari va boshqa mutaxassislardan shakllantiriladi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda «O‘zbekkino» MA tomonidan tasdiqlanadi;

«O‘zbekkino» MA Badiiy kengashi tarkibiga, Kengash tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo‘lgan shaxslarning kirishiga va ularning tanlovda ishtirok etishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

«O‘zbekkino» MA Badiiy kengashi tomonidan davlat buyurtmasi bo‘yicha kino mahsulotni ishlab chiqarishning har bir bosqichi yakunida tayyor mahsulotning rejissyorlik ssenariysiga, xarajatlar smetasi parametrlariga, suratga olish jarayonining texnik va texnologik talablariga mosligi hamda kino mahsulot yaratish to‘g‘risidagi shartnomada o‘rnatilgan boshqa talablarga rioya etilishi yuzasidan baholash amalga oshiriladi, so‘ngra ushbu kino mahsulot (uning qismlari) qabul qilinadi.

«O‘zbekkino» MA O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi, Moliya vazirligi, Adliya vazirligi va boshqa manfaatdor idoralar bilan birgalikda 2018 yil 1 oktabrga qadar muddatda davlat buyurtmasi bo‘yicha ishlab chiqariladigan kino mahsulotlari uchun konkurs tashkil etish va uni o‘tkazish tartibi, shu jumladan konkursda qatnashadigan kinokompaniyalar uchun talablarni nazarda tutuvchi hukumat qarori loyahasini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 avgustdagi PQ-3176-son qarori bilan tashkil etilgan Milliy kinematografiyani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturini amalga oshirish bo‘yicha Respublika komissiyasining:

2019/2020 o‘quv yilidan boshlab O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining iqtidorli bitiruvchilarini hamda institutda «Ijro etuvchi prodyuser» va «Kinorejissura va kinodramaturgiya» yo‘nalishlari bo‘yicha dastlabki saralashdan o‘tgan bakalavr darajasiga ega milliy kinematografiya sohasining mutaxassislarini S.A. Gerasimov nomidagi Butunrossiya kinematografiya davlat instituti (keyingi o‘rinlarda — BKDI) qoshidagi «Kino va televideniye»ning oliy kurslariga o‘qishga yuborish;

2019/2020 o‘quv yilidan boshlab O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti bakalavriatining ixtisoslashgan yo‘nalishlari iqtidorli bitiruvchilari uchun BKDI assistentura-stajirovkasida «Ijro etuvchi prodyuser», «Dramaturgiya» va «Audiovizual san’at rejissurasi» mutaxassislilari bo‘yicha o‘qishlarni tashkil etish;

2020/2021 o‘quv yilidan boshlab Toshkent shahrida kinematografiya sohasining malakali kadrlarini tayyorlash bo‘yicha BKDI filialini (qo‘shma fakultetini) ochish, o‘qituvchilik faoliyatiga BKDI yuqori kurslarida va assistentura-stajirovkasida avval tayyorgarlikdan o‘tgan mutaxassislarni, shuningdek, master-klasslar o‘tkazish uchun institut professor-o‘qituvchilarini jalb qilish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

4. «O‘zbekkino» MA O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Madaniyat vazirligi va Tashqi ishlar vazirligi bilan birgalikda 2018 yil 1 dekabrga qadar bo‘lgan muddatda BKDI yuqori kurslarida va assistentura-stajirovkasida O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti bitiruvchilari hamda respublika mutaxassislari o‘qishini tashkil etish, shuningdek, Toshkent shahrida institut filialini (qo‘shma fakultetini) ochish bo‘yicha BKDI rahbariyati bilan muzokaralar o‘tkazsin.

Belgilansinki:

BKDI yuqori kurslarida va assistentura-stajirovkasida o‘qishga yuboriladigan shaxslar soni «O‘zbekkino» MA tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan birgalikda tegishli soha mutaxassislariga bo‘lgan ehtiyojdan kelib chiqqan holda belgilanadi va Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi;

BKDI yuqori kurslarida va assistentura-stajirovkasida o‘qish bilan bog‘liq xarajatlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo‘yicha «El-yurt umidi» jamg‘armasi tomonidan markazga ushbu maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar doirasida moliyalashtiriladi;

(4-bandning to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 maydagi PF-5733-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.05.2019 y., 06/19/5733/3216-son)

BKDI oliy kurslarida va assistentura-stajirovkasida o‘qish uchun saralashdan muvaffaqiyatli o‘tgan nomzodlar bilan shartnomalar tuziladi. Shartnomalarda nomzodlarning O‘zbekiston Respublikasi hududida, shu jumladan O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida hamda BKDIning Toshkent shahrida tashkil etiladigan filialida (qo‘shma fakultetida) kamida uch yil muddatda mehnat faoliyatini amalga oshirish majburiyati belgilab qo‘yiladi.

5. Quyidagilar asosiy vazifalari etib belgilangan «O‘zbekkino» milliy agentligi huzurida Kinoindustriya sohasi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi (keyingi o‘rinlarda — Markaz) tashkil etilsin:

kinointustriya sohasining, mulkchilik shaklidan qat’i nazar kinokompaniyalarning ijodiy-ishlab chiqarish, texnik va boshqa

xodimlarini shartnoma asosida rejissura, prodyuserlik, aktyorlik mahorati, kinooperatorlik, animatsiya va boshqa yoʻnalishlar boʻyicha qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish;

nazariy jihatdan tayyorlashni amaliy ishlar bilan integratsiya qilish, kinoindustriya sohasida tajribaga ega malakali oʻqituvchilar va mutaxassislarni, shuningdek, xorijiy ekspertlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlariga jalb qilish;

metodik va axborot bazasini yaratish, yaxshilash, doimiy yangilab borish, kinoindustriya sohasi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish boʻyicha zarur oʻquv qoʻllanmalari hamda tavsiyalarini ishlab chiqish;

kinoindustriya sohasi xodimlarini xorijiy kinokompaniyalarda qayta tayyorlanishi va ularning malakasi oshirilishini tashkil etish, chet ellik hamkorlar bilan yaqin aloqalarni yoʻlga qoʻyish.

Belgilab qoʻyilsinki:

Markaz davlat unitar korxonasi shaklida tashkil etiladi;

Markaz kinoindustriya sohasining, mulkchilik shaklidan qatʼi nazar kinokompaniyalarning ijodiy-ishlab chiqarish, texnik va boshqa xodimlarini oʻqitish uchun olinadigan mablagʻlari, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi;

Markazga «Oʻzbekkino» MA bosh direktori tomonidan lavozimga tayinlanadigan va egallab turgan lavozimdan ozod etiladigan direktor rahbarlik qiladi.

6. Quyidagilar:

«Oʻzbekkino» Milliy agentligi huzuridagi Kinoindustriya sohasi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi tuzilmasi 1-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasida kinoindustriyani yanada takomillashtirish «Yo‘l xaritasi» 2-ilovaga muvofiq;

«Uchta shahar», «101» va «Qahramonlar» loyihalarini amalga oshirish «Yo‘l xaritasi» 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

«Uchta shahar» loyahasini amalga oshirish doirasida kompleks tashkiliy-texnik va huquqiy masalalarning sifatli hamda o‘z vaqtida hal etilishi uchun:

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari — O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasining raisi S.R. Xolmurodov — «Xalq diplomatiyasi shahri» majmui qismi yuzasidan;

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari A.A. Abduhakimov — «Etnoshahar» majmui qismi yuzasidan;

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari — «O‘zbekneftgaz» AJ boshqaruvining raisi A.S. Sultonov — «Kinoshahar» majmui qismi yuzasidan shaxsan javobgar ekanligi belgilab qo‘yilsin.

7. «O‘zbekkino» MA O‘zbekiston yoshlar ittifoqi, O‘zbekiston kinematografiyasini rivojlantirish markazi, O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, Madaniyat vazirligi va Moliya vazirligi bilan birgalikda har yili eng yaxshi mahalliy kino mahsulotlarini Kann, Berlin, Venetsiya, Rotterdam, Pusan, Moskva va boshqa mashhur xalqaro kinofestivallarda, shuningdek, jahonning yirik nufuzli kinobozorlarida namoyish etilishini ta’minlasin.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi «O‘zbekkino» MAning asoslantirilgan hisob-kitoblari bo‘yicha xalqaro kinofestivallar va kinobozorlarda mahalliy kino mahsulotlarini namoyish etish bilan bog‘liq xarajatlarni moliyalashtirish uchun «O‘zbekkino» milliy agentligi huzuridagi Milliy

kinematografiyani rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini hisobga olgan holda byudjet mablag'larini ajratsin.

8. 2018 yil 1 avgustdan boshlab «O'zbekkino» MA markaziy apparatining xodimlariga ularning mehnatiga haq to'lash oylik jamg'armasining 100 foizi miqdorida O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan to'lanadigan shaxsiy ustama belgilansin.

9. 2020 yil 1 yanvargacha bo'lgan muddatga:

kino mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularning prokati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar barcha turdagi soliqlar va majburiy ajratmalar to'lashdan, bundan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga ajratmalar mustasno, shuningdek, o'rnatilgan tartibda shakllantiriladigan ro'yxat bo'yicha olib kiriladigan kino ishlab chiqarish va kino namoyish etish uskunalari uchun bojxona to'lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruv yig'imidan tashqari);

«O'zbekkino» MA o'rnatilgan tartibda shakllantiriladigan ro'yxat bo'yicha «O'zbekfilm», «Hujjatli va xronikal filmlar kinostudiyasi», «Respublika kinofondi», «Respublika kinoprokat markazi», «Multiplikatsion filmlar studiyasi» davlat unitar korxonalarini qayta qurish va jihozlash doirasida olib kiriladigan kino ishlab chiqarish hamda kino namoyish etish uskunalari uchun bojxona to'lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruv yig'imidan tashqari) ozod etilsin.

10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi mazkur qaror talablari, shuningdek, kinoindustriya sohasidagi boshqa ustuvor vazifalarni hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoniga:

a) 2018 yil 1 avgustga qadar kinematografiya sohasida talab yuqori bo'lgan kadrlarni (kinodramaturg, kinorejissyor,

kinoprodyuser va boshqalar) tayyorlovchi yangi fakultet ochishni nazarda tutgan holda O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasini;

b) 2018 yil 1 noyabrga qadar:

«Kinematografiya to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini;

O‘zbekiston Respublikasi hududida xorijiy kinokompaniyalar tomonidan badiiy filmlarni kinoga, videoga tushurishdagi tartib-taomillar va talablarni yanada soddalashtirishga doir takliflarni kiritsin.

11. O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag‘lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 6 apreldagi 272-son qarorining 4-bandida ko‘rsatilgan yagona kinoprokat elektron tarmog‘ini ishlab chiqish, kinoteatrlarni optik tolali aloqa liniyasi orqali kinoprokat tarmog‘iga bosqichma-bosqich ulash, kinoteatrlarda elektron kinochiptalarning tezkor hisobini yuritish avtomatlashtirilgan tizimini joriy qilish bo‘yicha ishlarni moliyalashtirish manbalari etib belgilansin.

12. «O‘zbekkino» MA Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Chilonzor ko‘chasi, 1a-uy manziliga joylashtirilsin.

13. «O‘zbekkino» MA Adliya vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

14. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchisi X.M. Sultonov, O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokurori O.B. Murodov va

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchisining birinchi o‘rinbosari B.M. Mavlonov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2018 yil 24 iyul,
PQ-3880-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori

Mamlakatimiz kino san’ati bir asrdan ziyod tarixga ega bo‘lib, o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. Bu davr mobaynida o‘zbek kinosining poydevori yaratilib, u xalqimizning madaniy-ma’naviy hayotida muhim o‘rin egalladi. Mustaqillik yillarida milliy kinematografiya rivojiga davlatimiz tomonidan qaratilayotgan katta e’tibor natijasida sohada muayyan yutuqlarga erishildi. Mazmun va shakl jihatidan rang-barang kino asarlar yaratilib, ular tomoshabinlar e’tiborini qozondi. Ayni vaqtda bugun jahonda kechayotgan globallashuv jarayonlari, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashning ustuvor vazifalari barcha soha va tarmoqlar qatorida kino san’ati faoliyatini ham takomillashtirish, soha rivoji uchun yangi imkoniyatlar yaratishni talab etmoqda. Qayd etish kerakki, kinematografiya sohasida normativ-huquqiy bazaning mukammal emasligi, kino ishlab chiqaradigan yetakchi korxonalar, jumladan “O‘zbekfilm”, “Qoraqalpoqfilm” hamda “Ilmiy-ommabop va hujjatli filmlar” kinostudiyalarining moddiy-texnika bazasi jismoniy va ma’naviy jihatdan eskirgani, kinofilmlarni moliyalashtirish tizimining bugungi kun talablariga javob bermasligi, kinoteatrlar va malakali kadrlar yetishmasligi soha rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarga asoslanib, xalqimiz, avvalo, yoshlar ongiga milliy istiqlol g‘oyalariga sadoqat, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat, ona Vatanga muhabbat tuyg‘ularini singdirishda katta ta’sir kuchiga ega bo‘lgan kino san’atining rolini oshirish, “O‘zbekkino” Milliy agentligining faoliyatini takomillashtirish maqsadida:

1. Quyidagilar: Milliy kinematografiyani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturini amalga oshirish bo‘yicha Respublika komissiyasi tarkibi 1-ilovaga muvofiq; Milliy kinematografiyani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi 2- ilovaga muvofiq; “O‘zbekkino” Milliy agentligi markaziy apparatining tuzilmasi 3-ilovaga muvofiq; “O‘zbekkino” Milliy agentligining “Qoraqalpoqkino” agentligi hamda viloyatlar va Toshkent shahar bo‘limlarining namunaviy tuzilmalari 4- va 5- ilovalarga muvofiq; “Respublika kinofondi” davlat unitar korxonasi tuzilmasi 6- ilovaga muvofiq tasdiqlansin. “O‘zbekkino” Milliy agentligi qoshida O‘zbekiston kino arboblari ijodiy uyushmasi yuridik shaxs sifatida tashkil etilsin va uning tuzilmasi 7- ilovaga muvofiq tasdiqlansin. “O‘zbekkino” Milliy agentligi Bosh direktoriga, zarur hollarda, “O‘zbekkino” Milliy agentligining markaziy apparati, tizim tashkilotlari hamda “Qoraqalpoqkino” agentligi, viloyatlar va Toshkent shahar bo‘limlari tuzilmasiga xodimlarning tasdiqlangan cheklangan umumiy soni doirasida o‘zgartirishlar kiritish huquqi berilsin.

2. “O‘zbekkino” Milliy agentligi uchun davlat buyurtmasiga asosan milliy kino mahsulotlarini yaratish yillik ishlab chiqarish hajmlarining quyidagi prognoz ko‘rsatkichlari belgilansin: 2018

yilda – 20 ta, 2020 yildan boshlab – 30 tadan to‘liq metrajli badiiy filmlar ishlab chiqarish; 2018 yilda – 40 qismdan iborat 20 ta, 2019 yilda – 50 qismdan iborat 25 ta va 2020 yildan boshlab – 60 qismdan iborat 30 ta hujjatli, ilmiy-ommabop, o‘quv-uslubiy filmlar, kinosolnomalar, kinojurnallar ishlab chiqarish; multiplikatsion filmlarni 2018 yilda 15 ta, 2022 yildan boshlab har yili 50 tadan ishlab chiqarish; yosh kino ijodkorlarning 10 soatdan iborat qisqa metrajli filmlari, bolalar uchun yumoristik kinojurnallar suratga olish; davlat buyurtmasi asosida ishlab chiqarilgan filmlarni jahon bozoriga chiqarish va festivallarda namoyish etish uchun chet tillarga subtitrlashtirish va dublyaj qilish; milliy kinematografiyaning eng sara asarlarini tiklash, restavratsiya qilish va zamonaviy formatga o‘tkazish.

3. Milliy kinematografiya san’atini zamon talablari asosida rivojlantirish, yosh kino ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida “O‘zbekkino” Milliy agentligi huzurida Milliy kinematografiyani rivojlantirish jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda Jamg‘arma deb ataladi) tashkil etilsin va uning mablag‘larini shakllantirishning manbalari etib quyidagilar belgilansin: davlat buyurtmasi va Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan ishlab chiqarilgan filmlarning kinoprokatidan tushadigan mablag‘lar; davlat buyurtmasi va Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan ishlab chiqarilgan filmlarni namoyish etish mobaynida joylashtiriladigan tijorat e’lonlaridan tushadigan mablag‘larning 10 (o‘n) foiziga teng miqdordagi majburiy ajratmalar; Jamg‘armaning vaqtincha bo‘sh mablag‘larini qonun hujjatlariga muvofiq bank depozitlari shaklida va boshqa shakllarda joylashtirishdan tushadigan daromadlar; “O‘zbekkino” Milliy agentligi tomonidan kino va boshqa madaniy-ijtimoiy tadbirlarni tashkil etish hamda o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan

faoliyatidan olinadigan daromadlar; yuridik va jismoniy shaxslarning, shuningdek, xalqaro tashkilotlarning homiylik xayriyalari hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

4. “O‘zbekkino” Milliy agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi hamda O‘zbekiston yoshlar ittifoqining kinofilmlar namoyishini samarali tashkil etish, aholi, ayniqsa yoshlarga madaniy xizmat ko‘rsatish uchun sharoit yaratish maqsadida mamlakatimizdagi mavjud yoshlar markazlari, madaniyat va aholi dam olish markazlari, litsey va kollejlarning binolaridan foydalangan holda, “O‘zbekkino” Milliy agentligi huzurida Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda tarkibida kichik kinostudiyalari va zamonaviy formatdagi kinozallari bo‘lgan mintaqaviy madaniy-ko‘ngilochar komplekslar (keyingi o‘rinlarda komplekslar deb ataladi) tashkil etish to‘g‘risidagi taklifi qabul qilinsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi va “O‘zshaharsozlik LITI” davlat unitar korxonasi 2018 yil 1 yanvargacha “O‘zbekkino” Milliy agentligining texnik topshirig‘i va xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribasini har tomonlama o‘rganish asosida komplekslarning namunaviy loyihasini ishlab chiqsin, uning maydonlarida zamonaviy kinozallarni (2-qavat), shuningdek, savdo-ko‘ngilochar obyektlarni (1-qavat) joylashtirishni nazarda tutsin.

6. “O‘zbekkino” Milliy agentligi O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Yozuvchilar uyushmasi, Tashqi ishlar vazirligi bilan birgalikda: Kinematografiya sohasida kadrlarni qayta tayyorlash maqsadida “O‘zbekkino” Milliy agentligi qoshida atoqli kino ijodkorlar dars beradigan malaka oshirish kurslarini va “Mahorat maktablari”ni tashkil

etish; Mamlakatimizning yosh, iste'dodli va istiqbolli kino ijodkorlari malakasini oshirish maqsadida ularning tegishli yetakchi xorijiy ta'lim muassasalarida muntazam ravishda tahsil olishiga zarur shart-sharoitlar yaratish yuzasidan 2018 yilning 1 yanvariga qadar Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritsin. Belgilab quyilsinki, mazkur bandda ko'rsatilgan chora-tadbirlar Jamg'arma mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

7. "O'zbekkino" Milliy agentligining faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida: "Qoraqalpoqkino" agentligi, viloyatlar va Toshkent shahar hududiy bo'limlarini 1 tadan "Damas" rusumli avtomashina bilan ta'minlash; "Qoraqalpoqkino" agentligi va viloyatlar hududiy bo'limlariga byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan saqlanadigan 4 tadan qo'shimcha shtat birligi ajratish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

8. Belgilab qo'yilsinki: "O'zbekkino" Milliy agentligining markaziy apparati, "Qoraqalpoqkino" agentligi va hududiy bo'limlarini saqlash, shuningdek, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bilan bog'liq xarajatlar O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qoplanadi; O'zbekiston kino arboblari ijodiy uyushmasini saqlash xarajatlari Jamg'arma mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi; milliy kino mahsulotlarini yaratishning belgilangan yillik ishlab chiqarish hajmlarining prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va Jamg'arma mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi.

9. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi: "O'zbekkino" Milliy agentligi markaziy apparatiga 3 ta shaxsan biriktirilgan va 1 ta navbatchi xizmat avtotransportini saqlash uchun limit ajratsin; "Respublika kinofondi" davlat unitar korxonasining faoliyatini, 2020 yil 1 yanvardan boshlab o'zini o'zi

moliyalashtirishga o'tish sharti bilan, O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining parametrlarida ijtimoiy sohaga nazarda tutilgan mablag'lar doirasida moliyalashtirilishini ta'minlasin; O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining 2017 yilgi parametrlari doirasida "Qoraqalpoqkino" agentligi, viloyatlar Toshkent shahar hududiy bo'limlarini 1 tadan "Damas" rusumli avtomashina bilan ta'minlash uchun zarur mablag'larni "O'zbekkino" Milliy agentligiga ajratsin.

10. "O'zbekkino" Milliy agentligi: Adliya vazirligi bilan birgalikda davlat unitar korxonalari shaklida tashkil etiladigan mintaqaviy madaniy-ko'ngilochar komplekslar to'g'risidagi Nizomni uch oy muddatda ishlab chiqsin va Vazirlar Mahkamasiga kiritsin; davlat buyurtmasi asosida ishlab chiqariladigan kinofilmlarning g'oyaviy-badiiy saviyasi, mazmun-mohiyati hamda professional darajasini oshirish maqsadida soha namoyandalari, tajribali yetuk mutaxassislardan iborat Badiiy kengash tarkibini shakllantirib, uning Nizomini ishlab chiqsin hamda mutasaddi vazirlik va idoralar bilan kelishilgan holda ikki oy muddatda tasdiqlasin.

11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi uch oy muddatda: mazkur qaror ijrosini ta'minlashga qaratilgan, shu jumladan, O'zbekiston kino arboblari ijodiy uyushmasi va Milliy kinematografiyani rivojlantirish jamg'armasi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlashni nazarda tutuvchi hukumat qarorini qabul qilsin;

12. "O'zbekkino" Milliy agentligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda: qonun hujjatlariga mazkur qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin; o'zlari qabul

qilgan normativ-huquqiy hujjatlarini ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

13. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchisi X.M.Sultonov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti Shavkat Mirziyoyev
Toshkent shahri, 2017 yil 7 avgust

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI
MILLIY KINOINDUSTRIYANI RIVOJLANTIRISH
BO‘YICHA QO‘SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR
TO‘G‘RISIDA

Mahalliy kino sanoati milliy madaniyat va san’atni rivojlantirishga, yoshlarni sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga, keksa avlodga hurmat-ehtirom ko‘rsatishga bebaho hissa qo‘shmoqda. Kino inson bilimini orttirishda muhim rol o‘ynaydi, uning boy mazmuni esa aholining bilimdonlik darajasiga bevosita ta’sir qiladi.

Shu bilan birga, mazkur sohadagi ishlarning haqiqiy holati milliy kino sanoatining jadal rivojlanishiga, kino bozorida raqobatbardoshligini oshirishga, uni xorijda targ‘ib qilishga to‘sqinlik qiladigan bir qator hal etilmagan muammolar mavjudligidan dalolat bermoqda. Xususan:

birinchidan, ishlab chiqilayotgan kino mahsulotlarining mafkuraviy-badiiy darajasining pastligi, ssenariynavislik, rejissyorlik va aktyorlik ishlarining lozim darajada sifatli emasligi, yoshlar uchun ma’naviy namuna bo‘lib xizmat qiladigan badiiy obrazlarning ko‘pincha mavjud emasligi yosh avlodni jasorat va qat’iyatlilik ruhida tarbiyalash, yot «ommaviy madaniyat»ga qarshi kurashish kabi milliy kinematografiyaning asosiy maqsadlarini amalga oshirish imkonini bermayapti;

ikkinchidan, kino mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha davlat buyurtmasini berish yuzasidan shakllangan amaliyot

qo'llanilayotgan tartib-taomillarning ochiqligi va shaffofligini, byudjet mablag'laridan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlamayapti, shuningdek, kinematografiya sohasida sog'lom raqobat muhitini rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda;

uchinchidan, kino sanoati sohasiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish strategiyasining, ishlab chiqilayotgan kino mahsulotlarining o'zini qoplay olishi va daromad keltirishiga qaratilgan zamonaviy marketing tadqiqotlari va aniq maqsadli kino ishlab chiqarish dasturlarining mavjud emasligi milliy kinematografiyaning yuqori zarar bilan ishlashiga sabab bo'ldi;

to'rtinchidan, kinoprokat va respublika bo'ylab kino mahsulotlarini yetkazib berish samarasiz tizimining mavjudligi, ishlab chiqarilgan kino mahsulotlarining yetarli darajada targ'ib qilinmasligi sababli aholining sust xabardorligi kinoprokatchilar daromadlariga, kinokompaniyalarning ijodiy va ishlab chiqarish xodimlarini moddiy rag'batlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatdi, shuningdek, kinoteatrlar tarmog'i faoliyatining tugatilishiga olib keldi;

beshinchidan, davlat buyurtmasi bo'yicha ishlab chiqariladigan kino mahsulotlariga ajratiladigan mablag'larning yetarli emasligi, kino ishlab chiqaruvchilarni soliqqa tortish tizimining samarasizligi va yuqori soliq yuki kino sanoati sohasining daromadlilikini cheklamoqda va kinematografiyaning umumjahon rivojlanish tendensiyalariga muvofiq ilg'or innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirmayapti;

oltinchidan, kino sohasida kadrlarni tayyorlash tizimi zamonaviy talablarga javob bermaydi, ixtisoslashtirilgan, shu jumladan xorijiy davlatlarning oliy o'quv yurtlarida talab yuqori bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash, kino san'ati vakillarini qayta

tayyorlash va ularning malakasini oshirish ishlari tashkil etilmagan;

yettinchidan, mualliflik huquqi obyektlarini, shu jumladan kino mahsulotlarining noqonuniy tarqatilishini aniqlash va oldini olish, ular bilan ruxsatsiz foydalanishdan ishonchli himoya qilish, o'g'rincha ko'chirib olishga qarshi kurashishning aniq mexanizmlari mavjud emasligi kino mahsulotlarining asl nusxalarini yuqori darajada noqonuniy aylanishiga va mamlakatning kinokompaniyalari hamda kinoteatrlariga sezilarli zarar yetkazilishiga olib kelmoqda;

sakkizinchidan, mahalliy sara kinolentalarni jahonga mashhur xalqaro kinofestivallarga taqdim etish, shu jumladan ularda ishtirok etish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmayapti, madaniy o'zaro almashinuv darajasining pastligi esa milliy kinematografiyani xorijda faol targ'ib qilinishiga va uning jahon kino maydoniga qo'shilishiga imkon bermayapti.

Mamlakatda kino sanoatini yanada rivojlantirish, kinokompaniyalarni tanlab olishning shaffofligini ta'minlash, kinematografiya sohasida malakali mutaxassislarni tayyorlash, zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini oshirish, shuningdek, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida:

1. «O'zbekkino» Milliy agentligi (keyingi o'rinlarda «O'zbekkino» MA deb yuritiladi), O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Adliya vazirligi, Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi hamda «O'zbekfilm» AJ aksiyadorlarining:

«O'zbekfilm» aksiyadorlik jamiyatini jamiyat tarkibidan chiqib ketadigan aksiyadorlar bilan qonun hujjatlarida o'rnatilgan

tartibda hisob-kitobni amalga oshirgan holda «O‘zbekfilm» davlat unitar korxonasi etib qayta tashkil etish;

«Hujjatli filmlar kinostudiyasi» davlat unitar korxonasini mamlakatda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlarini va davlat va jamiyat hayotidagi eng muhim sohalarda erishilgan yutuqlarni tasvirga olish va ularni keyinchalik arxivlashtirish bo‘yicha vazifalarni yuklagan holda «Hujjatli va xronikal filmlar kinostudiyasi» davlat unitar korxonasi sifatida qayta nomlash;

«O‘zbekkino» MAning hududiy bo‘linmalari negizida ularning shtatlar birliklarini, bino va boshqa moddiy-texnika bazasi, shuningdek, 2020 yilning 1 yanvariga qadar muddatda amaldagi moliyalashtirish manbalarini saqlagan holda «Respublika kinoprokat markazi» davlat unitar korxonasining filiallarini tashkil etish;

«O‘zbekiston kinoarboblari ijodiy uyushmasi» davlat muassasasini uning balansida bo‘lgan mol-mulk va boshqa moddiy-texnik qimmatliklarni (ko‘chmas mulkni bepul foydalanishga) topshirish orqali nodavlat notijorat tashkiloti sifatida qayta tashkil etish to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berilsin.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bir oy muddatda yangi tashkil etilayotgan nodavlat notijorat tashkilotini davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini ta’minlasin, uning ustav organlarini shakllantirishda zaruriy amaliy yordam ko‘rsatsin.

2. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga ko‘ra:

2019 yilning 1 yanvaridan boshlab, «O‘zbekkino» MA Badiiy kengashi tomonidan davlat buyurtmasi asosida suratga olinadigan kino mahsulotlarning yillik tematik rejasi yuzaga kelayotgan vaziyat, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalarda amalga oshirilayotgan

yangilanishlar, shuningdek, aholining mazmunli kinofilmlarga boʻlgan real ehtiyojidan kelib chiqib shakllantiriladi;

ishlab chiqariladigan badiiy filmlarni davlat buyurtmasi boʻyicha ishlab chiqariladigan badiiy filmlarning yillik hajmiga nisbatan foizda janrlar boʻyicha kvotalash tizimi joriy etiladi;

2019 yil 1 yanvardan boshlab, mulkchilik shaklidan qatʼi nazar, mamlakatdagi barcha kinoteatrlarda namoyish etiladigan mahalliy badiiy filmlar namoyishi hajmlarini — sutkada ikkitadan kam boʻlmagan shu kabi toʻliq metrajli filmlar bilan, 2021 yil 1 yanvardan esa oylik ekran vaqtining 25 foizidan kam boʻlmagan, bayram kunlari 40 foizdan kam boʻlmagan miqdorda kvotalash tizimi joriy etiladi;

davlat buyurtmasi boʻyicha ishlab chiqariladigan badiiy filmlarning smeta xarajatlarida koʻrsatilgan mablagʻning 10 foizi faqatgina ularning reklamasi va televideniye, radio va Internet tarmoqlaridagi piar-kompaniyasiga, shuningdek, tashqi reklamasini joylashtirish uchun foydalaniladi;

davlat buyurtmasi boʻyicha kino mahsulotlarini Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasi tizimidagi teleradiokanallarda reklama qilish, milliy teleradiokompaniya telekanallarida namoyish qilishda «Oʻzbekkino» MAning shaxsiy koni mahsulotlari uchun mualliflik va mulkiy huquqlariga rioya qilgan holda, imtiyozli shartlarda amalga oshiriladi;

kinokompaniyalarning, mulkchilik shaklidan qatʼi nazar, davlat buyurtmasi boʻyicha kino mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi ishtiroki faqat «Oʻzbekkino» MA tomonidan qonun hujjatlariga asosan tashkil etiladigan tanlov asosida amalga oshiriladi;

«Oʻzbekkino» MA Badiiy kengashi tarkibi prodyuserlar, adiblar, tarixchilar, kinooperatorlar, rejissyorlar, kinoprokatchilar,

kinotanqidchilar, psixologlar, kinematografiya sohasidagi nodavlat tashkilotlar vakillari va boshqa mutaxassislardan shakllantiriladi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda «O‘zbekkino» MA tomonidan tasdiqlanadi;

«O‘zbekkino» MA Badiiy kengashi tarkibiga, Kengash tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo‘lgan shaxslarning kirishiga va ularning tanlovda ishtirok etishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

«O‘zbekkino» MA Badiiy kengashi tomonidan davlat buyurtmasi bo‘yicha kino mahsulotni ishlab chiqarishning har bir bosqichi yakunida tayyor mahsulotning rejissyorlik ssenariysiga, xarajatlar smetasi parametrlariga, suratga olish jarayonining texnik va texnologik talablariga mosligi hamda kino mahsulot yaratish to‘g‘risidagi shartnomada o‘rnatilgan boshqa talablarga rioya etilishi yuzasidan baholash amalga oshiriladi, so‘ngra ushbu kino mahsulot (uning qismlari) qabul qilinadi.

«O‘zbekkino» MA O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi, Moliya vazirligi, Adliya vazirligi va boshqa manfaatdor idoralar bilan birgalikda 2018 yil 1 oktabrga qadar muddatda davlat buyurtmasi bo‘yicha ishlab chiqariladigan kino mahsulotlari uchun konkurs tashkil etish va uni o‘tkazish tartibi, shu jumladan konkursda qatnashadigan kinokompaniyalar uchun talablarni nazarda tutuvchi hukumat qarori loyahasini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 avgustdagi PQ-3176-son qarori bilan tashkil etilgan Milliy kinematografiyani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturini amalga oshirish bo‘yicha Respublika komissiyasining:

2019/2020 o‘quv yilidan boshlab O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining iqtidorli bitiruvchilarini hamda institutda «Ijro etuvchi prodyuser» va «Kinorejissura va kinodramaturgiya» yo‘nalishlari bo‘yicha dastlabki saralashdan o‘tgan bakalavr darajasiga ega milliy kinematografiya sohasining mutaxassislarini S.A. Gerasimov nomidagi Butunrossiya kinematografiya davlat instituti (keyingi o‘rinlarda — BKDI) qoshidagi «Kino va televideniye»ning oliy kurslariga o‘qishga yuborish;

2019/2020 o‘quv yilidan boshlab O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti bakalavriatining ixtisoslashgan yo‘nalishlari iqtidorli bitiruvchilari uchun BKDI assistentura-stajirovkasida «Ijro etuvchi prodyuser», «Dramaturgiya» va «Audiovizual san’at rejissurasi» mutaxassislilari bo‘yicha o‘qishlarni tashkil etish;

2020/2021 o‘quv yilidan boshlab Toshkent shahrida kinematografiya sohasining malakali kadrlarini tayyorlash bo‘yicha BKDI filialini (qo‘shma fakultetini) ochish, o‘qituvchilik faoliyatiga BKDI yuqori kurslarida va assistentura-stajirovkasida avval tayyorgarlikdan o‘tgan mutaxassislarni, shuningdek, master-klasslar o‘tkazish uchun institut professor-o‘qituvchilarini jalb qilish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

4. «O‘zbekkino» MA O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Madaniyat vazirligi va Tashqi ishlar vazirligi bilan birgalikda 2018 yil 1 dekabrga qadar bo‘lgan muddatda BKDI yuqori kurslarida va assistentura-stajirovkasida O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti bitiruvchilari hamda respublika mutaxassislari o‘qishini tashkil etish, shuningdek, Toshkent shahrida institut filialini (qo‘shma fakultetini) ochish bo‘yicha BKDI rahbariyati bilan muzokaralar o‘tkazsin.

Belgilansinki:

BKDI yuqori kurslarida va assistentura-stajirovkasida o‘qishga yuboriladigan shaxslar soni «O‘zbekkino» MA tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan birgalikda tegishli soha mutaxassislariga bo‘lgan ehtiyojdan kelib chiqqan holda belgilanadi va Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi;

BKDI yuqori kurslarida va assistentura-stajirovkasida o‘qish bilan bog‘liq xarajatlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo‘yicha «El-yurt umidi» jamg‘armasi tomonidan markazga ushbu maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar doirasida moliyalashtiriladi;

(4-bandning to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 maydagi PF-5733-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.05.2019 y., 06/19/5733/3216-son)

BKDI oliy kurslarida va assistentura-stajirovkasida o‘qish uchun saralashdan muvaffaqiyatli o‘tgan nomzodlar bilan shartnomalar tuziladi. Shartnomalarda nomzodlarning O‘zbekiston Respublikasi hududida, shu jumladan O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida hamda BKDIning Toshkent shahrida tashkil etiladigan filialida (qo‘shma fakultetida) kamida uch yil muddatda mehnat faoliyatini amalga oshirish majburiyati belgilab qo‘yiladi.

5. Quyidagilar asosiy vazifalari etib belgilangan «O‘zbekkino» milliy agentligi huzurida Kinoindustriya sohasi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi (keyingi o‘rinlarda — Markaz) tashkil etilsin:

kinointustriya sohasining, mulkchilik shaklidan qat’i nazar kinokompaniyalarning ijodiy-ishlab chiqarish, texnik va boshqa

xodimlarini shartnoma asosida rejissura, prodyuserlik, aktyorlik mahorati, kinooperatorlik, animatsiya va boshqa yoʻnalishlar boʻyicha qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish;

nazariy jihatdan tayyorlashni amaliy ishlar bilan integratsiya qilish, kinoindustriya sohasida tajribaga ega malakali oʻqituvchilar va mutaxassislarni, shuningdek, xorijiy ekspertlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlariga jalb qilish;

metodik va axborot bazasini yaratish, yaxshilash, doimiy yangilab borish, kinoindustriya sohasi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish boʻyicha zarur oʻquv qoʻllanmalari hamda tavsiyalarini ishlab chiqish;

kinoindustriya sohasi xodimlarini xorijiy kinokompaniyalarda qayta tayyorlanishi va ularning malakasi oshirilishini tashkil etish, chet ellik hamkorlar bilan yaqin aloqalarni yoʻlga qoʻyish.

Belgilab qoʻyilsinki:

Markaz davlat unitar korxonasi shaklida tashkil etiladi;

Markaz kinoindustriya sohasining, mulkchilik shaklidan qatʼi nazar kinokompaniyalarning ijodiy-ishlab chiqarish, texnik va boshqa xodimlarini oʻqitish uchun olinadigan mablagʻlari, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi;

Markazga «Oʻzbekkino» MA bosh direktori tomonidan lavozimga tayinlanadigan va egallab turgan lavozimdan ozod etiladigan direktor rahbarlik qiladi.

6. Quyidagilar:

«Oʻzbekkino» Milliy agentligi huzuridagi Kinoindustriya sohasi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi tuzilmasi 1-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasida kinoindustriyani yanada takomillashtirish «Yo‘l xaritasi» 2-ilovaga muvofiq;

«Uchta shahar», «101» va «Qahramonlar» loyihalarini amalga oshirish «Yo‘l xaritasi» 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

«Uchta shahar» loyihasini amalga oshirish doirasida kompleks tashkiliy-texnik va huquqiy masalalarning sifatli hamda o‘z vaqtida hal etilishi uchun:

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari — O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasining raisi S.R. Xolmurodov — «Xalq diplomatiyasi shahri» majmui qismi yuzasidan;

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari A.A. Abduhakimov — «Etnoshahar» majmui qismi yuzasidan;

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari — «O‘zbekneftgaz» AJ boshqaruvining raisi A.S. Sultonov — «Kinoshahar» majmui qismi yuzasidan shaxsan javobgar ekanligi belgilab qo‘yilsin.

7. «O‘zbekkino» MA O‘zbekiston yoshlar ittifoqi, O‘zbekiston kinematografiyasini rivojlantirish markazi, O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, Madaniyat vazirligi va Moliya vazirligi bilan birgalikda har yili eng yaxshi mahalliy kino mahsulotlarini Kann, Berlin, Venetsiya, Rotterdam, Pusan, Moskva va boshqa mashhur xalqaro kinofestivallarda, shuningdek, jahonning yirik nufuzli kinobozorlarida namoyish etilishini ta’minlasin.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi «O‘zbekkino» MAning asoslantirilgan hisob-kitoblari bo‘yicha xalqaro kinofestivallar va kinobozorlarda mahalliy kino mahsulotlarini namoyish etish bilan bog‘liq xarajatlarni moliyalashtirish uchun «O‘zbekkino» milliy agentligi huzuridagi Milliy

kinematografiyani rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini hisobga olgan holda byudjet mablag'larini ajratsin.

8. 2018 yil 1 avgustdan boshlab «O'zbekkino» MA markaziy apparatining xodimlariga ularning mehnatiga haq to'lash oylik jamg'armasining 100 foizi miqdorida O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan to'lanadigan shaxsiy ustama belgilansin.

9. 2020 yil 1 yanvargacha bo'lgan muddatga:

kino mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularning prokati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar barcha turdagi soliqlar va majburiy ajratmalar to'lashdan, bundan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga ajratmalar mustasno, shuningdek, o'rnatilgan tartibda shakllantiriladigan ro'yxat bo'yicha olib kiriladigan kino ishlab chiqarish va kino namoyish etish uskunalari uchun bojxona to'lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruv yig'imidan tashqari);

«O'zbekkino» MA o'rnatilgan tartibda shakllantiriladigan ro'yxat bo'yicha «O'zbekfilm», «Hujjatli va xronikal filmlar kinostudiyasi», «Respublika kinofondi», «Respublika kinoprokat markazi», «Multiplikatsion filmlar studiyasi» davlat unitar korxonalarini qayta qurish va jihozlash doirasida olib kiriladigan kino ishlab chiqarish hamda kino namoyish etish uskunalari uchun bojxona to'lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruv yig'imidan tashqari) ozod etilsin.

10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi mazkur qaror talablari, shuningdek, kinoindustriya sohasidagi boshqa ustuvor vazifalarni hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoniga:

a) 2018 yil 1 avgustga qadar kinematografiya sohasida talab yuqori bo'lgan kadrlarni (kinodramaturg, kinorejissyor,

kinoprodyuser va boshqalar) tayyorlovchi yangi fakultet ochishni nazarda tutgan holda O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasini;

b) 2018 yil 1 noyabrga qadar:

«Kinematografiya to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini;

O‘zbekiston Respublikasi hududida xorijiy kinokompaniyalar tomonidan badiiy filmlarni kinoga, videoga tushurishdagi tartib-taomillar va talablarni yanada soddalashtirishga doir takliflarni kiritsin.

11. O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag‘lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 6 apreldagi 272-son qarorining 4-bandida ko‘rsatilgan yagona kinoprokat elektron tarmog‘ini ishlab chiqish, kinoteatrlarni optik tolali aloqa liniyasi orqali kinoprokat tarmog‘iga bosqichma-bosqich ulash, kinoteatrlarda elektron kinochiptalarning tezkor hisobini yuritish avtomatlashtirilgan tizimini joriy qilish bo‘yicha ishlarni moliyalashtirish manbalari etib belgilansin.

12. «O‘zbekkino» MA Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Chilonzor ko‘chasi, 1a-uy manziliga joylashtirilsin.

13. «O‘zbekkino» MA Adliya vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

14. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchisi X.M. Sultonov, O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokurori O.B. Murodov va

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchisining birinchi o‘rinbosari B.M. Mavlonov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2018 yil 24 iyul,
PQ-3880-son

GLOSSARIY

Animatsiyali (multiplikatsiyali)kino turidagi filmlar har qanday mavzu, muammo, janrlarda bo‘lishi mumkin. Bolalar va kattalar uchun mo‘ljallangan ertaklar, hozirgi zamonning g‘oyat keskin muammolari, masalan, ekologik muammolar, tarixiy o‘tmish va hokozolar shular jumlasidandir. Bu kino turining o‘ziga xos hususiyati-uning fil’molari badiiy asosga ega bo‘lib, ishlanishi chizilgan rasmlar, qo‘g‘irchoq tarzida bo‘lishi mumkin. Zamonaviy animatsiyali kinoda kompyuter grafikasidan keng foydalaniladi.

Badiiy film kino san’atining asosiy turlaridan bo‘lib, maxsus yozilgan ssenariy yoki qayta ishlangan badiiy adabiyot asosida ijodning ijroviy vositalari yordamida real yoki to‘qima voqealarning bayon etilishi; ilmiy-ommaviy kino tomoshabinlarni tabiat va jamiyat hayoti, ilmiy kashfiyot va ixtirolar bilan tanishtiradi.

Bollivud (hindi बॉलीवुड, urdu, inglizcha Bollywood) - bu hind kinosanoatining markazi bo‘lib, Mumbai (Bombey) shahrida joylashgan. Bollivud bu Gollivud (Hollywood)ning sinonimi tarzida nomlangan. Mamlakatning janubida ikkita katta kino ishlab chiqarish sanoat birlashmasi bor. Bulardan birinchisi Tollivud ya’ni telegu tilida fil’m oladi, ikkinchisi Kollivud ya’ni tamil tilida filmlar oladi. Hindistonda Ingliz, Pandjob, Assam, Radjastxani, Konkani, Xariani, Maytxili, Nepal, Tulu, Chxattisgarxi, Urdu, Hindi, Telugu, Tamil, Kannada, Maratxi, Malayalam, Bengal, Bxodjpur, Gudjarat, Oriya kabi tillarda ham kinofil’malar suratga olinadi.

Dublyaj (frans. doublage), kinofil’malar dublyaji – filmni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilib yaratilgan yangi fonogramma.

Dialoglar tarjimasi mazmun jihatdan to'g'ri, film qahramonlarining so'zlashuviga - og'iz harakatiga mos bo'lishi shart. Tarjimon yoki yangi matn muallifi, muharrir, rejisser, aktyor, ovoz operatori, montajchi, matn joylashtiruvchidan iborat ijodiy guruh amalga oshiradi. Avval tarjimon dublyaj qilinadigan filmni sinchiklab ko'rib, undagi monolog va dialoglar qaysi vaziyatda, qanday holatda talaffuz qilinishini, aniq bilib olishi lozim. Tarjimadan so'ng muharrir har bir so'zni aktyor talaffuziga solishtirib tahrir qiladi. Dialog paytida lab harakati aytilayotgan so'zga muvofiq bo'lishi lozim. Rejisser film qahramonlari ovoziga moslab aktyor tanlaydi. Nihoyat aktyor ovoziga turli shovqinlar (avtomobil, samolyot, shamol, dengiz to'lqini, hayvonlar ovozi va boshqalar) qo'shib yoziladi. Musiqa va tabiiy tovushlar, odatda, filmning aslidan olinadi, ba'zan yangi variant ham tayyorlanadi. "O'zbekfilm"da har yili 70-80 ta film dublyaj qilinadi. R.Ahmedova, O.Yunusov, T.Tojiyev, O.Bakirova, D.Ismoilova, M.Rahimova, YO.Ahmedov, A.Rafiqov va boshqalar dublyaj san'atiga munosib hissa qo'shib kelmoqdalar.

Jangari- janrdagi ekshen filmlar syujetida uncha katta bo'lmagan talabalar ssenariy va rejisser fantaziyasiga bog'liq holda tasvirlanadi. "Ekshen" termini inglizcha action – harakat degan ma'noni bildiradi. G'arbning klassik jangari filmlari syujeti yaxshi va yomon qahramon (yoki qahramonlar) o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni aks ettiradi. Film syujeti va qaxramon harakatlari turli xil tryuklar va maxsus effektlar yordamida gavalantiriladi.

Ilmiy-ommabop kinoturi uchun mavzu ilm-fan, mehnatdagi kishilarning kashfiyoti, ixtirolari, muhim, qiziqarli muammolardan iboratdir. Bu kino turining fil'mlari

Informatsion agentlik matbuot organlari, radioeshittirish va televidenie, davlat va jamoat tashkilotlari, ishbilarmonlar va b. uchun axborotlar yig‘ish va tarqatish bilanshug‘ullanadigan tashkilot. Muxbirlar punktlari tarmog‘iga tayanadi. Yirik informatsion agentliklardan: Rossiyada informatsion-telegraf agentligi Itar-tassga 1992-yilda asos solingan, uning tarixi 1904-yilda tashkil topgan Petrograd telegraf agentligidan boshlanadi, Assoshieyted press (1848) va Yunayted press interneshonal (YUPI, 1907) - AQSH, Doychepresseagentur (Germaniya, 1949), Kiodo susin (Yaponiya, 1945), Reyter (Buyuk Britaniya, 1851), Sinxua (Xitoy, 1938), Frans press (Fransiya, 1944). O‘zbekiston Respublikasida to‘rtta informatsion agentlik bo‘lib bular: O‘zbekiston axborot agentligi (O‘zA) Turkiston-press, “Jahon”, va “O‘zRIpoRT” faoliyat ko‘rsatadi.

Kino san’ati – hayotdagi voqealarni o‘z xolicha yoki mahsus insseniroyka qilib, yo bo‘lmasa, mulsiplikatsiya vositasida qayta tasvirlab suratga tushirish yuli bilan asar yaratiladi. Kino sa’atida adabiyot, teatr va tasviriy san’at, musiqaning etnik jixatlari o‘ziga xos, xususiy ifoda vositalari zaminida uyg‘unlashib ketadi. Kino san’ati tomoshabinlarning voqelik haqidagi tasavurini, etik qarashini, estetik didini shakllanishida muhim vositadir.

Kino musiqasi – kinematografiyaning shakllanishi va rivoji bilan bog‘langan musiqa janri. Dastlab kino apparati shovqinini bosish uchun mo‘ljallangan. Bora – bora kinodrammaturgiyaning muhim vositalariga aylandi. Odatda har bir film uchun maxsus musiqa yoziladi, ba’zan mavjud musiqadan ham foydalaniladi. Kino musiqasi syujet bilan uzviy bog‘lanib, obrazlarning ruxiy kechinmalari dramatik holatlar, ziddiyatlar va boshqalarni hayajonli qilib ifodalashga yordam beradi. O‘zbekistonda ham 1920-yillardan, kino va musiqa hamkorligi boshlangan. Janr

sfatida esa kino musiqasi 1940-yilarning 2-yarmidan shakllana boshladi.

Kino 1895-yil 28-dekabrda Parijda ixtirochilar aka-uka Ogyuct va Lui Lyumerlar tomonidan vujudga kelgan. Uning yuzaga kelishi, o'z navbatida, insoniyatning badiiy madaniyati tarixida obektiv qonuniyat bosqichi bo'ldi. Kinoda adabiyot, teatr, tasviriy san'at va musiqa tajribalari, uning estetik jihatlari uyg'unlashtirilib, o'ziga singdirilgan holda voqelik o'ziga xos ifoda vositalarida fotog'rafik tasvir orqali ko'rsatiladi. Kino san'atining ommani ijtimoiy-siyosiy va madaniy jihatdan tarbiyalashda, kishilar ongi, fikr va qarashlari, estetik did va histuyg'ulari, umuman, ma'naviy dunyosining shakllanishida g'oyaviy-badiiy ta'siri kuchlidir.

Kinofestival (kinova frans. Festival-bayram) - kino san'ati asarlarining turli shaklda o'tkaziladigan ko'rigi. Kinematografiyasi rivojlangan ko'pgina davlatlar milliy kino san'atining eng yaxshi yutuqlarini namoyish etish, keyingi rivojlanish yo'nalishini belgilab olish, xalqlarning o'zaro yaqinlashuvi, san'at rivojiga o'z hissalarini qo'shish maqsadida kinofestivallar uyushtiradi. Kinofestivalning an'anaviy turi - xalqaro kinofestivallardir. Ular konkursli yoki konkurssiz, ixtisoslashgan va ixtisoslashmagan bo'ladi. Konkursli xalqaro kinofestivallarda hakamlar hay'ati fil'm yaratuvchilari (rejisser, aktyor, operator, rassom va boshqa)ni mukofot, sovrin, diplom bilan taqdirlaydilar. Konkurssiz festivalda ko'rsatilgan har bir fil'm "festival qatnashchisi" degan diplom, shuningdek, turli tashkilotlar ta'sis etgan mukofot va sovrinlarga ega bo'ladilar. Maxsus xalqaro kinofestivallar janrlar (hujjatli, multiplikatsion, ilmiy ommaviy, reklama filmlar va boshqalar), regionlararo (Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi, Boltiq bo'yi va MDH, Arab

mamlakatlari va boshqalar), boshqa ajratib turuvchi jihatlar (yosh rejisserlar filmi, festivallar festivali, ayol rejisser kabi) asosida o‘tkaziladi. Har bir kinofestivalning aniq belgilangan vaqti ("kun", "dekada", "turkum", "oylik", "haftalik" kabi) hamda ko‘rsatiladigan filmlar soni (konkursga kiritilgan yoki informatsion filmlar) oldindan ma’lum bo‘ladi. Reglamentga asosan ilgari biror kinofestivalda mukofotlangan filmlar konkursga kiritilmaydi.

Jahonda o‘tkaziladigan eng yirik kinofestivallardan qadimiysi 1932-yildan Italiyada o‘tkazilib kelinadigan Venetsiya kinofestivalidir. Bu festivalning Bosh sovrini "Avliyo Markning oltin sheri" eng yaxshi filmga, eng yaxshi debyutga, eng yaxshi ayol va erkak roliga beriladi.

Kann xalqaro kinofestivali 1946-yildan har yili aprel-may oylarida o‘tkaziladi. Bosh sovrini "Oltin palma shoxi", Katta maxsus sovrin "Oltin kamera" eng yaxshi ayol va erkak roli, eng yaxshi rejissura, eng yaxshi operatorlik ishi, eng yaxshi debyut uchun beriladi.

Berlin xalqaro kinofestivali 1951-yildan mavjud. Eng katta sovrin "Oltin ayiq", keyingisi "Kumush ayiq".

Ispaniyada 1953-yildan o‘tkaziladigan San-Sebastyan xalqaro kinofestivali har yili o‘tkaziladi va sovrinlari "Katta oltin chig‘anoq", "Oltin chiganoq", "Kumush chig‘anoq".

Moskva xalqaro kinofestivali 1959-yildan o‘tkaziladi. Bosh sovrini "Avliyo Georgiy".

Toshkent xalqaro kinofestivali 1968-yildan o‘tkazib kelinadi. 1968-yildan buyon Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari kinofestivali sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Bosh sovrini: "Oltin semurg“" eng yaxshi fil‘m uchun, "Xo‘ja Nasriddin" eng yaxshi rejissura uchun, "Kumush semurg“" eng

yaxshi debyut uchun, "Oltin archa" eng yaxshi erkak roli uchun, "Oltin lola" eng yaxshi ayol roli uchun beriladi.

Kinokomediya (kino va komediya) - kino san'ati turi. Filmda xarakter, konflikt, vaziyatni tasvirlashda tomoshabinda kulgi qo'zg'atish Kinokomediyaning asosiy xususiyatidir. Yumoristik va hajviy jihatlari bir-biriga bog'liq holda ko'rsatiladi. Kinovodevil, eksentrik «komik», lirik, maishiy, hajviy, tragikomik, fantastik kinokomediya janrlari keng tarqalgan. Sirk, karikaturani o'zida singdirgan eksentrik «komik» kinokomediya XX-asrning 1910-20-yillarida yuzaga kelgan (A. Did, M. Linder, R.Kler - Fransiya; M. Sennet, CH. Chaplin, B. Kiton, G.Lloyd - AQSH). F.Kapra ovozsiz kino davrida «Bir kunlik xonim», «Mister Dids shaharga ko'chib o'tmoqda», «Tundagi hodisa» kabi fil'mlarni ishlab Amerika K.sining rivojlanish davrini boshlab berdi. Keyinchalik A.Blazetti, X.Bardem, J.Bekker, L.Berlanga, G.Krichton, R.Kornelius kabi chet el rejisserlari jamiyatdagi mavjud nuqsonlarga qarshi Kinokomediylar («Millioner Neapol», «Tramvay o'g'irlandi», «Dadam, oyim, xizmatkor qiz va men») yaratdilar. Y.Protazanovning «Nasriddin Buxoroda» (1943) fil'mi - birinchi o'zbek kinokomediyasi. «Nasriddinning sarguzashtlari» (rejisser N.G'aniev), «Mahallada duv-duv gap» (SH.Abbosov), «Kelinlar qo'zg'oloni», «Maysaraning ishi», «Chimildiq» (M.Abzalov), «Sharif va Ma'rif», «Temir erkak» (I.Ergashev), «Bomba» (Z.Musoqov), «Masxaraboz» (SH.Boshbekov) va bosqalar eng yaxshi o'zbek kinokomediylaridir. R.Pirmuhamedov, R.Hamroev, N.Raximov, H.Umarov, S.Xo'jaev. B.Ixtiyorov, H.Sharipov, O.Asomov, M.Xolmedov va boshqalarning o'zbek kinokomediya rivojida hissalarini katta. Zamonaviy rejisserlar izlanishi natijasida kinokomediya kinoning boshqa janrlariga ham singib bormoqda.

Komediya (yunoncha “komodia” - xushchaqchaq olomon) - hodisa, voqea va xususiyatlar kulgili ko‘rsatilgan drama turi. Komediya ijtimoiy hayotdagi nuqsonlar, kishilarning ongi va xarakteridagi yaramas xususiyatlar kulgi vositasi bilan tanqid etiladi, jamiyat hayotidagi eskirib qolgan hodisalarga zarba beriladi. Hayotning rivojlanish qonuni oldida umri tugagan narsalar, sarqitlar kulgili ahvolga tushib qoladi. Bularni qalamga olish orqali komediya yaratiladi. Komediya Yunonistonda xudo Dionis sharafiga o‘tkazilgan xalq bayramlarida paydo bo‘lgan. Yorqin siyosiy komediyalar yaratgan Aristofan (mil.av.V-IV asrlar) Komediyaning «otasi» hisoblanadi. Qadimgi Rimda (mil.av. III-II-asrlar) Plavt va Terensiy atoqli komediyachilar bo‘lishgan. Uyg‘onish davri yevropa adabiyotida V.Shekspir va B.Jonson (Angliya), Lope de Vega (Ispaniya) Komediyalari katta o‘rin tutadi. XVII-XVIII-asrlarda komediya realistik mayllarning kuchayishida J.B.Moler va P.Bomarshe (Fransiya), K.Goldoni (Italiya), G.Lessing (Germaniya), R.Sheridan (Angliya) ijodi qo‘l keldi. Komediyaning XIX-XX-asrlardagi rivoji B.Shou, B.Brext, SH.O‘Keysi, B.Nushich, J.Anut, N.Gogol va boshqalar ijodi bilan bog‘liq. O‘zbek adabiyotida Yevropa adabiyoti andozasidagi komediyalar XX-asrda paydo bo‘ldi. Bu janr taraqqiyotiga - Hamza («Maysaraning ishi»), Abdulla Qahhor («Tobutdan tovush»), Sayd Ahmad («Kelinlar qo‘zg‘oloni»), Erkin Voxidov («Oltin devor»), Hamid G‘ulom («Toshbolta oshiq»), Bahrom Rahmonov («Surmaxon»), Sharof Boshbekov («Temir xotin») va boshqalar munosib hissa qo‘shdilar. Komediyaning har xil turlari bor. Voqealar chalkashligi tufayli tomoshabinda kulgi tug‘diradigan (V.Shekspirning «Xatolar komediyasi»), qahramonlar kulgili holatlarga tushgan (Hamza, «Maysaraning ishi»), kishilar xarakteridagi bema’ni xususiyatlar kulgili qilib

ko'rsatilgan (Moler, «Tartyuf»; A.Qahhor, «Ayajonlarim»; E.Vohidov, «Oltin devor») komediyalar mavjud. Shuningdek, komediyalar kulgining tavsifiga ko'ra, satirik (voqelik, shaxslar satira qamchisi ostida g'azab, nafrat uyg'otadigan, zaharxandali qilib ifodalangan-N.Gogol, «Revizor», A.Qahhor, «Tobutdan tovush»), yumoristik komediya (voqelik, shaxslarning ayrim jihatlari beozor kulgi tug'diradigan Komediya - Gotssi, «Malikai Turandot», Said Ahmad, «Kelinlar qo'zg'oloni», Hamid G'ulom, «Toshbolta oshiq») va tragikomediya (tragik va komik holatlar mujassamlashgan - R.Muhammadjonov, «Suyunchi» filmi) turlariga bo'linadi. XX-asrda komediyaning tragikkomediya (L.Pirandello, J.Anuy), tragifars (E.Ionesko) janr shakllari maydonga keldi.

Myuzikl – janridagi filmlar komediya syujetida bo'lib unda muzika, qo'shiq, raqs asosiy o'rinda turadi va voqealar rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu janr dastlab AQShda 1930-40-yillarda shakllandi va Sobiq ittifoqda 1970-yillarda keng tarqalgan.

Melodrama (yun. melos - qo'shiq, kuy va drama) - musiqiy sahnaviy janr. XVIII asrda yevropa san'atida rivoj topgan. Qahramonlarning monolog va dialoglari musiqa jo'rligida ijro etilganligi bilan ajralib turadi. Ilk namunasini J.J.Russo (1762-yil «Pigmalion» lirik sahnalari) yaratgan. Ma'rifatchilik davri g'oyalariga asoslangan Melodramaga sahna rivojiga monand bo'lgan musiqaning jonli va tabiiy ifodaviyligiga intilish xosdir. XIX asrda Melodrama janri tamoyillari dramatik asarlarga yaratilgan musiqa (R.Shumanning «Manfred», J.Bizening «Arlezianka», J.Grigning «Per Gyunt» va boshqalar)da o'z rivojini topadi. XX asrda shakllangan o'zbek musiqali dramasida, N.Zokirovning «Sohilda to'qnashuv», Habi Rahimovning «Ona

qalbi» kamer operalarida ham Melodrama elementlari mavjud. Melodrama – janri birinchi navbatda kino qahramonining ichki hissiyotlari, emotsiyalari, kechinmalarini yorqin tasvirda ifodalaydi. Melodrama janri sevgi-muhabbat, oilaviy muammolar va boshqalarni o‘zida aks etiradi.

Montaj - kinoni san’atning bir turiga aylantiruvchi muhim ifoda vositasi hisoblanadi. Montaj ulkan ijodiy va ta’sir kuchiga ega. Montaj vositasi ila eng rang-barang mazmunli kadrlarni birlashtirib, o‘z mavzusi, syujetiga ega film ham yaratsa bo‘ladi. Buning ustiga kadrlar turli davrlarda, turli mamlakatlarda har xil planlar-u, rakurslarda suratga olingan bo‘lishi mumkin. Shu bois mahoratli rejisser montaj san’atini shunchaki emas, balki to‘liq, chuqur bilishi lozim. Uning ham o‘ziga xos xususiyatlari, talablari bor.

“Mosfilm” - Rossiyadagi badiiy filmlar ishlab chiqaruvchi eng yirik kinostudiyalardan. 1924 yil Moskvada tashkil topgan. Turli nomlar bilan atalgan. 1935 yildan hozirgi nomida faoliyat yuritadi. S.Eyzenshteyn, V.Pudovkin, A.Dovjenko, M.Romm, A.Tarkovskiy va boshqa mashhur rejisserlar faoliyat ko‘rsatgan. Shuningdek, M.Kalatozov, A.Ptushko, V.Shukshin, G.Aleksandrov, S.Bondarchuk, G.Daneliya, A.Zarxi, Y.Ozerov, G.Chuxray kabilarning ijodi “Mosfilm” faoliyati bilann chambarchas bog‘liqdir. “Quvnoq bolalar” (G.Aleksandrov), “Aerograd” (A.Dovjenko), “Ivan Grozniy” (S.Eyzenshteyn), “Inson taqdiri” (S.Bondarchuk), “Haloskorlik” (Y.Ozerov) singari filmlari bilan shuxrat kozongan. 1945-yildan kinostudiya qoshida “Kinoaktyor teatr-studiyasi” ishlab turibdi. 1991-yildan boshqa kinostudiyalarni suratga olish pavilonlari bilan ta’minlovchi kinokonsern vazifasini ham o‘tamoqda.

Ovozsiz kino - kinematografiyaning dastlabki rivojlanish davridagi nomi. Ovozsiz kino davrida filmning tuzilish xususiyatlari, o‘ziga xos estetik jihatlari belgilandi. Badiiy fil’mlar mazmuni va voqealarning rivojlanib borish holati so‘zsiz - faqat tasvir yordamida ochib berilardi. Dastlabki rivojlanish davridagi o‘ziga xosligi uning aktyor ijrosi bilan bogliq, ifoda vositalari bo‘lib, kadr tagiga voqeani tushuntirib beruvchi yozuvlar yozib borilgan. Asosiy ifoda vositalari XX asrning 20-yillarida kino san’ati asoslari (kinematografik rejalar, suratga olish rakurslari, montajning almashinib turishi, yaxlit asar yaratish, unga loyiq talqin topish va boshqalar)ga suyanan holda ishlab chiqildi. Birinchi ovozsiz fil’mlar rejisserlari fransuz aka-uka Lyumerlar (hujjatli) va J.Mele (fantastik ertak) jahon kinosining bosh yo‘nalishini belgilab berdi. Ovozsiz kinoni fransuz «avangard»lari, nemis ekspressionizm vakillari, shuningdek, D.Griffit, CH.Chaplin, R.Flaerti kabi amerika kinorejisserlari olib bordilar. A.Nilsen, B.Kiton, M.Linder, CH.Chaplin, M.Pikford va boshqalar ovozsiz kinoning yetakchi aktyorlari bo‘ldi.

O‘zbekistonda ovozsiz kino davri 1925-35-yillarni o‘z ichiga oladi. «Soyabon arava», «Ravot qashqirlari», «Ikkinchi xotin», «Yuksalish» va boshqalar dastlabki ovozsiz filmlardir. S.Xo‘jaev, E.Hamroev, N.G‘aniev, K.Yormatov, R. Pirmuhamedov, Y.A‘zamov, Z.Shokirova, M.Ja‘farova kabi san’atkorlar ovozsiz kino davrida milliy kinoning shakllanishida muhim rol o‘ynaganlar.

Oskar (*talaffuzi: Oscar*) - Amerika kino akademiyasining har yili taqdim etiladigan mukofoti. Bu AQShning eng nufuzli kinematografistik sovrini bo‘lib 1927-yilda asos solingan. Taqdimot marosimi o‘nlab mamlakatlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri efirda ko‘rsatiladi. Ko‘pgina kino festivallardan farqli ravishda

"Oskarlar" hakamlar aniqloviga ko'ra emas, balki Akademiya a'zolarining umumiy ovoz berishiga ko'ra taqdim etiladi.

Ostankino teleminorasini qurilish loyihasiga 1957-yil konkurs e'lon qilindi, natijalar bir yildan so'ng o'tkazildi. Natijalarga ko'ra arxitektorlar Leonid Batalov, Dmitriy Burdin va konstruktor Nikolay Nikitinlarning loyihalari g'olib deb e'lon qilindi. 1960-yilning yozidan minorani qurilishi boshlandi, lekin bir yildan so'ng poydevorni ishonchli ekanligiga shubha tug'ildi. Aloqa vaziri minorani qurish loyihasini tasdiqlashdan oldin ko'plab yirik tajribalar va tekshiruvlar o'tkazildi. 5-noyabr 1967-yil Davlat komissiyasi tomonidan ishga tushirishni boshlash haqidagi Aktga qo'l qo'yildi. Aktga qo'l qo'yilgan kun Ostankino teleminorasini tug'ilgan kuni hisoblanadi. Shu kuni 4ta teleko'rsatuv va 3ta radioeshittirish programmalari efirga uzatildi. Minoradagi qurilish 26 dekabr 1968-yilgacha davom etdi. Balandligi bo'yicha Torontodagi Si-En-Tauer teleminorasidan keyingi o'rinda turadi. Ostankino teleminorasini umumiy balandligi 540 metrni tashkil qiladi. Minora 45 qavatdan iborat bo'lib, o'nlab doirasimon maydonlar va balkonlarga ega. 328-334 m balandlikda "Yettinchi osmon" nomli restoran bor va u 3 etajdan iborat. Restoranning aylana shaklidagi imorati 40minut davomida bir marta o'z o'qi atrofida aylanib chiqadi. 2000-yil 27-avgustda bo'lib o'tgan yong'indan so'ng katta yo'qotishlar bo'ldi. Yong'indan keyin minorani ichki tomondan qayta tiklash, modernizatsiyalash va uskunalar bilan ta'minlash ishlari amalga oshirildi. Minoraga yangi mustahkam troslar o'rnatildi, yonmaydigan kAbellarga almashtirildi, boshqa zamonaviy uskunalar joylashtirildi. Yuqori temperaturaga chidamli liftlar, zamonaviy xavfsizlik sistemasini yaratish ko'zda tutildi.

Radio (lotincha “radio” – nurlanaman, nur tarqataman) axborotlarni radio to‘lqinlar (elektromagnit to‘lqinlar) yordamida uzoq masofadan simsiz uzatish va qabul qilish usuli. 1895-yilda A.S. Popov ixtiro qilgan. Simsiz uzatish usuliga asoslanib fizik hodisalarni o‘rganish, bu usuldan radioaloqa, radioeshittirish, televideniye, radiotelemexanika, radiolokatsiya, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, masofadan turib boshqarish (teleboshqarish)da, tibbiyotda va boshqa maqsadlar uchun foydalanish bilan bog‘liq fan va texnika sohasi. 1915-yilda birinchi marotaba mamlakatimizda, Toshkent shahrida katta quvvatli, uchqunli, qabul qilish-uzatish radiostansiyasi qurilib, ishga tushirildi. Katta elektromagnit bilan uchqunli razryad bo‘lishi ta’minlandi. Uning quvvat bazasi akkumulyator batareyasi va ikkita 160 kv’tli dizel generatordan iborat edi. Qalin simlar tizimi bilan nurli antennalar orqali o‘rnatilgan oltita 90 metrli metall machta «Simens-Galske»firmasi tomonidan loyihalangan va qurilgan edi.

Radiotexnika (radiova texnika)-1)elektromagnit tebranishlar va radiodiapazondagi (3-31012 Gs) to‘lqinlar, ularni generatsiyalash, kuchaytirish, nurlatish, qabul qilish hamda to‘lqinlardan foydalanish haqidagi fan; 2) texnikaning axborotlarni uzatishda – radio aloqa, radioeshittirish, televideniye, radiolokatsiya va radionavigatsiyada, mashina, mexanizm hamda texnologik jarayonlarni boshqarish va nazorat qilishda radiodiapazondagi to‘lqinlar bilan elektromagnit tebranishlarni qo‘llaydigan tarmog‘i.

Reyter - Angliyaning eng yirik axborot agentligi. 1851-yil Londonda Reyter (P.J.Reuter) tomonidan tashkil etilgan. Xususiy sohibkorlar tresti. Chet el xabarlarini tarqatadi.

Serial - janridagi filmlar syujeti bir necha ko‘p seriyadan iborat bo‘ladi. Ko‘pseriyali serial filmlar keyingi paytda televideniya ham tasvirga olinib TV-serial janriga asos solindi.

Sarguzasht fil’m janri syujeti aniq tarixiy-geografik xolatlarni o‘zida mujassam qilib, doimiy xarakatlarni aks ettiradi, bunda qaxramon turli xil nostandart vaziyatlardan qutilib chiqib ketish uchun o‘zining aqli va chaqqonligini ko‘rsatadi.

Televideniya (yunoncha *τήλε* -uzoq va lotincha *video*-ko‘raman) harakatlanayotgan tasvir va tovushni masofadan uzatish tizimidir. Televideniyaning ishlash prinsipi tasvir kadrini satrlarga bo‘lib uzatishga asoslangan. Kadrlar almashinishi chastotasi tasvir o‘zgarishi tezligiga qarab tanlanadi.

Televizion kamera – telekamera – obekinning optik tasvirini, tasvirning uzoqqa uzatish mumkin bo‘lgan elektr signallariga aylantirib beradigan apparat. Televizion ko‘rsatuvlar (telestudiya va telestudiyadan tashqaridan uzatiladigan, diktorlik va boshqalar) hamda san’at. Televizion kameralar oq-qora, rangli turlarga bo‘linadi.

Televizion antenna – televizion tasvir signallari va tovushni qabul qilish yoki tszatish uchun mo‘ljallangan qurilma. Ular uzatuvchi, qabul qiluvchi, metrli va dichimetrli diopozonda ishlaydigan turlarga ajratiladi.

Televizion minora – radiotelevizion uzatish stansiyasi; televideniya, radioeshittirish, radiotelefon va radiorele aloqasi antenalari o‘rnatiladigan tayanch bino yoki maxsu inshoot. Balandligi televizion stansiyaning ta’sir dadiusiga va uzatuvchi televizion antennaning soni hamda o‘lchamiga qarab belgilanadi. Televizion minora qanchalik baland bo‘lsa, antennalarning ta’sir doirasi shunchalik keng bo‘ladi. Teleminoraga bir nechta televizion antennalardan tashqari ul’traqisqa to‘lqinli

radioeshittirish antennalari, radioreleli aloqa, ko'chma radiotelefon antennalri o'rnatilishi mumkin. Ba'zan teleminora meteorologik kuzatish asboblari ham o'rnatiladi. Teleminoralar metal, yoki temir betondan turli me'moriy echimlarda quriladi. Katta shaharlardagi teleminoralarining ko'pida shahar manzarasini kuzatish uchun maydoncha, kafe yoki restoran bo'ladi. Minora ichga barcha kamunikatsiya vositalari, yuqorigi, ichki qismiga radio uzatkich va boshqa elektron jixozlar joylashtriladi.

Televizion studiya – tovushdan izolyatsiya qilingan xonadan iborat. Studiya devorlari va mini tovush yutuvchi materiallar bilan qoplanadi va kondensirlangan havo bilan majburiy shamollatadigan tizim bilan ta'minlanadi. Televizion studiya tarkibida muxarrirlar va rejisserlar, dastur tuzish, tayyorlash hamda uni ko'rsatish uchun xonalar bo'ladi.

Toshkent teleminorasi Ismail tomonidan qurilgan O'rta Osiyodagi eng baland binodir. Uning balandligi 375 metrdir. Rasmiy tilda Toshkent teleminorasi H-375 m obekti deb ataladi. Teleminora 1978-yildan boshlab, olti yil davomida qurib bitilgan. 1985-yilning 15-yanvarida ishga tushirilgan. Ishga tushirilayotgan paytida Toshkent teleminorasi jahonda balandligi bo'yicha to'rtinchi o'rinda turgan. O'shanda u Toronto, Moskva, Nyu-York va Tokiodagi inshootlar qatorida dunyoning buyuk minoralari xalqaro federatsiyasining a'zosiga aylangan. Bugungi kunda u Markaziy Osiyoning shu xildagi yagona va eng baland binosi hisoblanadi. MDH davlatlari teleminorolari ichida esa, Ostankinodan keyingi ikkinchi o'rinni egallaydi.

Toshkent xalqaro kinofestivali - film va ishtirokchilar soni jihatidan eng yirik kinofestivallardan. Fil'mlar rasmiy va informatsion dastur asosi" da namoyish etiladi. 1968-yildan

"Tinchlik, ijtimoiy taraqqiyot va xalqlar ozodligi uchun" shiori ostida o'tkaziladi. Dastlab konkurssiz, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarining kino sohasidagi yutuqlarini namoyish qilinishi bilan boshqa kinofestivallardan farq qilgan. Festival doirasi kinosi rivojlangan Yaponiya, Hindiston, Turkiya kabi davlatlar bilan bir katorada milliy kinosi endi shakllanayotgan davlatlarga ham mo'ljallangan. Senegallik rejisser Sembou Sene, marokashlik Suxayl Ben Barkalarning fil'mlarining ko'rigi ilk bor Toshkent xalqaro kinofestivalida namoyish etildi. Festival davomida matbuot konferensiyalari, ijodiy bahslar o'tkaziladi. Kundalik matbuot byulletenlari va "Kinofestival yo'ldoshi" gazeta, jurnallari festivalning kundalik faoliyatini yoritib boradi. Kinofestival 1988-yil 10-festivaldan boshlab konkursli bo'ldi va besh xil mukofot ta'sis etildi: eng yaxshi fil'm uchun bosh sovrin "Oltin semurg", eng yaxshi rejisserlik ishi uchun "Kumush semurg", eng yaxshi ayol roli uchun "Oltin lola", eng yaxshi erkak roli uchun "Oltin archa", milliy an'analar saqlangan filmlar uchun "Xoja Nasriddin" sovrinlari. Birinchi bosh sovringa "Hech qayerga sayohat" nomli hind filmi sazovor bo'ldi. Mustaqil bo'lgan Toshkent xalqaro kinofestivali "Xalqaro" maqomiga ega bo'lib, barcha xohlovchi davlatlar qatnashishi mumkin. 1992-yil 11-Toshkent xalqaro kinofestivali "Assalomu alaykum" shiori ostida o'tkazildi. Bosh sovrin avstraliya rejisseri Mark Noferin olgan "Spotvud" filmiga berildi. 12-Toshkent xalqaro kinofestivali 1997-yil Chingiz Aytmatov raisligida o'tkazilib, bosh sovrin Janubiy Koreyaning "Alvido, azizim" fil'miga berildi.

Triller – janrida ham kino qaxramonining kuchli og'ir bosimdagi ichki xissiyotlari, emotsiyalari, psixologik kechinmalari yorqin tasvirlarda ifodalanadi. Qaxramonining kuchli og'ir

bosimdagi xolati maxsus elementlar, effektlar, tabiiy psixologik qoʻrqinchli anomaliyalar fil'm syujetida aks etadi.

Hujjatli kino bu tasvirning asosiy materiali, mavzui oʻtmishda roʻy bergan faktlar, voqea-hodisalar, hozirgi zamonaviy voqelikning oʻzi boʻlishi mumkin. Barcha ifoda vositalari haqiqiy voqealarning mohiyatini, filmga asos qilib olingan haqiqiy inson taqdirining mohiyatini ochib berishga boʻysundiriladi. Bu kinosanʼat turining asosiy xususiyatlari-toʻgʻrilik, haqiqiylikdir. Bu kinoning filmlari obrazlilik, yuksak badiiyligi bilan ajralib turadi. Hujjatli kino ichidan xronikani yaʼni-biror voqea, faktni qisqacha izoh bilan beradigan tezkor kinoaxborotni farqlash kerak. Bu fil'mlarni kinoreportaj deb ham atash mumkin. Kinoxronika bugungi kunda televideniada keng ommalashgan.

“Oʻzbekfilm” — badiiy filmlar ishlab chiqaruvchi kinostudiya. “Oʻzbekkino” milliy agentligi tizimida. Dastlab 1925-yil 4-iyunda Toshkentda “Sharq yulduzi” nomi bilan kinostudiya tashkil boʻlgan. Shayxontohurdagi Eshonqul madrasasi binosiga joylashgan. 1925-26-yillar mobaynida 20 dan ortiq toʻla, 30 dan ortiq qisqa metrajli xronikal filmlar yaratilgan. 1932-yil “Sharq yulduzi” “Oʻzbekfilm” nomini oladi. 1930-yilgacha filmlarni, asosan, oʻzbek xalqining milliy anʼanalaridan yiroq rus rejissorlari ishlagan. 1930-yillardan oʻzbek rejissorlari mustaqil fil'mlar yarata boshlaganlar. 1939-yil kinostudiyaga “Toshkent kinostudiyasi” nomi berildi. Ikkinchi jahon urushi yillari Toshkentga evakuatsiya qilingan Ukraina, Belorussiya kinostudiyalari, “Mosfilm”, “Lenfilm” larning kelishi munosabati bilan “Birlashgan Toshkent kinostudiyasi” (titrda “Toshkent kinostudiyasi” deb yozilgan) nomi bilan yuritilgan. 1958-yildan yana hozirgi “Oʻzbekfilm” nomida faoliyat olib bordi. 1959-yilda “Oʻzbekfilm” Chilonzorda qurilgan yangi binoga koʻchib oʻtadi.

1960-yillardan boshlab kinostudiyada mavzu jihatdan boy, badiiy yoʻnalishi ravon, asosiy qahramoni yoshlar boʻlgan filʼmlar ustunlik qildi. Mustaqillikdan soʻng “Oʻzbekfilm”ning yangi tarixi boshlandi. Oʻzbek kinosini yaxshilash va rivojlantirish maqsadida 1992-1996 yillarda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan chiqarilgan qarorlar “Oʻzbekfilm”ni moliyalash va faoliyatini muvofiqlashtirishda sezilarli oʻzgarishlarga olib keldi. Shundan soʻng film mazmuni, qahramonlari va uslubida milliylik kuchaydi.

“Oʻzteleradio” ommaviy axborot vositalarining muassasasi, tahririyati, tarqatuvchisi va nashiri huquqlariga ega boʻladi. Uning Qoraqalpoʻiston Respublikasi, viloyatlarida hududiy boʻlimlari mavjud. 1957-yilda Oʻzbekiston radioshittirish va televideniya qoʻmitasi tashkil etildi. Qoʻmita 1992-yil 7-yanvarda Oʻzbekiston davlat teleradio eshittirish kompaniyasiga va Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 7-maydagi farmoni bilan esa “Oʻzbekiston teleradiokompaniyasi” “Oʻzteleradio”ga aylantirildi. “Oʻzteleradio” jahondagi koʻpgina yirik telekompaniyalar bilan jumladan Amerikaning CNN Germaniyaning DW, Yaponiyaning NKK, TBG FYJI Koreyaning KBS, Turkiyaning TRK Rossiyaning etakchi telekompaniyalari bilan keng tarmoqli aloqalarga ega. Oʻzteleradio Ukraina, Polsha, Hindiston, Misr teleradiotashkilotlari bilan oʻzaro doimiy dasturlar ayirboshlab turadi. Oʻzbekiston TB ning qator dasturlari GCOGA (AQSH) konsorptsumi hamkorligida internet orqali uzatilib boriladi.

“Oʻzbektelefilm” studiyasi 1970-yilda Oʻzbekiston televideniyesining kinokoʻrsatuvlar tahririyati negizida paydo boʻlgan. “Oʻzbektelefilm” studiyasida har yili 23 soatga yaqin hujjatli, 24 soatga yaqin badiiy filʼmlar yaratish koʻzda

tutilgan. Dublyaj bo‘limida bir yilda 550-600 soat atrofidagi fil’mlar o‘zbek va rus tillariga o‘giriladi.

Film-ertak janri turli xil ertaklar mazmuniga asosan tayyorlanadigan syujetdan iborat bo‘ladi.

Ujas – janridagi filmlar tomoshabinga yaxshigina jiddiy ta’sir ko‘rsatadi va qo‘rqinchli holatlarni aniq, xilma-xil, sirli tarzda tasvirlaydi. Ujas janridagi filmlar syujeti tomoshabinga xilma-xil tarzidagi qo‘rqinchli ko‘rinishlarni namoyon qiladi. Jumladan, vampirlar, mutantlar, o‘zga sayyoraliklar va boshqa ko‘rinishlarda tomoshabinga ta’sir ko‘rsatib qo‘rqitadi.

Eyfel minorasi - Gustave Eyffel loyihasi bo‘yicha Parijda qurilgan metall minora bo‘lib Fransiya timsoli sifatida dunyoga tanilgan. 19-asr texnikasi yutug‘i ramzi sifatida Minora 1889-yildagi Umumjahon ko‘rgazmasi uchun qurilgan. 1931-yilgacha dunyoning eng baland va og‘ir inshooti hisoblangan. Balandligi 300 metrga yaqin, massasi 9 ming tonna, shundan 7,3 ming tonnasi metall konstruksiyalar. Minoraning quyi qismi kvadrat piramida shaklida, uchida pavilon va mayoq bor, tepasida diametri 1,7 metrli maydoncha qurilgan. Radioeshittirish va teleko‘rsatuvlarning muhim markazi hisoblanadi. Eyfel minorasini qurishda metall konstruksiyalarni montaj qilishning o‘sha davr uchun eng ilg‘or hisoblangan usullari qo‘llangan. Eyfel minorasi Parij aholisi va sayyohlar uchun eng qiziqarli ko‘ngilochar maskan hisoblanadi. Parijning eng taniqli me’morchilik namunasi bo‘lib, yiliga 5,5 million kishi tashrif buyuruvchi turizmning mashxur obektidir.

San’at – borliqni badiiy obrazlar orqali aks ettirish.

Kino san’ati – kinematografiyaning texnik vositalari asosida shakllangan badiiy ijod turi, ekran san’atining muhim tarkibiy qismi.

Televideniye san'ati – harakatlanayotgan tasvir va tovushni masofadan uzatishga asoslangan san'at turi. Axborot tarqatish vositalaridan biri.

Radio san'ati – axborotlarni radioto'lqin orqali uzatishga asoslangan san'at turi. Axborotlar uzoq masofadan simsiz uzatiladi va qabul qilinadi.

Ssenariy – italyanча so'z bo'lib, kinoda, televideniya teatrлари qo'yiladigan pesalar ommaviy tomoshalar dasturi, rejasi, syujet, sxemasi. Kirish payti, chiqish vaziyatidir.

Badiiy obraz – real voqelikning yaxlit konkret aksi shaklida o'ziga xos estetik sifatlarida namoyon bo'la olishi.

Giperbola – atamasining tub ildizi grek halq so'ziga mansub bo'lib, huperbole – mubolag'a ma'nosini anglatadi. Giperbola u yoki bu narsa, xususiyat, voqea va belgini o'ta kuchaytirib, orttirib tasvirlash vositasi hisoblanadi. Mubolag'a vositasida ijodkor tasvirlayotgan obektni boshqa obektlardan ajratib, bo'rttirib ko'rsatish, uni goh maqtash; goh masxaralashga erishadi.

Dekoratsiya – dekorativ jihozda mujassam bo'lgan fikrning muallif stilistikasiga, asarning xarakteri va janriga mosligi

Peripetiya – syujetda ustalik bilan yasalgan qaltis-badiiy effektli xatti-harakatlarning rivojlanish shakli.

Rejissura – spektakl yaratish san'ati.

Rejissyor – teatr jamoasining rahbari. barcha ijodiy xodimlarning mehnatini yagona g'oyaviy - badiiy fikr atrofida mujassam etib sahna yoki ekran asari yaratuvchi ijodkor rahbar.

Aktor – spektaklda markaziy figura.

Dramaturgiya – teatr san'atining asosi.

Ssenariy – italyanча so'z bo'lib, kinoda, televideniya teatrлари qo'yiladigan pesalar ommaviy tomoshalar dasturi, rejasi, syujet, sxemasi.

Janr – asarda aks ettirilayotgan voqelikni o‘ziga xosligi va unga nisbatan muallif (dramaturg, bastakor, kompozitor, rassom va hokazo) munosabatining xarakteri bilan shartlangan kompozitsion tizim birligi.

Drama – grek halq iborasiga mansub, uning asil ma’nosi “harakat” demakdir. Jiddiy, murakkab va o‘tkir xarakterlar konflikti.

Tragediya – grekcha tragos-echki va ode- qo‘shiq so‘zlaridan olingan bo‘lib, fojea ma’nosini anglatadi. Kelishtirib bo‘lmas kuchlar o‘rtasidagi konfliktga asoslanib, qahramonning o‘limi yoki keskin mag‘lubiyati bilan tugashi.

Komediya – grekcha *comos* – xushchaqchaq olomon va *oide* – qo‘shiq so‘zlaridan olingan bo‘lib, dramatik turga mansub janrlardan biri. Asosan butun voqealar, xarakterlar, kolliziya kulgi fonida tasvirlanadi. Kulgi, komizminson va jamiyat hayotidagi ziddiyatlar ustidan hajv qilish yoki yengil yumor vositalaridan biridir.

Grotesk – italiancha (grotto- yer osti so‘zidan olingan bo‘lib) obrazni haddan tashqari mubolag‘ali tasvirlash usulini anglatadi. Komediya ham, epik asarlarda ham obraz shu qadar orttirilgan mubolag‘a bilan tasvirlanadiki, u o‘zining real qiyofasini yo‘qotib, fantastik qiyofa kasb etishgacha boradi

Voqea – san’at asarlaridagi, jumladan dramaturgiyadagi struktura(tuzim)ni yuzaga keltiruvchi asos.

Voqealar rivoji – tugun bo‘lib qolgan muammolarni hal bo‘lishi yo‘lidagi hatti-harakat va kurashlar bu voqealarning rivojidir.

Mavzu – zamonaviy yoki tarixiy voqealar asosida jamiyat hayoti, voqelikni aks ettirishga qaratilgan muallif fikri - g‘oyalaridir. Aynan shu voqelik asosida mavzu rivojlantiriladi.

Material – tanlangan mavzuga daxldor aniq hayotiy hodisalarning muallif tomonidan badiiy umumlashma, tipiklashtirish yohud asl holicha (tarixiy hujjat sifatida) o‘z asariga kiritishi.

Mizanssena – mizansahnalar. Rejissyor asosiy fikrini tomoshabinga yetkazilishiga xizmat qiluvchi ifoda vositalaridan biri.

G‘oya – asarning bosh fikri. Asarning g‘oyaviyligi tushunchasi.

Syujet – fransuzcha so‘z bo‘lib, adabiy asarning asosiy mazmuni: badiiy asar mazmuni va undagi qahramonlar xarakterini ochib beridigan o‘z aro uzviy bog‘langan voqealar, hodisalar tizmasi

Stil - pesaning g‘oyaviy badiiy o‘ziga xosliklarining yig‘indisi

So‘z - dramaturg uchun yakka-yu yagona ifoda va badiiy vositadir. Adabiyotning epos, lirika, drama kabi turlarining qiyosiy xarakteristikasi.

Konflikt – dramatik yoki boshqa turdagi barcha san‘at asarlarining o‘zagi, uni harakatga keltiruvchi kuch.

Kulminatsiya – lotincha cho‘qqi. Konflikt va syujetning rivoji alanglanib, eng juda qaltis, yuqori darajasiga kelishi. Kulminatsiya voqealar bilan xarakterlar to‘qnashuvi eng o‘tkir, xal qiluvchi holati.

Dramatik kolliziya– dramatik konflikt yuzaga kelgunga qadar kechuvchi vaziyat (situatsiya).

Remarka – pesada ssenariyda bir qancha funksiyalarni bajaradi. Dramaturgni bevosita o‘z fikrini bildiradigan birdan-bir manba, remarkadir. Birinchidan remarkalarda personajlarga qandaydir ta’rif beriladi. Ularning vaziyati, qilmishi, boshqa

shaxslarga va yuz bergan voqealarga munosabati ham izhor etiladi.

Repertuar – teatr jamoasining g‘oyaviy hamda ijodiy hayotini ifodalovchi oyna.

Prolog – yozilgan asar haqida muqadimma.

Epilog – xotima. Mazmuni to‘laligi uchun kerakli ba‘zi qo‘shimcha ma‘lumotni tomoshabinga yetkazish uchun yozilgan qism. Yozilgan asar haqidagi xulosa.

Ekspozitsiya – konflikt boshlanishi oldidan keladigan muqadimma.

Epizod – u yoki bu darajada voqeaning tugallagan qismi. Alohida voqeaning kichik bir bo‘lagi.

Epigraf – yunoncha “yozuv” degan ma‘noni anglatadi. Topib qo‘llanilgan epigraf asarning tub mohiyatini anglatadi va asar sarlavhasidan keyin yoziladi.

Kompozitsiya – asosiy voqealar va ularda beto‘xtov rivojlanuvchi harakat bosqichlari.

Kurash va qarshiliklarni yengish - harakatni rivojlantirish uchun zarur shart –sharoit.

Tugun –asarning asosiy ziddiyati ya’ni (konflikt)ning yuzaga kelish lahzasi. Kulminatsiya xatti-harakat, voqea va hodisalarning eng kuchaygan konfliktning nihoyatda o‘tkirlashgan lahzasi.

Yechim – asar konfliktining hal bo‘lish lahzasi. Yakun (final)-asardagi asosiy konflikt yechimini topgandan keyin qahramonlar yangi maqom, yangi o‘rinlarini o‘zida aks ettirgan hissiy mazmundor xulosa. Yakun – dramatik asarning kompozitsion butunligi mezoni sifatida.

Harakat – sahna san’atining asosi. Biror maqsadni amalga oshirilishiga qaratilgan "organik psixofizik protsess".

Xatti – harakat – dramatik asar qahramoni qilmishidagi ma'lum irodaviy akt (ya'ni harakat).

Improvizatsiya – badihaviy qobiliyat.

Monolog – personajni hayot haqidagi eng muhim o'ylari bir joyga yig'ib, yorqin ifoda etish, personaj tomonidan boshqalarni yo'qligida yoki ularni jim turgan holda aytilgan katta nutq “monolog” deb ataladi. (Monolog “yunoncha”-“bitta nutq”, “yakka nutq” demakdir) Monolog personajni ichki dunyosini, uni o'z tili bilan batafsil va hayajonli tarzda ochib beradi.

Tarixiy drama – dramatik asarda dialoglar, voqealar, obrazlar silsilasi, xatti-harakat manbalariga tayangan holda o'tmishni, o'tmish shaxslar hayotini aks ettirgan sahna asari tarixiy mavzuda yaratilgan drama deb atashga asos bo'la oladi. Tarixiy drama drama qonuniyatlarining barcha komponentlariga tayangan holda, o'sha hayotning keskin to'qnashuvlar, rang-barang hayotiy tomoshalar, uzliksiz kurashlari saxnaviy talqin orqali, qisqa va lo'nda jonli voqealar orqali hal etiladi.

Diolog – ikki va undan ortiq personaj o'rtasida bo'lgan suhbat. Diologlarni eng xarakterli hususiyati so'zlashuvchi personajlar orasida qizg'in fikriy tortishuv mavjudligidir. (Diolog lotinchada “Suhbat”, “Bahs” “tortishuv”) ma'nosini anglatadi.

Obraz – ijodkor - muallifning ijodiy tafakkurining tavsifi sifati.

Simvolizm – (yunon tilidan olingan bo'lib, belgi, ramz, timsol yoki ularning majmui) XIX asr oxiri – XX asrning boshlarida vujudga kelgan adabiy-falsafiy oqim.

Til – talaffuz o'zida ohangdorlik, ma'naviy butunlik, xarakteri, hususiyatlar bilan birga muhim ahamiyatga kasb etadi. Personajlar sharoitga qarab, kerakli onda shunday luqma

tashlashlari kerakki, ular shu vaziyatda bundan boshqacha gapira olishlari mumkin emas degan xulosaga kelishlari kerak.

Xarakter– yunoncha hususiyat, sifat, belgi ma'nosini anglatadi. Xarakter keng qamrovli atama bo'lib, o'z ichiga katta ma'noni oladi. Qahramon ham, obraz ham, personaj ham o'z mohiyatlari bilan xarakterga borib bog'lanadi va uning tub ma'nosini bildiradi.

Final – (xotima, yakuniy) voqeani yetakchi xatti - harakat bo'yicha kurashlarning yakunlanishini bildiruvchilik xususiyati.

Fabula–ssenariy syujetni tashkil qiluvchi badiiy sintez materiallardir. Badiiy asarda tasivrlangan voqeani izchil bayoni, voqealarni rivojlanish sxemasi


Replika – personajni xatti - harakat faolligiga olib keladi.

КУРС ИШЛАРИ УЧУН МАВЗУЛАР

1. Kinematografiyaning vujudga kelishi va shakllanishi.
2. Fransiya kinosi.
3. AQSH kinosi. Amerika kino sanoati paydo bo‘lishi.
4. 1920 yillarda Amerika kinosi. 1909-1929 yillarda Germaniya kinosi.
5. 1920 yillarda Rossiya kinosi.
6. Milliy kinoning vujudga kelishi.
7. 20-30 yillarda O‘zbek kinosi.
8. Kinoga ovoz kelishi. 30 yillarda Fransiya kinosi.
9. 30 yillarda Buyuk Britaniya kinosi. Gollivud “oltin asri”.
10. Urush oldingi davrdagi Rossiya kinosi. 40 yilladra Rossiya kinosi.
11. 1930 yillarda Germaniya kinosi. Ikkinchi jahon urushi paytida AQSH, Buyuk Britaniya kinosi.
12. 1940 yillarda milliy kino.
13. Neorealizm. Urushdan keyingi o‘n yil ichida Italiya kinosi.
14. Fransiya kinosida “Yangi to‘lqin”. GFR “Yangi kino” (1950-1970).
15. 1950-1970 yillarda AQSH va Angliya kinosi.
16. 1950-1960 yillarda Rossiya kinosi.
17. 1970-1980 yillarda Rossiya kinosi.
18. 1950-1970 yillarda milliy kino.
19. 1980-2000 yillarda AQSH va Buyuk Britaniya kinosi.
20. 1980-2000 yillarda Fransiya, Italiya va GFR kinosi.
21. 1980 yillarda milliy kino. Mustaqillik yillarda o‘zbek kinosi.
22. Xitoy kinematografi tarixi.
23. Hindiston kinematografi tarixi.

TARQATMA MATERIALLAR

1-ilova. Radio tarixi



Radio ixtirochi Gulelmo Markoni (Italiya 1874-1937) va uning radio aparati



Radio ixtirochi Aleksandr Popov (Tobol'sk, Rossiya 1901-1966) va u yaratgan radio




1931-yil yaratilgan radiopriyomnik 1961-yil yaratilgan radiopriyomnik



1963-yilda yaratilgan plastinkali radiopriyomnik.

2-ilova. Televizorlarni ishlab chiqarilishi tarixi



1934-yilda ishlab chiqarilgan mexanik televizor "B-2" modeli



1938-yil ishlab chiqarilgan televizor. TK-1, ELT modeli.



1949-yil ishlab chiqarilgan televizorlar. “KVN-49”.



1956-yil ishlab chiqarilgan Rekord televizori



“KVN” televizori ixtirochilari: Kenigson V.K., Varshavskiy N.M., Nikolayevskiy I.A.



**1954-yil ishlab chiqarilgan birinchi rangli televizorlar.
CBS RX-40**



**1960-yillarda ishlab chiqarilgan "Raduga" va "Temp" rangli
televizorlari.**



1961-yilda ishlab chiqarilgan Thomson rangli televizorlari.



1970-yillarda ishlab chiqarilgan "Elektronika" rangli televizorlari.



1977-yilda ishlab chiqarilgan "Slavutich TS-202" rangli televizori



1984-yilda ishlab chiqarilgan “Elektron TS-380” rangli televizori



1984-yilda ishlab chiqarilgan “Elektron” va “Gorizont” rangli televizorlari.





1990-yil ishlab chiqarilgan LG. va Philips rangli televizorlari



Bugungi kunda ishlab chiqarilayotgan zamonaviy televizorlar ko‘rinishi

3-ilova. Kino ixtirochilari aka-uka Oguyust Lui Mari Nikolya Lyumer (1862-1954) va Lui Jan Lyumer (1864-1948) lar






4-ilova. Xalqaro kinomukofotlari

	Kinopremiyalar nomi		
	<p> <u>Oskar</u> Academy Awards, Oscar Los-Andjeles, Kaliforniya, AQSH http://www.oscar.com/</p>	<p><u>1929 - 2016</u></p>	
	<p> Oltin globus Golden Globes Los-Andjeles, Kaliforniya, AQSH http://www.goldenglobes.com/</p>	<p><u>1944 - 2016</u></p>	
	<p> <u>Britaniya akademiyasi mukofoti</u> BAFTA Awards Angliya, Buyukbritaniya http://www.bafta.org/</p>	<p><u>1948 - 2016</u></p>	
	<p> <u>Sezar</u> Cèsar Awards Parij, Fransiya http://www.cesarducinema.com/</p>	<p><u>1976 - 2015</u></p>	
	<p> <u>Aktyorlar Gildiyasi mukofoti</u> Screen Actors Guild Los-Andjeles, Kaliforniya, AQSH http://www.sagawards.org/</p>	<p><u>1995 - 2016</u></p>	

<p> <u>Nika</u> ”Nika” milliy kinematografiya mukofoti Moskva, Rossiya http://kino-nika.com/</p>	<p><u>1988 - 2015</u></p>	
<p> Oltin burgut Milliy kinematografiya mukofoti “Oltin burgut” Moskva, Rossiya http://www.kinoacademy.ru/</p>	<p><u>2003 - 2015</u></p>	
<p> <u>Saturn</u> Academy of Science Fiction, Fantasy & Horror Films AQSH http://www.saturnawards.org/</p>	<p><u>1973 - 2015</u></p>	
<p> <u>Goyya</u> Goya Award Madrid, Ispaniya http://www.academiadecine.com/</p>	<p><u>1987 - 2015</u></p>	
<p> <u>Emmi</u> Emmy Awards AQSH http://www.emmys.tv/</p>	<p><u>1949 - 2015</u></p>	

<p>🇺🇸 <u>Osiyo kinoakademiyasi</u> mukofoti Asian Film Awards Gonkong, Xitoy http://www.asianfilmawards.com .asia/</p>	<p><u>2007</u> - <u>2015</u></p>	
<p>🇪🇺 <u>Yevropa</u> Kinoakademiyasi mukofoti European Film Awards yevropa http://www.europeanfilmacademy.org/</p>	<p><u>1988</u> - <u>2015</u></p>	
<p>🇺🇸 <u>«MTV»kanali mukofoti</u> MTV Movie Awards AQSH http://www.mtv.com/</p>	<p><u>1992</u> - <u>2015</u></p>	
<p>🇷🇺 <u>«MTV-Rossiya»</u> Kinomukofoti MTV-Russia Movie Awards Moskva, Rossiya</p>	<p><u>2006</u> - <u>2014</u></p>	
<p>🇺🇸 <u>Oltin malina</u> Razzie Awards Los-Andjeles, Kaliforniya AQSH http://www.razzies.com/</p>	<p><u>1981</u> - <u>2015</u></p>	

<p> Jori Moskva http://www.national-movie-awards.ru/</p>	<p><u>2005</u> - <u>2015</u></p>	
<p>Oltin Gepard Toshkent, O‘zbekiston</p>	<p>2010 - 2013</p>	
<p>Xalqaro kinofestival mukofotlari</p>		
<p> Kann kinofestivali Cannes Film Festival Kann, Fransiya http://www.festival-cannes.fr/</p>	<p><u>1939</u> - <u>2015</u></p>	
<p> Berlin kinofestivali Berlin International Film Festival Berlin, Germaniya http://www.berlinale.de/</p>	<p><u>1951</u> - <u>2015</u></p>	
<p> Venetsiya kinofestivali Venice Film Festival Venetsiya, Italiya http://www.labiennale.org/</p>	<p><u>1932</u> - <u>2015</u></p>	
<p> MMKF Moskva Halqaro Kinofestivali Moskva, Rossiya</p>	<p><u>1935</u> - <u>2015</u></p>	

	http://www.moscowfilmfestival.ru/		
 <u>Karlovi Vari</u> Karlovy Vary International Film Festival Karlovi Vari, Chexiya http://www.kviff.com/	<u>1948 - 2015</u>		
 <u>Kinotavr</u> Kinotavr Rossiya kinofestivali Rossiya, Sochi http://www.kinotavr.ru/	<u>1991 - 2015</u>	 <small>ОТКРЫТЫЙ РОССИЙСКИЙ КИНОФЕСТИВАЛЬ КИНОТАВР</small>	
 <u>San-Sebastyan</u> San Sebastián International Film Festival San-Sebastyan, Ispaniya http://www.sansebastianfestival.com/	<u>1953 - 2015</u>		
 <u>Sandens</u> Sundance Film Festival Park Siti, Yuta, AQSH http://www.sundance.org/	<u>1985 - 2016</u>		
IFFI Hindiston halqaro kinofestivali-Internationala <i>Film Festival of India, IFFI</i>	1952 - 2016	 <small>46TH INTERNATIONAL FILM FESTIVAL OF INDIA, GOA (20th - 26th NOVEMBER, 2012)</small>	

	<i>Bombey, Hindiston</i>		
	Misr halqaro kinofestivali مهرجان القاهرة السينمائي الدولي Cairo International Film Festival Qoxira, Misr	1976 - 2016	
	Tokio halqaro kinofestivali Tokio, Yaponiya	1985 – 2016	Priz “Sakura Tokio”
	«Qorong‘i tun» Tallin halqaro kinofestivali - Pimedate Ööde Filmifestival; Tallin, Estoniya	1997 - 2016	
	Monreal halqaro kinofestivali - Le Festival des films du monde. Monreal, Kanada	2004 - 2016	
	Mar-del-Plata halqaro kinofestivali-Festival Internacional de Cine de Mar del Plata Mar-del-Plata, Argentina	1954-2016	

5-ilova. Dunyodagi eng baland teleminoralar



1987-1989-yillarda qurilgan Eyfel minorasi. Balandligi
324 metr. Parij, Fransiya



**1960-1967-yillarda qurilgan Ostankino
teleminorasi. Balandligi 540 metr.
Moskva,
RossiY.**



978-1985-yillarda qurilgan Toshkent teleminorasi. Balandligi 375 metr. Toshkent, O‘zbekiston.



1976-yilda qurilgan Si-En Tauer (*CN Tower*). Balandligi 550 metr. Toronto, Kanada.



**2004-2010-yillarda qurilgan
dunyodagi eng baland “Burdj-
Xalifa” teleminorasi. Balandligi
828 metr. Dubay, BAA.**



**2005-2009-yillarda qurilgan Guanchjou
teleminorasi (Canton Tower). Balandligi
600 metr. Guanchjou, Xitoy.**



**2008-2012-yillarda qurilgan Tokio
teleminorasi (Tokyo Skytree).
Balandligi 634 metr. Sumida, Tokio,
Yaponiya**

6-ilova. YUNESKOning oltin fondiga kiritilgan O‘zbek fil’mlari ro‘yhati.

	Yaratilgan yillari	Nomlanishi	Rol ijrochilari
1	<u>1933</u>	O‘tgan tong	<u>Soib Xo‘jaev</u> , Afandixon, Mirshoxid
2	<u>1937</u>	Qasam	Asad Ismatov, Yatim Babadjanov
3	<u>1943</u>	Nasriddin Buxorod	<u>Lev Sverdlin</u>
4	<u>1945</u>	Tohir va Zuhra	Gulyam Aglaev, Yulduz Rizaeva
5	<u>1948</u>	Alisher Navoiy	Razaq Xamraev, Asat Ismatov
6	<u>1962</u>	Sen yetim emassar	<u>Lutfi Sarimsaqova</u> , <u>Obid Djalilov</u>
7	<u>1967</u>	Muloyim	<u>Rodion Naxapetov</u> , <u>Rustam Sagdullaev</u> , <u>Mariya Sternikova</u>
8	<u>1968</u>	Toshkent – non shal	Vladimir Vorobey, VovaKudenko, BaxtiyorNabiev
9	<u>1969</u>	O‘tgan kunlar	<u>Ulmas Alixodjaev</u> , Gulchexra Jamilova, Abba Bakirov
10	<u>1971</u>	Qo‘rqmas	Rustam Sagdullaev, <u>Yaqub Axmedov</u> , Bolot Beyshenaliev
11	<u>1974</u>	Abu Rayhon Berun	Po‘lat Saidqasimov, Baxtiy Shukurov, <u>Razzoq Xamraev</u>
12		Chuchuk olh’ri	Shoxida Gafurova

	<u>1975</u>		
13	<u>1975</u>	Insonlar qushlar ortidan ketmoqda	<u>Djanik Fayziev, Dilorom Qambarova</u>
14	<u>1977</u>	Shum bola	Abduraim Abduvaxobov, Saidkarim Saidaripov, Xamza Umarov
15	<u>1982</u>	Yoshlik davri	Baxtiyor Zakirov, Furqat Fayziev, Ato Muxamedjanov
16	<u>1989</u>	Siz kimsiz	Baxtiyor Zakirov, Elyor Nasirov, Tulqin Tadjiev
17	<u>1991</u>	Abdullajon	Tuti Yusupova, Radjab Adashev

TESTLAR

I – V A R I A N T

1. Yuksak mahorat - ...

- A. San'at
- B. Mexnat
- C. Ijod
- D. Barcha javoblar to'g'ri

2. Kino va televideniyaning o'xshash tomonlari

- A. Ekranga proyeksiyalashi
- B. Tasvir
- C. Rejissura
- D. Mavzular

3. Film va teleko'rsatuvlar asosi

- A. Ssenariy
- B. G'oya
- C. Tasvir yechimi
- D. Mavzu

4. Syomka paytida yozib olingan ovozli material

- A. Sinxron
- B. Dialog
- C. Monolog
- D. Intershum

5. Kino, tele-spektaklda aktyor ifoda etayotgan obraz

- A. Taqdir
- B. Rol
- C. Xarakter
- D. Repriza

6. Yaponiyaning o'quv televideniyesi

- A. NHK

B. VIP

C. AR

D. Ey-Bi-Si

7.Kino va telefilm nima bilan farq qiladi

A. O‘zlashtirish muxidi

B. Ekran xajmi

C. Ovozi balandligi

D. Sifat miqdori

8.Kino va televideniye qanday san’at turi

A. Tasviriy

B. Xarakatlangan

C. Ovozlashtirilgan-tomoshobop

D. Ifodali

9.Xalqaro Toshkent birinchi kinofestivali nechanchi yili o‘tkazilgan,bosh sovrini

A. 1968 y. «Oltin semurg»

B. 1970 y. «Oltin archa»

C. 1972 y. «Oltin lola»

D. 1974 y. «Griffon»

10. Kim tomonidan birinchi multfilm yaratildi

A. Fransiya Emil Kol

B. AKSH Uolt Disney

C. Rossiya Starevich Vladislavslav Aleksandrovich

D. Chexoslovakiya Karel Zeyeman

11. Ikkinchi jaxon urushi paytida Uzbekistonga kaysi kinostudiyalar evakuatsiya kilingan

A. Mosfilm»

B. Ukraina k\st, Odessa k\st

C. Bolgariya kst.

D. Latviya k\st. Belorussiya k\st

12. Televideniya kim birinchi bulib ishlatgan
- A. Perskiy Dmitriy Konstantinovich Peterburg universitet pedagogi, fizik, xarbiy
 - B. Karl Braun Strasburg universiteti professori
 - C. Ingliz fiziki Djozef Djon Tompson
 - D. Portugaliyalik professor Andriano de Payva
13. «Novosti», «Yangiliklar», «Vremya» kursatuvlari televideniyaning kaysi turiga kiradi?
- A. Tok-shou
 - B. Badiiy kursatular
 - C. Mustakil kursatuvlar
 - D. Axborot kursatuvlar
14. Elektron nurli trubkani masofadan, tasvirni kursatish uchun kim birinchi bulib ishlatdi?
- A. Boris Rozing
 - B. Ivan Belyanskiy
 - C. Boris Grab
 - D. Paul Nipkov
15. Birinchi ovoqli film (kinostudiya)
- A. Djaz xonandasi»-Pevets djaza «Uorner Brayzers»komp
 - B. «Putevka v jizn» k-s «Mosfilm»
 - C. «Klyatva» k-s «Shark yulduzi»
 - D. «Ivan Grozniy» k-s «Mosfilm»
16. Filmning tarkibiy kismiga kirgan barcha komponentlarni birlashtiruvchi inson
- A. Rejisser
 - B. Montajchi
 - C. Prodyuser
 - D. Operator
17. Birinchi teleseriallar qayerda olingan

- A. Rossiyada «Ekran» studiyasida
- B. AKSH Gollivud markazida
- C. Braziliyada Embrafilm fir-masida
- D. Xindiston Bollivudda

18. Yuzasiga uzatilgan telekino, yoki fotografik tasviri tushadigan tekislik

- A. Kompyuter
- B. Videokamera
- C. Ekran -frans. yekran- parda. Mato, plyonka, shisha, plastinadan ishlanadi.
- D. Monitor

19. Qaysi shaxarda va nechanchi yilda birinchi ommaviy kino-namoyishlar uyushtirilgan edi

- A. Parijda 1895 y
- B. Londonda 1895 y.
- C. Venetsiyada 1985 y
- D. Nyu-Yorkda 1893 y

20. Usul sifatida paralel montaj va yirik planni birinchi bulib kim kullagan

- A. Kinorejisser Devid Uork Griffit
- B. Kinooperator-rejisser Dziga Vertov
- C. Kinofabrikant Aleksey Xanjonkov
- D. Kinossenarist va rejisser Jyul Dassen

21. Birinchi fantastik filmi rejisseri

- A. Frederiko Fellini (Italiya)
- B. Luis Bunyuel (Ispaniya)
- C. Stiven Spilberg (Amerika)
- D. Jorj Meles (Fransiya)

22. Birinchi filmlar kaysi uslubga loyiq

- A. Primitivizm (Fransiya)

- B. Kammershpil (Germaniya)
 - C. Neorealizm (Italiya)
 - D. Monumentalizm (AKSH)
23. Radio va televideniye orqali reklama berishning eng qulay vaqti
- A. Pik-taym
 - B. Pauza
 - C. Tanaffus
 - D. Antrakt
24. Gollivud
- A. Markaz
 - B. Shaxar
 - C. Shtat
 - D. Xudud
25. Bilimning biror soxasiga oid asosiy g'oyalar tizimi
- A. Tanqid
 - B. Monolog
 - C. Nazariya
 - D. Ma'ruza
26. Yuksak maxorat
- A. San'at
 - B. Mexnat
 - C. Ijod
 - D. Barcha javoblar to'g'ri
27. Semka paytida yozib olingan ovozli materil
- A. Monolog
 - B. Dialog
 - C. Sinxron
 - D. Intershum

28. Badiiy asar (roman, qissa, hikoya va b.) asosida film yaratish shakli

- A. Ekranlashtirish
- B. Tasmaga olish
- C. Ssenariy yozish
- D. Saxnalashtirish

29. «Kinematograf» soʻzini maʼnosi

- A. Grek.-kinematos-xarakat grapho -yozish, tasvirlash
- B. Kungil ochish vositasi
- C. Davr oynasi
- D. Ilm-maʼrifat quroli

30. Elektron televideniye asoschisi kim?

- A. K.D. Perskiy.
- B. S.M. Rozing.
- C. V. Zvorikin.
- D. Bancha javoblar toʻgʻri.

31. Sinematograf vatani

- A. Fransiya
- B. AQSH
- C. Germaniya
- D. Rossiya

32. Tasvir koʻrish avtomatqutisi - «kinetoskop» ixtirochisi

- A. Tomas Edison
- B. Lui Lyumer
- C. Genrix Geyl
- D. Uilyam Dikson

33. Ijodning bir yoʻnalishdagi birligini belgilovchi ifoda va vositalar majmui

- A. Shakl
- B. Uslub

- C. Tur
 D. Kompozitsiya
34. Vesternlar qaysi janrlar turiga kiritiladi
 A. Boyevik
 B. Sarguzasht
 C. Komediya
 D. Triller
35. Tovushni yozish va qayta tiklash uskunasi - fonograf nechanchi yil va kim tomonidan kashf etilgan
 A. Tomas Edison 1877 y. Amerika ixtirochisi
 B. Aleksandr Popov 1905 y. Rossiya ixtirochisi
 C. Eduard Branli Fransiyalik fizik 1896 y.
 D. Oliver Lodj Angliyalik fizik 1897 y
36. Birlashgan, yaxtlikni xosil qiluvchi
 A. Unitar
 B. Kompaniya
 C. Aksiyadorlik
 D. Avtonomiya

Javoblar

1 – D	11 – A	21 – D	
2 – A	12 – A	22 – A	
3 – A	13 – D	23 – A	31 – A
4 – A	14 – A	24 – A	32 – A
5 – V	15 – A	25 – V	33 – V
6 – A	16 – A	26 – A	34 – A
7 – A	17 – V	27 – S	35 – A
8 – S	18 – S	28 – A	36 – A
9 – A	19 – A	29 – A	
10 – A	20 – A	30 – S	

II – V A R I A N T

1. Kim tomonidan birinchi multfilm yaratildi

E. Fransiya Emil Kol

F. AQSH Uolt Disney

G. Rossiya Starevich Vladislavslav Aleksandrovich

H. Chexoslovakiya Karel Zeyeman

2. Kinokamera xarakati

A. Trevelling

B. Kontratip

C. Perforatsiya

D. Rapid

3. Rapid

A. Sekinlashtirilgan syomka

B. Tezlashtirilgan syomka

C. «Stop» usuli

D. Mikrosyomka

4. Mixail Ilich Romm «Oddiy fashizm» («Obiknovenniy fashizm») xujjatli filmini nechanchi yili yaratgan

A. 1966 y.

B. 1945 y.

C. 1950 y.

D. 1970 y.

5. «Sen yetim emassan» filmi kinorejisseri

A. Yuldosh A'zamov

B. Komil Yormatov

C. Shuxrat Abbasov

D. Latif Fayziyev

6. Kinorejisser Latif Fayziyev tomonidan xorijiy kinostudiyalar bilan yaratgan blokbaster

- A. Ali-bobo va qirq qaroqchi»
- B. «Sevgi afsonasi»
- C. Ganga kizi
- D. Ulugbek yulduzi

7. Xorijiy k\san' atkorlar bilan filmlar yaratgan zamon-dosh uzb. rejisseri

- A. Zulfikor Musokov
- B. Xilol Nasimov
- C. Ayub Shaxobiddinov
- D. Yusuf Rozikov

8. Televideniye suzi kachon ishlatila boshladi

- A. 1900 y. – Parijda-1U Xalkaro elektrotexnik.kongress
- B. 1928 y. Berlinda kurgazma
- C. 1907 y. Peterburg Universiteti
- D. 1911 y. Angliya

9. Televideniya kim birinchi bulib ishlatgan

- E. Perskiy Dmitriy Konstantinovich Peterburg universitet pedagogi, fizik, xarbiy
- F. Karl Braun Strasburg universiteti professori
- G. Ingliz fiziki Djozef Djon Tompson
- H. Portugaliyalik professor Andriano de Payva

10. «Novosti», «Yangiliklar», «Vremya» kaysi Televideniye-nig kursatuv-larning kaysi turiga kiradi?

- E. Axborot kursatuvlar
- F. Badiiy kursatular
- G. Mustakil kursatuvlar
- H. Tok-shou

11. Elektron nurli trubkani masofadan, tasvirni kursatish uchun kim birinchi bulib ishlatdi?

- E. Ivan Belyanskiy

- F. Boris Rozing
 - G. Boris Grab
 - H. Paul Nipkov
12. Birinchi ovozli film (kinostudiya)
- E. «Putevka v jizn» k-s «Mosfilm»
 - F. «Klyatva» k-s «Shark yulduzi»
 - G. Djaz xonandasi»-Pevets djaza «Uorner Brayzers»komp
 - H. «Ivan Grozniy» k-s «Mosfilm»
13. Filmning tarkibiy qismiga kirgan barcha komponentlarni birlashtiruvchi inson
- A. Montajchi
 - B. Prodyuser
 - C. Rejisser
 - D. Operator
14. Birinchi teleseriallar qayerda olingan
- A. Braziliyada Embrafilm fir-masida
 - B. Rossiyada «Ekran» studiyasida
 - C. AQSH Gollivud markazida
 - D. Xindiston Bollivudda
15. Muallif fikri rivoji, vokealar tizimi, dolzarb muammo kuyish va uni yechish jarayoni bildirilishi
- A. Syujet
 - B. Kompozitsiya
 - C. Dialog
 - D. Ibora
16. «Titanik», «Avatar» filmlarni rejissyori
- A. Djeym Kemmeron
 - B. Miklosh Forman
 - C. Alfred Xichkok
 - D. Maykl Duglas

17. Rossiyada olingan «Proklyatiye Tamerlana» xujjatli filmda kim intervyu beradi
- A. Kinorejisser-operator Malik Kayumov
 - B. Kinorejisser Ali Xamrayev
 - C. Kinorejisser Elyor Ishmuxamedov
 - D. Jaxongir Fayziyev
18. Amerikalik rejisser Miklosh Forman olgan «Bedana inidan kimdur uchib ketdi» filmida voqealar qayerda sodir bo‘ladi
- A. Ruxiy kasallar klinikasida
 - B. O‘rmonda
 - C. Djunglida
 - D. Xayvonat bogida
19. Ovozsiz film- «Daydi» muallifi, rejisseri va ijrochisi
- A. Radj Kapur
 - B. Charlz Spenser Chaplin
 - C. Lyuk Besson
 - D. Djeki Chan
20. O‘zbekistonda olingan«Ikkinchi xotin» film rejisseri va aktyori
- A. Oleg Frelix
 - B. Mixail Doronin
 - C. Nikolay Klado
 - D. Mixail Krasnyanskiy
21. “Ikkinchi xotin» filmida bosh kaxramon Adolat rolini kim ijro etdi
- A. Sora Ishonturayeva
 - B. Lutfixonim Sarimsakova
 - C. Mariya Grinyova
 - D. Raisa Messerer
22. «Ajal minorasi» filmi kaysi studiyada va kachon olingan

- A. «Uzbekfilm» 1936 y.
 - B. «Shark yulduzi» 1925 y.
 - C. «Buxkino» 1925 y.
 - D. «Mosfilm» 1945 y.
23. «Toxir va Zuxra» filmi qachon olingan va rejisseri
- A. 1945 y Nabi Ganiyev
 - B. 1947 y. Yuldosh Agzamov
 - C. 1950 y. Komil Yormatov
 - D. 1943 y. - Yakov Protazanov
24. Uzbek va tojik kinosi asoschilaridan biri
- A. Maksud Shayxzoda
 - B. Komil Yormatov
 - C. Suleyman Xujayev
 - D. Ergas'hali Xamrayev
25. Jaxon ekranlarida kursatilgan badiiy film «Alisher Navoiy» kinooperatori
- A. Mark Penson
 - B. Daniil Demuskiy
 - C. Mixail Krasnyanskiy
 - D. Xatam Fayziyev
26. Ukrainadan kelib Uzbekistonda faoliyat kursatgan tanikli kinooperator
- A. Daniil Demuskiy
 - B. Sergey Urusevskiy
 - C. Aleksey Fedetskiy
 - D. Viktor Dashuk
27. «Alisher Navoiy» filmida bosh kaxramon rolini kim ijro etdi
- A. Abbos Bokirov
 - B. Razok Xamroyev
 - C. Olim Xujayev

- D. Asad Ismatov
28. Federiko Fellini kaysi davlat kinosining rejisseri
- A. Italiya
- B. Ispaniya
- C. Braziliya
- D. Angliya
29. Birinchi detektiv filmlar rejisseri
- A. Lui Bunyuel (Ispaniya)
- B. Alfred Xichkok (Angliya-amerika)
- C. Ferdinan Zeka (Fransiya)
- D. Mixail Romm (Rossiya)
30. Rossiyaning eng yirik kinomagnati (prodyuseri) Aleksandr Xanjonkovning f.lari kanday nomlanadi
- A. «Sevastopol ximoyasi»
- B. «Buyuk sokov»
- C. «Suzana va chumoli»
- D. «Yamshik, ne goni loshadey»
31. «Gomon» va «Pote» kinostudiyalar kayerda ochilgan
- A. Fransiyada
- B. Germaniyada
- C. Yaponiyada
- D. Koreyada
32. Amerika birinchi kino-kompaniyalar
- A. «Paramaunt», «Metro –Goldv-vin-Meyer», «XX-asr Foks»
- B. «Elektro teatri», «Turne Xeyl», «Edison»
- C. «Uorner Brayzers»,»»Ko-lambiya», «RKO-radio»
- D. «Bayograf», «Baytograf», «Yunayted Artists»
33. Birinchi bolalar parki «Disneylend» kayerda kurul-gan.
- A. Nyu-Yorkda
- B. Verdjiniyada

- C. Kaliforniyada
 D. Sinsnatida
 34. Kaysi Rossiya filmida Shukur Burxonov salbiy rol uynagan
 A. «Ivan Grozniy» f-da
 B. «Sadko» f-da
 C. «Ilya Muromets» f-da
 D. «Aleksandr Nevskiy» f-da
 35. Aktyorlar ishtirokida olingan kino turi
 A. Badiiy
 B. Ilmiy-ommaviy
 C. Telekino
 D. Animatsion

Javoblar

1 – B	11 – V	21 – B	
2 – A	12 – S	22 – D	
3 – B	13 – A	23 – A	31 – D
4 – A	14 – S	24 – A	32 – A
5 – S	15 – S	25 – B	33 – B
6 – A	16 – A	26 – S	34 – S
7 – A	17 – A	27 – A	35 – S
8 – A	18 – A	28 – B	
9 – A	19 – A	29 – A	
10 – A	20 – V	30 – S	

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR (J.N., O.N., Y.N.)

1. Kino va televideniye tarixining shakllanishi
2. O'tgan asrlarning texnikaviy yangiliklarning kirib kelishi
3. O'zbekiston hududida kino, radio sohalarining yuzaga kelishi
4. Kino, televideniye va radio rejissurasi
5. Kino - ommaviy san'at turi
6. Radioda rejissor ishi. Suxandonlik ijodi
7. Kino san'atida uslub va oqimlar
8. Kino san'atida tur va janrlar
9. Teleekranda janrlar, dasturlar va turlar ifodasi
10. Turli davlatlarning yetakchi televideniyelari
11. Telefilmlar yaratish va videoyozuvning o'ziga xosligi
12. Kino va televideniye san'atlarining o'zaro ta'siri
13. Dunyo ekranida telefilm va teleseriallar o'rni
14. Kino va televideniye san'atlarining o'ziga xos ifoda vositalari
15. Tarmoqlarning muxlislarga xizmat qilishi
16. Televideniye - kompyuterlashgan san'at turi
17. Ixtisoslashuvning radioeshittirish va ekran san'atidagi o'rni
18. Kino va televideniyeda "film" tushunchasi.
19. Badiiy va hujjatli telefilmlar - televizion spetsifikasi mahsuli sifatida.
20. Televizion film.
21. Janr va turlari. Xujjatli kino. Portret, kinoocherk, lavha va boshqa janrlar.
22. Videofilmlar kirib kelishi. O'z.TVda teleseriallar. Dastlabki urinishlar, shakllanish yo'li va taraqqiyot asoslari.
23. Telekino tushunchasi.

24. Rossiya televideniyesining telekino janrining paydo bo'lishidagi roli va ahamiyati.
25. "O'zbektelefilm"ning tashkil topishi va ijodiy tamoyillari. Telekinoda portret, xronika, manzarali filmlar
26. Radio jurnalistika va teleekran san'atida rejissyor va jurnalistning ixtisoslashuvi va universallik muammolari.
27. Mamlakatimizda televideniye san'atining o'ziga xos muammolari masalasi.
28. Universallikdan ixtisoslashuvga o'tish zaruriyati.
29. Ixtisoslashuv terminining kirib kelishi va uning mohiyati.
30. Jurnalist kadrlar tayyorlashda ixtisoslashu masalasi.
31. Zamonaviy kino, televizion san'atda badiiyat mezonlari va tamoyillari.
32. Kino san'atining tasviriy san'at, fotografiya, adabiyot va teatr tajribalariga tayangan holda shakllanishi.
33. Kino san'atining o'ziga xos xususiyatlari: kino – sintetik san'at, ovozli tomosha.
34. Kino tarixida turlarning yuzaga kelishi: hujjatli, badiiy, ilmiy-ommabop, animatsion filmlarning rivojlanishi

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Asosiy adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Reklama to‘g‘risida”gi qonuni. – T., 2003.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Noshirlik faoliyati to‘g‘risida»gi qonuni. –To‘rtinchi hokimiyat” to‘plamida.
3. Abulqosimova X. “Kino san’ati asoslari” 2010 y. Toshkent (o‘quv qo‘llanma)
4. Aliyev M. “Kino asoslari” 1991 y. Toshkent
5. Axmedov B.Nauchno – populyarnoye kino -T.:AkademiY. 2012.-58 s (o‘quv qo‘llanma).
6. Teshaboyev J., Abulqosimova X. “Kinoiskusstvo Uzbekistana” 1986 y. Toshkent
7. Akbarov X. “Kino va televideniye olamida” 2009 y. T.
8. M.Muxamedov, F.Fayziyeva, V.Ablyayeva. Televideniye asoslari.-T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”.2008.-134 b (o‘quv qo‘llanma).

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. //Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
- 2.Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. 2017 yil

3. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. 2017 yil
4. Mirziyoyev SH.M. Erkin va faravon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda quramiz. 2017 yil
5. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha **HARAKATLAR STRATEGIYASI**.
6. Teshabayev D. Abul-Kasimova A. Xayitmatova S. Mirzamuxamedova M. Annotirovanniy katalog xudojestvennogo kino Uzbekistana 1925-2008.-T.: OOO «Mir INFORM». 2009.- 239 s
7. Axmedov B. Annotirovanniy katalog dokumentalnih filmov Uzbekistana (1910-2010g.g).- T.: Akademiya. 2011.-202 s
8. Абулкасимова Х. Рождение узбекского кино. –Т.: 1994.
9. Ahmedov B. O'zbek televizion kinosining rivojlanish tarixi. - Toshkent: Akademiya, 2007. -214b.
10. Ubaydullayev M. Oyinai jahon istiqbollari.- T.: Fan, 1993.

Internet saytlari

1. Veb sayt : [http:// www. ziyo.net](http://www.ziyo.net)
2. Veb sayt : [http:// www. kino-teatr. ru](http://www.kino-teatr.ru)
4. Veb sayt : [http:// www. kinoart. ru](http://www.kinoart.ru)

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I BOB. Kinematografiyaning vujudga kelishi va shakllanishi.....	
1.1§. Fransiya kinosi.....	
1.2§. Amerika qo‘shma shtatlari kinosi.....	
1.3§. Gollivud kinokompaniyasining shakllanishi.....	
1.4§. Angliya kinosi.....	
II BOB. Rossiya kinosi.....	
2.1§.1920- yillarda Rossiya kinosining rivojlanishi	
2.2§. 1940-1960 yillarda Rossiya kinosi.....	
2.3§. Kinorejissyor Leonid Gayday filmlari.....	
III BOB. O‘zbek kinosi.....	
3.1§.O‘zbek kinosining vujudga kelishi.....	
3.2§. O‘zbek kinosida tarixiy va zamonaviy filmlar.....	
3.3§. O‘zbek filmlariga tahlilan yondashuv.....	
3.4§. Qisqa metrajli filmlar.....	
3.5§. Kino turlari.....	
3.7§. Dublyaj san’ati.....	
Ilova.....	
Glossariy.....	
Kurs ishlari uchun mavzular.....	
Tarqatma materiallar.....	
FOYDALANILGAN ADABIYOTLARRO‘YXATI.....	

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT
SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

ISOKOVA MATLUBA KOMILOVNA

KINO VA TELEVIDENIYE TARIXI

O‘quv qo‘llanma

Muharrir – Jamalov L.O.

Musahhah – Islomova H.S.

Texnik muharrir – Gulomov A.T.

«NAVRO‘Z» nashriyoti. Litsenziya № NN 013

Nashriyot manzili: Nurafshon. Toshkent yo‘li ko‘chasi, 123-uy.

Bosishga ruxsat etildi: 12.11.2020-yil
Bichimi 60x84 1/16. «TimesNewRoman»
garniturada raqamli bosma usulda chop etildi.
Shartli bosma tabog‘i 13. Adadi 100. Buyurtma № 53

“Fan va talim poligraf” MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 24-uy.